

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI

**Oliy ta'limda milliy g'oya va ma'naviyat
asoslari fanlarini o'qitishning nazariy asoslari**

MODULI BO'YICHA O'QUV-USLUBIY MAJMUA



Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: **M.A.Sobirova** - Nizomiy nomidagi TDPU "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" kafedrasi dotsenti, f.f.n.

Taqrizchilar: **S.X.Xudaynazarov** - O'zMU "Fuqarolik jamiyat va huquq ta'limi" kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi
N.M.Akayeva - Nizomiy nomidagi TDPU "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" kafedrasi dotsenti

Xorijiy ekspert: **p.f.dok., professor A.X.Pulotov** – akademik Bobojon Gafurov nomidagi Xo'jand davlat universiteti

O'quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2020 yil 27 avgustdagি 1/3.6- sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.



MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	12
III. NAZARIY MATERIALLAR MAZMUNI	18
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI	99
V. KEYSALAR BANKI	112
VI. GLOSSARIY	120
VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	122



I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-4732-son Farmonidagi ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy va pedagogik kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi. Dastur mazmuni oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari va qonunchilik normalari, ilg'or ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta'lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, global Internet tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullarini o'zlashtirish bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning **maqsadi** pedagog kadrlarning o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada ta'minlashlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam yangilash, malaka talablari, o'quv reja va dasturlari asosida ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini doimiy rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Modulning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

"Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasi oshirish kursi tinglovchilarida milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarning zamonaviy dolzarb muammolari haqidagi tasavvurlarni hosil qilish;

pedagog kadrlarning milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlarini o'qitishning nazariy asoslari bo'yicha kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzlusiz yangilash va rivojlanantirish mexanizmlarini yaratish;

zamonaviy talablarga mos holda oliy ta'limning sifatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pedagoglarning sohaga oid kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;

pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o'zlashtirilishini ta'minlash;

maxsus fanlar sohasidagi o'qitishning innovation texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish;

"Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining fan va ishlab chiqarish bilan integrasiyasini ta'minlash.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

- milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarning zamonaviy nazariy qarashlari va yetakchi konsepsiyalarini;
- modulning ta'limiy va tarbiyaviy maqsad-vazifalari;
- fanning rivojlanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari;
- oliy ta'lim tizimida tarix ta'limi sohasidagi kadrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni;
- ta'lim mazmunini modernizasiyalashni;
- ta'limning normativ-huquqiy hujjatlarini;
- ta'limdagi innovasiyalarni bilishi kerak.
- fanlardagi innovasiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish;
- darslarda tinglovchilarning faolligini oshirishga xizmat qiladigan interfaol ta'lim shakllari, metodlari va vositalaridan samarali foydalanish;
- fanni o'qitishda rivojlangan mamlakatlardagi ilg'or tajribalardan foydalanish;
- ta'lim jarayonida tinglovchilarning bilimlarini ob'ektiv baholash mexanizmlari, reyting nazoratda qo'llashga qaratilgan didaktik vositalar: standart va nostandart o'quv va test topshiriqlari majmuasini ishlab chiqish;
- ta'lim jarayonida tinglovchilarda mustaqil ravishda bilimlarni yanada orttirib borishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, mustaqil ish vazifalarini tabaqlashtirish, mustaqil ish va ijodiy izlanishlarini tashkil etish, ularga rahbarlik qilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.**
- o'qituvchining pedagogik faoliyatini loyihalashtirish;
- moderator o'qituvchilarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish asosida o'zining pedagogik faoliyatini takomillashtirish;
- fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarning bilimlarini xolisona baholash mexanizmlarini, reyting nazoratda qo'llashga qaratilgan didaktik vositalar: standart va nostandart testlar hamda o'quv topshiriqlari majmuasini ishlab chiqish;
- o'quv axborotni qayta ishslash, muammoli vaziyat, Keys-stadi topshiriqlarini tuzish;
- ta'lim jarayonida tinglovchilarda mustaqil ravishda bilimlarni yanada orttirib borishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, mustaqil ish vazifalarini tabaqlashtirish, mustaqil ish va ijodiy izlanishlarini tashkil etish;

- didaktik ta'minotni takomillashtirish kabi ***malakalariga ega bo'lishi lozim.***
- milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarning zamonaviy yo'nalishlariga oid nazariy qarashlar, yetakchi konsepsiyaning pedagogik faoliyatda qo'llay olish;
- mashg'ulotlarda innovasion va axborot texnologiyalar, tinglovchilar o'quv faoliyatini faollashtiruvchi metodlarni qo'llash;
- ta'lim jarayonida tinglovchilarning faolligini oshirishga xizmat qiladigan interfaol ta'lim shakllari, metodlari va vositalaridan pedagogik amaliyotda samarali foydalanish;
- milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limini boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, bo'lajak tarbiyachilarda kreativ malakalarni shakllantirish ***kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.***

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” yo'nalishi bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlardan, test so'rovlardan, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Oliy ta'limda milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlarini o'qitishning nazariy asoslari” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi”, “Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish” o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda (ma'ruza) modulning mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha tinglovchilarga yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularining dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda



bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o‘zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalardagi islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so‘ngti yutuqlari e’tiborga olinishi tavsiya etiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari tarkumidagi fanlarning zamonaviy konsepsiyalari va fanning dolzarb nazariy muammolari, taraqqiyot tendensiyalari va innovatsiyalarini o‘rganish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Jami	Jumladan	
			nazariy	amaliy
1.	Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari tarkumidagi fanlarini o‘qitishning nazariy-huquqiy asoslari	4	2	2
2.	“O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasи”.	4	2	2
3.	Globallashuv sharoitida milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari tarkumidagi fanlarni o‘qitishga qo‘yilayotgan talablar.	4	2	2
4.	Kompetensiyalarga asoslangan ta’lim. Mafkuraviy kompetensiya va uni rivojlantirish zaruriyati.	4	2	2
5.	Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari tarkumidagi fanlarni o‘qitishda ijtimoiy fanlardagi eng so‘nggi yangiliklar va yutuqlardan mavzu doirasida foydalanish.	2	-	2
6.	Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari tarkumidagi fanlarga oid yangi adabiyotlar tahlili.	2	-	2
Jami		20	8	12

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Milliy g'oya va ma'naviyat asoslar turkumidagi fanlarini o'qitishning nazariy-huquqiy asoslari

Milliy g'oyaning ma'naviyat negizida shakllanishi, tahlili. Ma'naviyatning tarixiy taraqqiyot bosqichlari. Jamiyat, millat manfaatlarini aks ettiruvchi qarashlar. Milliy g'oyaning tarixiy va falsafiy ildizlari.

Milliy g'oya va siyosat. Milliy g'oya, ma'naviyat va yoshlar tarbiyasi. Mamlakatimizda milliy g'oya ta'limining joriy etilishi. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida", "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va va ma'naviy tarbiya yo'nalishlari.

2-mavzu. "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiysi".

Milliy g'oya – sog'lom fikrlaydigan har bir shaxs va fuqaroda milliy g'urur-iftixor, or-nomusni uyg'otadigan, o'zlikni anglatadigan, xalqning maqsadi va orzu umidlariga kuch-qudrat, g'ayrat baxsh etadigan, millatni harakatga keltiradigan qudratli omil. Mamlakatimizni taraqqiy ettirish bo'yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda milliy g'oyani rivojlantirish dolzarb masalaga aylanishi. "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiysi"ning qabul qilinishi.

Milliy yuksalish – o'zini, o'zligini, Vatani va vatandoshlarini anglagan hamda qadrlagan ongli, fidoyi va sadoqatli insonlarning hamjihatlikdagi harakati natijasi ekanligi. "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" g'oyasi. Milliy yuksalish g'oyasining asosiy tushunchalari.

3-mavzu. Globallashuv sharoitida milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o'qitishga qo'yilayotgan talablar

"Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishidagi fanlarni o'qitishning o'ziga xosliklari. "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishida o'qitiladigan milliy g'oya va ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlar va ularni o'qitishning bugungi holati, yechimini kutayogan muammolar.

Globallashuv sharoitida milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o'qitishga qo'yilayotgan talablar. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi



va g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi, uslub va vositalarining takomillashuvi, yangi texnik va texnologik tizimlarning yuzaga kelishi.

Talabalar o'rtasida milliy mustaqillik g'oyalari asosida ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish prinsiplari.

4-mavzu. Kompetensiyalarga asoslangan ta'lim. Mafkuraviy kompetensiya va uni rivojlantirish zaruriyati

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishidagi fanlar o'qituvchilarining dars jarayonlarida va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda yangicha yondashuv va innovatsiyalar.

Kompetensiyaviy yondashuv va kompetensiya tushunchasi. Kompetensiyalarga asoslangan ta'lim.

Bugungi kunda professor-o'qituvchilarning mafkuraviy kompetentliligin shakllantirish zaruriyati. Talaba yoshlarning ma'naviy va g'oyaviy tarbiyasida pedagoglarning o'rni va roli. Professor-o'qituvchilarning imidj masalasi, nutqiy salohiyati, kundalik faoliyatda so'z va amal birligi masalasi.

AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot: Milliy g'oya va ma'naviyat asoslar turkumidagi fanlarini o'qitishning nazariy-huquqiy asoslari

Milliy g'oyaning ma'naviyat negizida shakllanishi, tahlili. Ma'naviyatning tarixiy taraqqiyot bosqichlari. Jamiyat, millat manfaatlarini aks ettiruvchi qarashlar. Milliy g'oyaning tarixiy va falsafiy ildizlari.

Milliy g'oya va siyosat. Milliy g'oya, ma'naviyat va yoshlar tarbiyasi. Mamlakatimizda milliy g'oya ta'limining joriy etilishi. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida", "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va va ma'naviy tarbiya yo'nalishlari.

2-amaliy mashg'ulot: "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiysi".

Milliy g'oya – sog'lom fikrlaydigan har bir shaxs va fuqaroda milliy g'ururiftixor, or-nomusni uyg'otadigan, o'zlikni anglatadigan, xalqning maqsadi va orzu umidlariga kuch-qudrat, g'ayrat baxsh etadigan, millatni harakatga keltiradigan qudratli omil. Mamlakatimizni taraqqiy ettirish bo'yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda milliy g'oyani rivojlantirish dolzarb masalaga aylanishi.

“O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiysi”ning qabul qilinishi.

Milliy yuksalish – o‘zini, o‘zligini, Vatani va vatandoshlarini anglagan hamda qadrlagan ongli, fidoyi va sadoqatli insonlarning hamjihatlikdagi harakati natijasi ekanligi. ‘Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” g‘oyasi. Milliy yuksalish g‘oyasining asosiy tushunchalari.

3-amaliy mashg‘ulot: Globallashuv sharoitida milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o‘qitishga qo‘yilayotgan talablar

“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishidagi fanlarni o‘qitishning o‘ziga xosliklari. “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishida o‘qitiladigan milliy g‘oya va ma’naviyat turkumiga kiruvchi fanlar va ularni o‘qitishning bugungi holati, yechimini kutayogan muammolar.

Globallashuv sharoitida milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o‘qitishga qo‘yilayotgan talablar. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi va g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish imkoniyatlarining kengayishi, uslub va vositalarining takomillashuvi, yangi texnik va texnologik tizimlarning yuzaga kelishi.

Talabalar o‘rtasida milliy mustaqillik g‘oyalari asosida ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish prinsiplari.

4-amaliy mashg‘ulot: Kompetensiyalarga asoslangan ta’lim. Mafkuraviy kompetensiya va uni rivojlantirishning zaruriyati

“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishidagi fanlar o‘qituvchilarining dars jarayonlarida va ma’naviy-ma’rifiy ishlarda yangicha yondashuv va innovatsiyalar.

Kompetensiyaviy yondashuv va kompetensiya tushunchasi. Kompetensiyalarga asoslangan ta’lim.

Mafkuraviy kompetensiya va uni rivojlantirishning zaruriyati. Milliy va ma’naviyat turkumiga kiruvchi fanlarning o‘qituvchisiga qo‘yiladigan kompetensiyaviy talablar, o‘qituvchining shaxsiy xususiyatlari.

5-amaliy mashg‘ulot: Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o‘qitishda ijtimoiy fanlardagi eng so‘nggi yangiliklar va yutuqlardan mavzu doirasida foydalanish

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning mamlakatimiz taraqqiyoti va yosh avlodimizning dunyoqarashini shakllantirishdagi imkoniyatlari. Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o‘qitishda ijtimoiy fanlar (Tarix, Dinshunoslik, Davlat va huquq asoslari, Ona tili va adabiyot)dagи eng so‘nggi yangiliklar va yutuqlardan mavzu doirasida foydalanish. Talaba yoshlarni vatanparvarlik, millatparvarlik va umuminsoniylik ruhida tarbiyalash hamda ularda



milliy manfaatlarimizga zid bo'lgan g'oya va mafkuralarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati.

6-amaliy mashg'ulot: Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari tarkumidagi fanlarga oid yangi adabiyotlar tahlili

O'quv adabiyoti turlari: darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, qo'shimcha adabiyotlar, ilmiy asarlar, ilmiy ommabop asarlar, badiiy adabiyotlar va hk. Bugungi kunda o'quv adabiyotlariga qo'yilayotgan talablar. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari tarkumidagi fanlarga oid adabiyotlarning xususiyatlari, vazifalari. "G'oya demasdan g'oyani – singdirish" tamoyili.

Bugungi kunda yaratilayotgan milliy g'oya va ma'naviyat asoslari tarkumidagi fanlarga oid yangi adabiyotlar tahlili.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilibayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

Bugungi kunda fancha fanlarni o'qitishga qo'yilayotgan talablarda belgilanganidek, milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o'qitish jarayonida ham ilg'or pedagogik texnologiyalar va interfaol ta'lif metodlarini qo'llash, amalda qo'llanilayotgan va yangi o'quv qo'llanmalarining mazmun-mundarijalarini o'rganish va tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta'lif jarayonini har tomonlama mukammal loyihalashtirish, aniq maqsadlar qo'yish va ularga kafolatlangan holda erishish, rejulashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi uzviy bog'langan komponentlar yig'indisi hisoblanadi.

Innovatsion pedagogik texnologiya o'z tuzilishiga ko'ra quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: mashg'ulot turi, unga ajratilgan vaqt, asosiy ko'rila'digan savollar, tayanch tushuncha va iboralar, o'qituvchining maqsadlari, asosiy savollar matni, nazorat topshiriqlari, mustaqil ishlar, faydalnilgan adabiyotlar ro'yxati, natijalarni baholash. Har bir o'qituvchi dars reja ishlanmasi tuzayotganda innovatsion pedagogik texnologiyaning barcha elementlarini oqilona qo'llashi yuqori samara beradi.

Interfaol metodlar esa ta'lif oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lif jarayonining markazida ta'lif oluvchi bo'lgan metodlardir. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lif beruvchi ta'lif oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lif oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Dars jarayonida interfaol metodlarni qo'llash orqali o'qituvchilarning metodik mahoratini oshirish masalaning bir tomoni xolos. Keng ma'noda esa o'quv-tarbiya jarayonining yaxlit tarzda, mazmunli amalga oshirish texnikasi, uning pirovard natijalari samaradorligini belgilovchi omil, o'qituvchi, kadrlarni mahoratga, samarali mehnat qilishga yetaklovchi yo'ldir.

Pedagogik jarayonda muayyan mavzu, fan asoslaridan o'quvchilarga ko'nikma darajasida tez va qulay bilim berish ham ta'lif texnologiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunda o'qituvchi mahorati ham muhim rol o'ynaydi.

Ta'lif oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lif samarasini yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lif oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lif oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lif oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;


- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Quyida milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o'qitish jarayonida foydalanishi maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol metodlarning ayrimlari keltirib o'tilgan:

1. “VENN DIAGRAMMASI” GRAFIK ORGANAYZERI (GO)

Ta'lim oluvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiyligi mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

GO quyidagi sxema (grafik tasvir)ga ega bo'lib, topshiriq shu sxema asosida bajariladi:



Grafik organayzer ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

2. “KEYS-STADI” TEXNOLOGIYASI

“Keys-stadi” (ingliz tilida “case” – metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) texnologiyasi ta'lim oluvchilarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U



ta'lim oluvchilarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga o'rgatadi.

Texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi.

Bular quyidagilardir: ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni toplash, ularni o'rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtaсидаги та'лими aloqaning usul va vositalari, o'quv natijalari.

3. “KONSEPTUAL JADVAL” GO

Ta'lim oluvchilarni o'rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlari bo'yicha taqqoslashga o'rgatadi. Undan foydalanishda ta'lim oluvchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatları rivojlantiriladi.

Mashg'ulotlar chog'ida GOdan quyidagicha foydalaniladi:

O'qituvchi yechimi topilishi lozim bo'lgan mavzu (masala)ni aniqlaydi

Talabalar mavzu va GOdan foydalanish qoidasi bilan tanishtiriladi

Talabalar kichik guruhlarga biriktiriladi

Guruhrar o'zlariga berilgan topshiriqni bajaradi

Guruhrar yechimni sinf (guruh) jamoasi hukmiga havola etadi

Guruhlarning yechimlari sinf (guruh) jamoasida muhokama qilinadi

4. “Baliq skeleti” GO

Ta'lim oluvchilarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo'llashda ta'lim oluvchilarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

5. “INSERT” GO

Yangi mavzu bo'yicha o'quvchi (ta'lim oluvchi)larning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash, ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

6. “KLASTER” GO

“Klaster” (g‘uncha, to‘plam, bog‘lam) grafik organayzeri puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, uni ta’lim oluvchilar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda qo‘llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish, ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

7. “MUNOSABAT” METODI

Texnologiya ta’lim oluvchilarga ular tomonidan mavzu bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilimlarni erkin bayon qilish, mazmunini o‘z fikri, hayotiy misollar yordamida yoritishini ta’minalashga xizmat qiladi.

O‘quv jarayonida texnologiyadan foydalanish o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha muayyan masalalarini hal etish, ma’lum jarayon (voqelik, hodisa)ning

kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo‘llarini topish asosida ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, fikrini isbotlash va turli vaziyatlardan chiqa olish ko‘nikma, malakalarini hosil qiladi.

Texnologiya tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lib, ta’lim oluvchilarga o‘zlarida ijobiy fazilatlarni ko‘proq shakllantirish, salbiy xislatlardan esa voz kechishlarida yordam beradi.

8. “NILUFAR GULI” GO

Texnologiya didaktik muammolarni yechishning samarali vositalaridan bo‘lib, nilufar guli ko‘rinishiga ega. Asos, unga birikkan to‘qqizta “gulbarg” (kvadrat, to‘rburchak yoki aylanalar)larni o‘z ichiga oladigan bu metod yordamida asosiy muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi.

9. “REJA” METODI

Metod ta’lim oluvchilar tomonidan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida pedagogik faoliyatni tashkil etishga oid rejani ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo‘llash ta’lim oluvchilardan o‘rganilayotgan mavzu mazmunini puxta o‘zlashtirish, asosiy g‘oyalarni umumlashtirish, ma’lum tizimga solish layoqatiga ega bo‘lishni taqozo etadi.

Metod ta’lim oluvchilar faoliyatini juftlik, guruh va jamoa asosida tashkil etish imkonini beradi. Uni ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish, volontyorlik harakatlarini olib borish, pedagogik amaliyotni tashkil etishda qo‘llash yanada samarali hisoblanadi.

Odatda rejani ishlab chiqishda pedagogik vaziyat, ta’lim oluvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ma’naviy-ma’rifiy ishning yo‘nalishi, mazmuni hamda samaradorlikka erishish imkoniyatiga egalik inobatga olinadi.


10. “T-JADVAL” GO

Grafik organayzer tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o'zaro solishtirish, qiyoslash asosida o'rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini bir necha asosiy belgilarga ko'ra batafsil yoritish maqsadida qo'llaniladi. Ko'p hollarda grafik organayzer mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samaradorli yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo'llaniladi.

11. “SWOT-TAHLIL” STRATEGIYaSI

Strategiya muammoning asosiy to'rt jihatini yoritishga xizmat qiladi. Ta'lim oluvchilar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o'rganish orqali mohiyatini yoritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, hal qilish imkoniyatlarini topadi.

U yordamida muammoning quyidagi to'rt jihatni tahlil qilinadi:



Grafik organayzer ta'lim oluvchilarda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan fikrlarni mustaqil bayon etish, shaxsiy mulohazalarni dalillash (misollar bilan asoslash), bahslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim oluvchilarga quyidagi sxema bilan ishlash tavsiya etiladi:

Nº	Tushunchalar	(F)	(S)	(M)	(U)
1.	Ta'lim metodlari				
2.	Ta'lim vositalari				
3.	Ta'limni tashxis qilish				

12. “QARAMA-QARShI MUNOSABAT” STRATEGIYaSI

Strategiya o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni tahlil hamda sintez qilish asosida mavzuni yoritishda ahamiyatli bo'lgan tayanch tushunchalarni asosiy va ikkinchi darajali sifatida guruhlarga ajratish imkonini beradi.



Ta'lim oluvchilar faoliyatining samaradorligini ta'minlash uchun ularning e'tiboriga quyidagi jadvalni taqdim etish maqsadga muvofiq:


Tayanch tushunchalar			
Nº	Muhim tushunchalar	Nº	Muhim bo'lmagan tushunchalar
1.		1.	
		2.	

13. “QARORLAR ShAJARASI” (“QAROR QABUL QILISH”) STRATEGIYaSI

Strategiya muayyan fan asoslariga oid bir qadar murakkab mavzularni o‘zlashtirish, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, muammo yuzasidan bildirilayotgan bir nechta xulosa orasidan eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan texnik yondashuvdir. U avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qarorlarni yana bir bora tahlil qilish, uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Ta’limda strategiyani qo‘llash o‘rganilayotgan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish) uchun ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variantni tahlil qilish, maqbul va nomaqbul jihatlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Unga ko‘ra mashg‘ulotlarda ta’lim oluvchilar quyidagi chizma asosida ishlaydi (u yoki bu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadi):



III. NAZARIY MATERIALLAR MAZMUNI

1-mavzu: MILLIY G‘OYA VA MA’NAVIYAT ASOSLARI TURKUMIDAGI FANLARINI O‘QITISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

Reja:

1. Modulning g‘oyaviy-nazariy asoslari, maqsad va vazifalari
2. Milliy g‘oyaning ma’naviyat negizida shakllanishi, tahlili. Ma’naviyatning tarixiy taraqqiyot bosqichlari.
3. Jamiyat, millat manfaatlarini aks ettiruvchi qarashlar. Milliy g‘oyaning tarixiy va falsafiy ildizlari.
4. Milliy g‘oya va siyosat. Milliy g‘oya, ma’naviyat va yoshlar tarbiyasi.
5. Mamlakatimizda milliy g‘oya ta’limining joriy etilishi.

Tayanch tushunchalar: Milliy g‘oya, ma’naviyat, ma’naviyat asoslari, ma’naviyat rivoji, tarixiy xotira, milliy g‘oyaning tarixiy ildizlari, milliy g‘oyaning falsafiy ildizlari, millat, millat manfati, falsafa, tarixiy tafakkur mazmuni va zarurati. Oliy ta’limda milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o‘qitishning nazariy asoslari.

1. Modulning g‘oyaviy-nazariy asoslari, maqsad va vazifalari

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda jamiyat hayotining ma’naviy-ma’rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini hayotga joriy etish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas’uliyat hissini oshirish, yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo‘naltirilgan targ‘ibot tizimi shakllandи.

Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko‘payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Endilikda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda har kuni uzoq davr mobaynida to‘planib, o‘z yechimini kutib yotgan ko‘pgina muammolar hal qilinmoqda. Ayrim jabhalarda yuzaga kelgan murakkab vaziyatni ijobjiy yo‘nalishga burish va undan jamiyat manfaatlari yo‘lida foydalanish bo‘yicha amaliy harakatlar qilinmoqda. Bu o‘rinda milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlar sohasida to‘plangan masalalarni xal qilish hamda xalqning qalbi va xotirasi bo‘lmish bu qadim fanning nufuzini ko‘tarish, mas’uliyati va vazifalarini belgilab olish



borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va Vazirlar Mahkamasi Qarorlari katta ahamiyat kasb etmoqda.

Ayni shunday sharoitda milliy g'oyaning hayot talablari va bugungi taraqqiyotimizning muhim muammolari bilan birga o'rghanish, uni yanada boyitish, takomillashtirish va tushuntirish, targ'ib etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun, milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarning asosiy vazifasi talaba yoshlarda yangicha dunyoqarash va mafkuraviy immunitet asoslarini, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, yosh avlod qalbida g'oyaviy bo'shliq vujudga kelishiga yo'l qo'ymaslik, ularni ajdodlarning shonli kechmishi, fidokorligi va qahramonona hayoti ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

Ayniqsa, "Axborot va globallashuv asri" deb atalayotgan bugungi kunda ushbu maqsadga erishish uchun o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldag'i "Ma'naviy-ma'rifiy ishlari samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi №3160-sonli qarorida ta'kidlanganidek, "Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko'payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda".

Ta'kidlash kerakki, yoshlarimizning eng ko'p qismi uzluksiz ta'lim tizimining alohida bosqichlari hisoblangan umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hamda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oladi.

Har bir tizimda o'quvchi va talabalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlar o'qitiladi. Ushbu fanlardan o'tiladigan darslarning samaradorligini oshirish, o'qituvchining pedagogik mahorati, uning dars jarayonlarida yangi pedagogik texnologiyalardan samarali va to'g'ri foydalanishi – o'quvchi va talaba yoshlarning g'oyaviy hamda ma'naviy-intellektual yetukligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, O'zbekistonda yangi g'oyalar, innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish bo'yicha ko'p markazlar, jamg'armalar faoliyat ko'rsatib (Innovatsion texnologiyalar markazi, Respublika ta'lim markazi, "Iste'dod" jamg'armasi), bugungi kunda yurtimizda ta'lim-tarbiya jarayoniga yangi texnologiyalarni tatbiq qilish muammolari va ularning yechimlarini topish bo'yicha keng faoliyat yo'lga quyilgan. Rivojlangan mamlakatlardagi ta'lim, tarbiya tizimi, ilg'or tajribalar va o'zimizning respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan "yangi

ta'lism modeli” tizimi, innovatsion g‘oyalarni o‘rganish ustida qizg‘in ish olib borilmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, bugungi kunda talaba yoshlarning aqliy kamoloti rivojlanib borayotganligi, ularning ilm o‘rganishga chanqoqligi, mustaqil fikrlashi va ilmiy-ijodiy izlanishlari, yangiliklar va kashfiyotlarga nisbatan cheksiz qiziqishi va ta’lim mazmuniga talabchanligi tabiiyki, har bir o‘qituvchini o‘z ustida ishlashga, malakasini oshirishga, ongi va salohiyatini rivojlantirishga, tizimidagi barcha yangiliklardan boxabar bo‘lib borishga undaydi.

Qolaversa, bugungi kunda shiddat bilan kechayotgan jarayonlar yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarning mazmun va mohiyati, o‘ziga xos xususiyati va dars jarayonlarida qo‘llash usullarini chuqurroq o‘rganish, tadqiq etish lozimligini anglatmoqda.

Barkamol avlodni tarbiyalash uchun ularning ijodiy qobiliyatini o‘stirish, mustaqil fikrlash malakalarini rivojlanirish zarur bo‘lganidek, o‘z o‘rnida professor-o‘qituvchilarda ham ta’lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri va muvaffaqiyatl tashkil etish mahoratini oshirish lozimligini hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Shu bois bugungi kunda milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o‘qitishda quyidagi eng muhim talablar qo‘yilmoqda:

- har bir darsda tanlanadigan mavzuning ilmiy asoslanganligi, ya’ni darsdan ko‘zlangan maqsad hamda talabalar imkoniyatini hisobga olgan holda mavzu hajmini belgilash, uning murakkabligini aniqlash, o‘tgan darsdagi o‘tilgan mavzu bilan bog‘lash, o‘quvchilarga beriladigan topshiriq va mustaqil ishlarning ketma-ketligini aniqlash, darsda kerak bo‘ladigan jihozlarni belgilash va qo‘srimcha ko‘rgazmali qurollar bilan boyitish, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darsda muammoli vaziyatni yaratish;

- milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarini o‘qitishda interfaol usul va metodlarlarni qo‘llash, amalda qo‘llanilayotgan va yangi o‘quv qo‘llanmalarning mazmun-mundarijalarini o‘rganish va tahlil etish;

- dars mavzularini bayon etishda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan muqaddas manbalarimizdan, ertak, rivoyat, hikoya, maqol va hikmatlardan, buyuk ajdodlarimizning boy meroslaridan, hozirgi zamon badiiy adabiyot namunalaridan, mustaqillik davrida yaratgan asarlardan qiziqarli tarzda tashkil etiladigan darslar orqali unumli foydalanish;

- shuningdek, fanlararo uzviylikka e’tibor berish, amaliy, ijodiy mashg‘ulotlarni ko‘proq kiritish, bu borada mahoratli o‘qituvchilarning ijodiy ish tajribalaridan keng foydalanish va hk.

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari tarkumidagi fanlarni o'qitish jarayonida har bir pedagog ta'lim muassasasining spesifik xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik faoliyatini o'quvchilar jamoasining umumiyligi tayyoragarliklariga individual va differensial yondoshgan holda tashkil etmog'i va amalga oshirib bormog'i lozim. Yoshlarimizda milliy g'oya va milliy mafkura tushunchalarini faol shakllantirib borish shubhasiz ularning g'oyaviy-siyosiy kamolotlarida alohida ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat, madaniyat va ta'lim rivojlanayotgan, globallashuv tobora keng avj olayotgan bugungi kunda milliy g'oya va ma'naviyat asoslari tarkumidagi fanlarni o'qitishda ta'limiy innovatsiyalar tatbiqini yaxshilash, ulardan foydalanish metodikasini ishlab chiqish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda o'quvvchilarning pedagogik faoliyatini innovatsion yo'naltirishning zarurligini quyidagi holatlar belgilaydi:

- Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlar ta'lim sifatini yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarish zarurligini taqazo etadi. Bunda pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish, foydalanish va ta'lim jarayoniga tatbiq etishni o'z ichiga olgan professor-o'quvvchilar pedagogik faoliyatining innovatsion yo'nalganligi ta'lim siyosatini yangilash vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

- Ikkinchidan, ta'lim mazmunining insonparvarlashuvi, o'quv predmetlari hajmi va tarkibining o'zgarishi ta'limning yangi tashkiliy shakl va texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etilishini talab etadi.

- Uchinchidan, professor o'quvvchilarning pedagogik yangiliklarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishga bo'lgan munosabatlari o'zgarib bormoqda. Avval innovatsion pedagogik faoliyat, asosan yuqorida taklif etilgan yangiliklarni ta'lim jarayoniga joriy etish bilan cheklangan bo'lsa, hozir u tanlanadigan tadqiqot xarakteriga ega bo'lib bormoqda. Shuning uchun, ta'limni boshqarish tashkilotlari faoliyatida o'quvvchilar tomonidan ta'lim amaliyotiga kiritilayotgan pedagogik innovatsiyalarini tahlil qilish va baholash, ularni ishlab chiqish va tatbiq etish uchun qulay ta'limiy sharoit yaratish muhim yo'nalishga aylanmoqda.

Shulardan kelib chiqqan holda milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlarini o'qitishning nazariy asoslari va dolzarb masalalarini o'rganish maqsadida tashkil etilgan ushbu o'quv kursining bosh maqsadi shu masalalarni yanada chuqr o'rganish, aroflicha tahlil qilishga qaratilgan. Model o'z mazmun mohiyatiga ko'ra noan'anaviy bo'lganligi sababli uning ilmiy metodik ishlanmasini yaratish chuqr tadqiqot va izlanishlarni talab etadi. Modul doirasida tanlab olingan mavzular va ular doirasi nihoyatda keng qamrovli ekanligini inobatga olib belgilangan masalalarni to'laqonli yoritish hamda modulning ichki mazmunini ilmiy jihatdan boyitish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sohaga oid qaror, farmon va



farmoyishlari, asarlari va nutqlari hamda sohaning yetakchi olimlarining fundamental asarlari, monografiyalari va ilmiy maqolalaridan foydalanildi.

2. Milliy g'oyaning ma'naviyat negizida shakllanishi, tahlili.

Ma'naviyatning tarixiy taraqqiyot bosqichlari

Ma'naviyat va milliy g'oya bir-biri bilan bog'liq bo'lgan uzviy jarayondir. Biz yangicha dunyoqarashga ega bo'lgan fuqarolar bilangina yangi jamiyat qurishimiz mumkin.

Milliy g'oyada ma'naviyatning eng ustuvor kategoriylaridan biri "o'zlikni anglash" tuyg'usi mujassamlashgan. Jumladan, "Milliy g'oya – millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oya shakli"¹. "Milliy g'oya – muayyan millat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmui"². "Milliy g'oya – millatni, xalqni ezgu maqsadlar sari yetaklovchi ulug'ver fikrdir"³.

"Milliy g'oya deganda ajdoddlardan avlodlarga o'tib, asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqr ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan ta'bir joiz bo'lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqsadlarini o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, o'ylaymanki, bunday keng ma'noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo'lamiz"⁴.

Ushbu ta'riflardan kelib chiqib aytish mumkinki, milliy g'oya o'zlikni anglash va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotni ta'minlovchi milliy omil sifatida namoyon bo'ladi.

O'zlikni anglashning eng muhim omili milliy g'oya hisoblanadi. Ushbu fikrimizni asoslashdan oldin "o'zlikni anglash" tushunchasi mazmunini bilib olish zarur. Ilmiy adabiyotlarda "o'zlikni anglash" tushunchasining ham bir qancha talqini uchraydi. Masalan "o'zlikni anglash – insoning o'zini alohida vujud sifatida butun borliqdan ajrata bilishi, baholashi va qadriyat sifatida anglashini ifodalovchi tushuncha. O'zlikni anglash jamiyat oldida turgan vazifalarni to'g'ri anglash, ijtimoiy tajribalardan foydalanish qonuniyatlarini bilish, Vatan, millat oldidagi mas'uliyat tuyg'usi hamdir. O'zlikni anglash mudom tarixiy rivojlanib boradigan shakl va ko'rinishlarda, turli darajalarda namoyon bo'ladi. Uning birinchi shaklida inson his etish orqali o'zini tabiatdan, tevarak-atrofdagi narsa va hodisalardan ajrata biladi.

O'zlikni anlashning ikkinchi shakli yanada yuqori darajada namoyon bo'lib, unda inson o'zini biror-bir jamoa, u yoki bu madaniyatga tegishli ekanligi orqali

¹ Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. 410-b.

² Shu manba

³ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'FMJ, 2004. 188-b.

⁴ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. 71-b.



anglaydi. Va nihoyat, uchinchi, eng yuqori daraja – o‘zini “men” orqali boshqalar nuqtai nazaridan baholashi, erkinligini his etgan holda har bir xatti-harakatiga bo‘lgan mas’uliyatni his etishi, o‘zi qilayotgan ishlarining to‘g‘ri-noto‘g‘riliqi, haq yoki nohaqligini nazorat qila bilishidir⁵.

Siyosiy fanlar doktori V.Qo‘chqorov “o‘zlikni anglash” tushunchasi bilan “milliy o‘zlikni anglash” tushunchalarining ma’no-mazmunini taqlil etadi va quyidagicha izohlaydi: “O‘zlikni anglash kishining borliqda o‘z o‘rnini bilishi, ijtimoiy munosabatlarda o‘z “men”i va hayotiy maqsadlarini boshqa “men”lar hamda ularning hayotiy maqsadlari bilan munosabatida namoyon bo‘ladigan individual jihatlarining idrok etilishi sifatida qaraladi. O‘zlikni anglashning muayyan darajasi milliy o‘zlikni anglashdir. Milliy o‘zlikni anglash – millat va har bir millat vakilining umumiy madaniy negizga, til, madaniyat, tarixiy meros, ruhiyatga, urf – odat va an’analarga mansubligini va o‘z o‘rnini idrok etishdir⁶.

Demak, hayotning ma’no-mazmuni, maqsadini tushunib yetish, o‘zlikni anlashdan boshlanar ekan. Bu haqda O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov “O‘zlikni anglash deganda men tarixiy xotirani tiklash, nasl-nasabimiz kim ekanini, kimlarning vorisi ekanligimizni anglab yetishni, shundan kelib chiqib, o‘zimizga xos va mos jamiyat barpo etishni tushunaman”, deydi⁷.

Inson ijtimoiy mavjudot sifatida talqin etilganda, uning mustaqil tafakkurga, e’tiqodga, bunyodkorlik qudratiga, o‘zgalar va butun borliq oldidagi mas’uliyat tuyg‘usiga ega ekanligi nazarda tutiladi. “Men kimman?”, “Bu yorug‘ dunyoga nima uchun keldim?”, “Menga ato etilgan buyuk ne’mat – hayotimni nimalarga safarbar etmog‘im lozim?”. Inson borki, ertami-kechmi ana shu savollarga javob izlay boshlaydi, kamolot sari yo‘l oladi. Bu yo‘lni – o‘zlikni anglash deb aytish mumkin. O‘zligini anglagan yoki anglay boshlagan kishigina shaxs darajasiga ko‘tariladi. Demak, o‘zlikni anglash, avvalo har bir insonning shaxsi, alohida “men”i bilan bog‘liq.

O‘zlikni anglash masalasiga faqat bugun e’tibor qaratilayotgani yo‘q. Bu boradagi qarashlar insoniyat jamiyatining paydo bo‘lishiga borib taqaladi.

Delfadagi appolon ibodatxonasining devorlariga o‘yib yozilgan va an’ana bo‘yicha yetti yunon donishmandlaridan biri – spartalik Xilonga tegishli deb hisoblangan “O‘zligingni angla” shiori qadimgi yunon falsafasining o‘zak masalasi bo‘lib qoldi. Yunon mutafakkirlarini bu borada izlanishga da’vat etdi. Eramizdan

⁵Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. 704-b.

⁶ Qo‘chqorov V. “O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotining demokratiyalashishi jarayonida milliy o‘zlikni anglash muammosi” siyosiy-falsafiy tahlil Siyosiy fanlar doktori ilmiy darjasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2009. 12-b.

⁷ Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. 11-jild. – T.: O‘zbekiston, 2003. 34-b



avvalgi V asrda Protagor, “inson barcha narsalarning o‘lchovidir” degan fikrni ilgari surdi.

Suqrot uchun esa “o‘zligingni angla” hikmati donishmandlikning qoidasiga aylandi. “O‘zini anglagan inson, – degan edi u, – o‘zi uchun nima foydaliligi va nimalarga qodir ekanligini yaxshi tushunadi. U qo‘lidan keladigan ish bilan shug‘ullanish asnosida o‘z ehtiyojini qondiradi va saodatga erishadi. Har qanday xato va baxtsizliklardan xoli bo‘ladi. Buning natijasi o‘laroq, u o‘zga odamlarni qadrlay oladi va ulardan ezgulik yo‘lida foydalana biladi. Oqibatda o‘zini kulfatlardan asraydi”⁸.

Islom dini va tasavvuf ta’limotlarida ham o‘zlikni anlash masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. “Kimki o‘zligini tanisa, robbini taniydi”. Bu hadisda buyuk hikmat yashiringan. Uni bugungi kun muammolari nuqtai nazaridan quyidagicha talqin etish mumkin: har bir inson o‘zi intilmasa, maqsadlar qanchalik ulug‘ bo‘lmisin, biror-bir natija bermaydi. Shuning uchun ham Islom ahli, mutasavvuf allomalar insonni “olam mehvari” deb bilganlar. Ayni paytda ushbu hadis tasavvuf ta’limotida quyidagicha talqin etiladi. “Inson katta olamning kichraytirilgan nusxasi... Odam – ilohiy olamning ajralmas qismi, ilohiy olamdagи ilm va hikmat unda bor. Insonni Iloh olami bilan bog‘laydigan javhar – ruhdир. Agar Iloh olamini bilmoqchi bo‘lsangiz, insonni, ya’ni o‘zingizni o‘rganing, o‘zingizni taning. Demak, Xudoni anglash, tanish insonni anglash va tanish orqali kechadi. Ammo o‘zlikni anglash, o‘zini tanish ruh va qalbni poklash, aqlu shuurni toplash, taqvo va tavba yo‘li orqali boriladi”⁹.

Islom va tasavvuf ta’limotida ixlos o‘zlikni anglashning asosiy mezoni hisoblanadi. Ixlos (arabcha – samimiylilik, ko‘ngli ochiqlik; berilganlik, muxlislik; e’tiqod) Chin yurakdan, ishonch bilan berilish; astoydil muhabbat, mehr¹⁰.

Milliy o‘z-o‘zini anglashning o‘z mezonlari mavjud bo‘lib, ular asosan quyidagilardan iborat:

- a) o‘zi tug‘ilib o‘sgan zaminining, yurtining, Vatanining yagonaligini anglash;
 - b) o‘z ona tilini chuqr bilish va uni hurmat qilish;
 - v) o‘z milliy madaniyatini va ma’naviy merosini har tomonlama o‘zlashtirish va saqlash;
 - g) o‘z tarixini muntazam o‘rganib borish¹¹.
2. Milliy o‘zlikni anglash bu –
- a) xalqning o‘tmishi;
 - b) uning bosib o‘tgan shonli yo‘li;
 - v) o‘ziga xos madaniyati;

⁸ Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf. – T.: Yangi asr avlod, 2011. 63-b.

⁹ Komilov N. Tasavvuf. Tavhid asrori. – T.: O‘zbekiston, 1999. 17-b.

¹⁰O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. – T.: O‘MEDIN, 2010. 246-b.

¹¹ Alimova M., Tyumenova M., Hasanov J. Milliy o‘zlikni anglash jarayonida ijtimoiy faoliik – “Yoshlar ongi, qalbi va dunyoqarashini shakllantirish hozirgi kunning dolzarb masalasi”. – Guliston, 2006, 106-bet.

- g) til birligi;
- d) urf-odat va an'analari;
- ye) tarixan ortirgan boy hayotiy tajribasi;
- yo) diniy qadriyatlarni anglash va qadrlashdir¹².

Aslida milliy g'oya ma'naviyat negizida shakllanadi. Chunki, O'zbekistonning milliy g'oyasi mustahkam, tubi asrlar qa'riga borib yetuvchi ma'naviyat asosiga quriladi. So'nggi yillarda dunyoning turli mintaqalarida sodir bo'layotgan ayanchli voqealar tahlili ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, internet tizimi, ijtimoiy tarmoqlar va elektron nashrlar ko'p hollarda ayrim buzg'unchi kuchlar qo'lida turli soxta, zararli g'oya va mafkuralarni targ'ib etishning qulay va tezkor vositasiga aylanib qolayotganligini ko'rsatmoqda.

Milliy g'oya Vatan tuyg'usidan ayro emas. Aynan shuning uchun ham har bir o'zbekistonlikning, demak, har birimizning taqdirimiz shu davlat va jamiyat rivojiga bog'liq ekanini chuqur anglatish, bu tuyg'uni ularda amaliy harakatga, hayot tarziga aylantirish milliy g'oyaning eng muhim xususiyatidir.

Jahon tarixida xalqlarning yuksalishi ularning ma'naviy, g'oyaviy birlashuvidan boshlangan. Ular aynan milliy g'oya asosida murakkab sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan. Milliy g'oya ularni Vatanga bo'lgan sadoqati, ma'naviyati va madaniyatini yuksaltirib, buyuk maqsadlar sari safarbar etgan.

Fuqarolarda yangicha dunyoqarashni shakllantirishda bugungi kunda milliy g'oyaning o'z o'rni va roli bor. Shu bois ham O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev milliy g'oyani yanada rivojlantirish – bugungi kundagi kechiktirib bo'lmaydigan, eng dolzarb vazifalardan biri ekanligini alohida ta'kidlab, bu boradagi tadqiqot ishlarini yanada kuchaytirish zarurligiga e'tiborni qaratmoqda: "oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur."

Xususan, milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim"¹³.

Chunki milliy g'oyada yurt tinchligi, vatanparvarlik, komil inson, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, ijtimoiy hamkorlik, xalq farovonligi kabi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qatorida "yagona Vatan tuyg'usi", "Adolat - qonun ustuvorligida", "Xalq roziligi", "Jaholatga qarshi ma'rifat", "Innovatsion taraqqiyot" kabi tushunchalarni o'zida mujassam etgan g'oyalar ilgari surilgan.

¹² Xo'jamurodov I.R. Istiqlol va o'zlikni anglash. – Milliy istiqlol mafkurasi va uning ta'lim-tarbiyadagi o'rni. S., 1995, 34-bet.

¹³O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi//Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr.



Milliy g'oya – millatning oliy idealini, uzoq muddatli maqsadlarini, orzu – umidlarini, irodasini, ta'bir joiz bo'lsa, o'ziga xos tarixiy „da'vosini“ umumiy shaklda ifodalaydi. U sodda va tushunarli tarzda ikki og'iz so'zda biz intilayotgan, qurayotgan jamiyatning mohiyatini ifodalashi lozimdir¹⁴. Milliy g'oyaning asosiy mazmuni deganda, unda ifodalangan maqsadlar tushuniladi. Ya'ni, milliy taraqqiyot g'oyalaridagi konkret maqsadlar, uning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bu maqsadlar – ozod va obod Vatan, erki va farovon hayot barpo etish yoki yurtimizda huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatni qurishdan iboratdir.

O'z o'mida milliy g'oyaning o'zak tomiri bo'lgan milliy ma'naviyatimiz o'zining ko'p asrlik tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi.

Sohaning jonkuyar olimlaridan biri Muhammadjon Imomnazarov qayd etganidek, "Milliy ma'naviyatimizning tarixiy takomil jarayoni o'ta murakkab hodisa bo'lib, uni chuqur va hartaraflama tadqiq etish uchun bir necha avlod jiddiy ter to'kishi kerak bo'ladi"¹⁵.

Insoniyat tarixiy takomili hozirgi Yevropa ilmida 4 asosiy davrga ajratiladi:

1. Ibtidoiy jamoa.
2. Qadimgi dunyo.
3. O'rta asrlar.
4. Yangi davr.

Ammo qadimshunoslar (arxeolog va paleontologlar) masalaga biroz o'zgacha qaraydilar. Ular 1) tosh asri, 2) bronza asri, 3) temir asri, deb ibtidoiy jamoa va qadimgi dunyoni uch bosqichga bo'lib o'rganadilar.

Milliy ma'naviyatimizning tarixiy takomili o'lkamiz xalqlari madaniy taraqqiyot jarayoni bilan bevosita bog'liq va ushbu sahnda yuz beruvchi hodisadir. Faqat madaniy taraqqiyot o'ta murakkab tarixiy hodisalar majmuini tashkil etsa, millatning ma'naviy kamoloti bugungi kungacha o'z dolzarbligini saqlab kelayotgan asosiy o'zak unsurlarga tayangan holda belgilanadi.

Shu sababli ma'naviyatshunos olim Muhammadjon Imomnazarov milliy ma'naviyatimizning necha ming yillik takomilini bir qator mavjud alomatlarga ko'ra dastlabki tarzda uch asosiy davrga ajratib ko'zdan kechirishni taklif etadi:

1. Islomgacha milliy ma'naviyatimizning shakllanishi.
2. Islom mintaqasi madaniyati doirasida milliy ma'naviyatimiz takomili.
3. Yangi davrda jahon madaniyati va milliy ma'naviyatimiz nisbati.

Olimning fikricha, bu davrlar o'z ichiga olgan muddatlariga ko'ra o'zaro aslo teng emas. Birinchi davr necha ming yilni qamrasa, ikkinchi davr 8-9 asrni o'z ichiga oladi, uchinchi davr esa bizning o'lkamiz - Turkiston uchun 5 asr chamasi davom

¹⁴Erkaev A. Milliy g'oya mohiyati. – T.: Ma'naviyat, 2001, 6-bet.

¹⁵Imomnazarov M. Ma'naviyatning rivojlanish tarixi.//

<http://kutubxona.adu.uz/kutubxona/11manaviyatningrivojlanishtarixipdf.pdf>



etib, oxirgi 200 yili ko‘proq fojialarga to‘liq bo‘ldi. Ushbu davrlashtirishning asosida ko‘proq tashqi belgilar yotadi. Ularning eng muhimi manbalar ahvoli bilan bog‘liq. Islomgacha ma’naviyatimiz takomili haqidagi eng muhim manbalar o‘lkamizning bugungi milliy hududlaridan tashqarida topilgan bo‘lib, asl matnlarning yaxlit va nisbatan mukammallari “Avesto” kitobi va turkiy toshbitiklardir. Ikkinci qismi bilvosita ma’lumotlar bo‘lib, qadim Shumer, Bobil va Ashshur, qadimgi Misr va Yunon, Hind va Xitoy manbalarida, Eron shohansohlaridan qolgan toshbitiklarda aks etgandir. Uchinchi guruh manbalar arxeologik yodgorliklar bo‘lib, ular bevosita yurtimiz hududidan yoki atrof-mintaqadan topilgan moddiy ashyolar va inshootlar bilan bog‘liq.

To‘rtinchi guruh manbalar so‘nggi davrlargacha og‘zaki an’ana holida yetib kelgan xalq adabiyoti, urf-odat va marosimlar, o‘yinlar, bayramlar, xurofiy irimsirimlar bo‘lib, ular yuzasidan uzil-kesil xulosalar chiqarish, ayniqsa, murakkabdir. Umuman, bunday turli guruh manbalar o‘zaro jiddiy qiyosiy tahlilni talab qiladi va oxir-natijada ham ko‘pincha muayyan darajada taxminiy xulosalar chiqariladi. Islomgacha ma’naviyat haqidagi tasavvurlarimiz, shu sabablarga ko‘ra, baribir uzil-kesil bo‘lishi qiyin va qancha qadim zamonlarga kirib borsak, shu qadar tarixiy haqiqat va afsonalar qorishib, chatishib ketadi. Islom davri manbalari qadim davrga nisbatan beqiyos darajada boy va ishonchliroqdir. Islom davridan boshlab, aytish mumkinki, masalaga ilmiy yondoshuv imkonii jiddiy tarzda oshadi va millatning ma’naviy kamolot bosqichlari mintaqqa madaniyati doirasida aniq tarixiylik kasb etadi¹⁶.

Shu sohaning taniqli olimlaridan yana biri Abdurahim Erkaev o‘zbek xalqi ma’naviyati rivojlanishining tarixiy bosqichlari haqida gapirishdan avval quyidagilarni dastlabki tartibda qayd etish lozimligiga urg‘u beradi:

Birinchidan, o‘zbek xalqi Markaziy Osiyoda yashayotgan boshqa qo‘shni, qardosh xalqlar kabi, eng avvalo, qadimgi turkiy qabilalar va xalqlarning hamda turli davrlarda mazkur mintaqada yashagan qadimgi va antik davr urug‘-qabilalarning, elatlarning - turlar, saklar, massagetlar, qang‘lar, parfiylar, kushonlar, so‘g‘darlar, eftaliylar, xorazmiylar, xioniyalar va boshqalarning vorisidir.

Ikkinchidan, o‘zbek xalqi Markaziy Osiyoga keyinchalik ham muttasil kelib qo‘shilib turgan ko‘chmanchi urug‘ va qabilalarni o‘z etnik va madaniy tarkibiga singdirgan. Dunyoda hech bir xalq yo‘qki, tarkibi turli qadimgi urug‘ jamoalar, qabilalar, etnik guruhlarni, ayrim hollarda dini, e’tiqodi, kelib chiqishi bir-biridan ancha farq qiladigan etnoslarning aralashuvidan iborat bo‘lmasa. O‘zbek xalki ham bundan istisno emas. Kelib qo‘shilgan urug‘-qabilalar, etnoslarning tajribasi,

¹⁶Imomnazarov M. Ma’naviyatning rivojlanish tarixi.//
<http://kutubxona.adu.uz/kutubxona/11manaviyatningrivojlanishtarixipdf.pdf>



bilimlari, madaniyatlar milliy madaniyatimiz tarkibiga singib, uning boyishiga xizmat qilgan.

Bundan tashqari, bizning ona tuprog'imiz o'ziga ko'plab bosqinchilarni jalgilgan. Eronlik ahmoniyalar, sosoniyalar, Iskandar boshchiligidagi yunon-makedonlar, arablar, Chingizzon, Rossiya istilolari beiz ketmadi. Biri ko'proq, biri kamrok, ammo hammasi ma'naviyatimizda sezilarli iz koldirdi. Shu bois o'zbek xalqi ma'naviyati genezisi juda murakkab hodisadir. Unda qadimiy turkiy va mahalliy so'g'd-sak-xorazmiy qatlama bilan bir vaqtida boshqa xalqlardan qabul qilingan unsurlar mahalliylashgan, qayta ishlanib rivojlantirilgan ko'rinishlarda mavjud¹⁷.

Olim xalqimiz ma'naviyati tarixiy bosqichlari va xususiyatlarini har qanday tasniflash va davrlarga ajratish nisbiyligini hisobga olib, boshqacha variantlar bo'lishini inkor kilmagan holda, o'zbek xalqi ma'naviyati rivojlanishining tarixiy bosqichlarini quyidagi bosqichlarga bo'lib o'rganishni taklif etadi:

1. Eng qadimgi (arxaik) davr va ilk zardushtiylik bosqichi.

Bu bosqich eng qadimgi zamonalardan Iskandar istilosigacha bo'lgan katta davrni qamrab oladi. U turli ibtidoiy e'tiqodlar, umumturkiy asotirlar va zardushtiylikning dastlabki karashlari asosida rivojlangan.

2. Islomgacha bo'lgan diniy-mafkuraviy plyuralizm bosqichi. Ikkinci bosqich ma'naviyati Iskandar istilosidan to arablar istilosigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu bosqichda ma'naviyatimiz rang-barang e'tiqodiy asoslarda rivojlanganining guvohi bo'lamic. An'anaviy e'tiqodlar, zardushtiylik qatorida yunon politeistik qarashlari, keyinchalik buddaviylik, moniylik, nasroniylik kabi e'tiqodlar hududimizga kirib keldi.

Har ikki boskich turli qabilalar va xalqlarning ko'chib yurishi, aralashuvi, o'zaro to'qnashuvlari, urushlari bilan ajralib turadi. Lekin bu hodisalar xalqlarning bir-biridan o'rganishiga, tajriba almashishiga, turli g'oyalarning tarqalishiga ham xizmat qilgan.

3. Islom tamaddunining gullab-yashnashi va temuriylar davrida qayta uyg'onish bosqichi.

4. An'anaviy jamiyatning qaror topishi va ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy tanazzul boskichi.

5. Mustamlakachilik davri ma'naviyati: a) chor Rossiyasi mustamlakachiligi va b) sho'rolar davri.

6. Istiqlol davri ma'naviyati.

¹⁷Erkaev A. Ma'naviyatshunoslik. Monografiya. 1-kitob. – T.: 2019, Ma'naviyat, 360-361- b.

Bu bosqichlarning har birini o'z navbatida katta-kichik davrchalarga, turkumlarga bo'lish mumkin. Olimning fikricha, mazkur bosqichlar alohida o'rganilishi zarur¹⁸.

3. Jamiyat, millat manfaatlarini aks ettiruvchi qarashlar. Milliy g'oyaning tarixiy va falsafiy ildizlari

Milliy g'oyada jamiyat va millat manffatlari aks etadi. Milliy g'oya – millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlarini va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oya shakli.

Milliy g'oya har bir millat va u bilan yonma-yon yashayotgan barcha boshqa etnos vakillari hayotida ham naqadar muhim o'rinn tutishi, insoniyat taraqqiyoti bosqichlarining yana bir qonuniyati desak, hech ham mubolag'a bo'lmaydi¹⁹.

Har bir millatning milliy g'oyasi, avvalambor shu millat a'zolarining ongi va qalbida, millatning tarixiy xotirasi orqali avloddan avlodga o'tib, yangi-yangi g'oyalar bilan boyib, sayqal topib boradi. Bu g'oyalar millatning urf-odatlari, udumlari, to'y-marosimlari, og'zaki ijodiyoti, uning falsafiy, diniy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, badiiy, go'zallikka oid qarashlari va mentalitetida mujassamlanib o'z ifodasini topib boradi.

Millat g'oyasi o'z mohiyatiga ko'ra, xalq millat taqdiriga daxldor bo'lgan, qisqa yoki uzoq muddatda hal etilishi kerak bo'lgan, qisqa yoki uzoq muddatda hal etilishi kerak.

Mamlakatimiz uchun milliy g'oya haqidagi masalaning bugungi amaliy ahamiyati shundaki, biz o'tish davrini boshdan kechirmoqdamiz. Aynan shunday paytda aholining turli qatlamlari manfaatlarini himoya qiluvchi mafkuralarning shakllanishiga sharoit tuzilishi mumkin.

Milliy mafkurada xalqimizning umumiyl manfaatlari, orzu-umidlari maqsad va intilishlari o'z aksini topadi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadini shunday ifodalagan edi: "Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, har bir fuqaro yagona Vatan baxtsaodati uchun doiml ma'suliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning beba ho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizning beba ho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchanlik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hyot mezoniga aylantirish – milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir. Shu bilan birga men milliy g'oyabugungi tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan tahlikali dunyoda o'zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday buyuk ajdodlarning

¹⁸Qarang: Erkaev A. Ma'naviyatshunoslik. Monografiya. 1-kitob. – T.: 2019, Ma'naviyat, 376-377- b.

¹⁹Qarang: Otamurodov S. Milliy g'oya - milliy tiklanish manbai. – "Tarix, mustaqillik, milliy g'oya". -T.: Akademiya, 2000. – B. 6-10.

merosgia, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanligimizni his etib yashashga, bu boylikni asrab-avaylab, demokratik qadriyatlar, butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib, yangi o'sib kelayotgan avlodga yetkazishga xizmat qilmog'i zarur, deb bilaman”²⁰.

Milliy mafkura o'zining tub mohiyatiga ko'ra Vatanimiz ozodligi va mustaqilligini mutahkamlashni, Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi, xalq faolvonligini ta'minlashni ko'zda tutadi. Bunday ulug'vor vazifani bajarish har bir fuqaroden erkin fikrlash, Vatan taqdiri, istiqboli uchun ma'sullikni his qilishn talab etadi. Erkinlik bo'limgan joyda ma'suliyatsizlik, loqaydlik vujudga keladi. Milliy mustaqililk xalqimizga ana shunday erkin fikrlash imkonini berdi. Erkin tafakkursiz milliy istiqlol mafkurasining shakllanishini xatto tasavvur ham etib bo'lmaydi. Istiqlol mafkurasi erkin tafakkurga tayanadi, u demokratik jaiyat hayotining muhim qonuniyati, milliy mafkurani yaratish, himoya qilish va takomillashtirishning zarur shartidir. Erkin tafakkur shaxs faolligini oshiradi, uni bunyodkorlik ishlariga ilhomlashtiradi.

Mafkura jamiyatimizda ilg'or g'oyalalar ustuvorlik qiladigan sog'lom ijtimoiy muhitni yaratishga yordam beradi. Demokratik qadriyatlarning keng rivojlanishi qarashlar xilma-xilligi va fikrlar arng-barangligi (plyuralizm)ning qaror topishiga olib keladi. Kishilar ruhan yuksaklikka, yana ham baxtli va farovonroq hayot kechirishiga intiladilar. Bunday hayotga erishishning turli vosita va yo'llari mavjud bo'lib, u turli g'oyalarda o'z ifodasini topadi. G'oyalalar ilmiy-nazariy yoki diniy asosga ega bo'ladi. Demokratik jamiyat aql va tafakkur poydevori ustida qad ko'taradi, dunyoviy ilm-fan va texnika jamiyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Ijtimoiy hayot tobora intellektuallashib borayotgan, ilmiy tafakkur insonit ma'naviyatining ustuvor yo'nalishiga aylanayotgan hozirgi sharoitda ko'proq ilmiy-nazariy asosga ega bo'lgan ilg'or g'oyalalar ustunlik qiladi.

Milliy g'oya o'zining tarixiy, dunyoviy, falsafiy, diniy ildizlariga ega.

1.Tarixiy:

-Vatanimizning boy tarixi

- Xalqimizning o'ziga xos turmush tarzi

-Tafakkuri va dunyoqarashi

-Xalq og'zaki ijodi namunalari: Shashmaqom, Alpomish -Milliy qahramonlarimizning ibratli hayoti

2.Dunyoviy:

-dunyoviy bilimlar majmui

-tabiiy ilmiy bilimlar

-jamiyki bilimlar

²⁰ Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mastahkam irodasiga ishonaman. “Fidokor”. 2000 yil, 8 iyun.

3.Falsafiy:

- Ulug' allomalarimizning falsafiy merosi
- Jahon falsafasi durdonalari
- XXI asr boshlaridagi falsafa
- Mustaqillik falsafasi

4.Diniy:

- Islom va boshqa dinlardagi diniy bag'rikenglik
- Qur'oni Karim kitobi
- Hadislar
- Zardushtiylik
- Tasavvuf

Mafkuraning dunyoviy ildizlari ma'rifiy dunyoga xos siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy munosabatlar majmuidan iboratdir. Insoniyat asrlar mobaynida bosqichma-bosqich dunyoviylik sari intilib keldi. Umume'tirof etilgan tamoyillar va konun ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi xususiyatlar dunyoviy jamiyatning asosini tashkil etadi. Bunday jamiyatda insonning haq-huquqlari va erkinliklari, jumladan, vijdon erkinligi xam qonun yo'li bilan kafolatlanadi. ana shunday jamiyat mafkurasi "Dunyoviylik - dahriylik emas" degan tamoyil asosida rivojlanadi, ya'ni dinning jamiyat hayotida tutgan o'rni va axamiyatini aslo inkor etmaydi.

Ijtimoiy tafakkurning mumtoz namunalari bo'lgan dunyoviy, ilmiy durdonalari milliy g'oyamizning falsafiy negizlarini belgilaydi. Yunon faylasufi Geraklit o'zining Sharkda o'tgan g'oyaviy ustozlarini, "Avesto"dek muqaddas kitobda bitilgan falsafiy fikrlarni nazarda tutib, yurtimizga "falsafiy tafakkur beshigi" deb ta'rif bergen edi.

Mustaqillikdan so'ng olib borilgan ilmiy tadqiqot va izlanishlar natijasi qadimiy madaniyat ildizlari qadimgi yunon sivilizatsiyasi bilan tenglasha olishini ko'rsatdi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, Fales bilan bir maqomda turadigan, Salon bilan bahslashgan mutafakkir faylasuf Anaharsis Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan.

Hattoki Sobiq Ittifoq davridagi adabiyotlarda ham quyidagi mulohazalarni tan olishga majbur bo'lishgan. "Qadimgi Gresiyaning mashhur mutafakkiri Suqrot yaqin vaqtgacha "axloq falsafasining otasi" hisoblanib kelingan edi. Sharq madaniyati bilan chuqur tanishish natijasida XX-asr olimlari bu fikrdan qaytishga majbur bo'lib, etika to'g'risidagi fikr va mulohazalar ancha burun, ya'ni, bundan 26 asr oldin Sharq mamlakatlarda paydo bo'lgan, degan fikrga keldilar²¹.

Tadqiqotchilar O'zbekiston zaminini hamda uning buyuk faylasuflari, ularning asarlari ("Avesto"), xususan, Anaharsis nazarda tutilgan bo'lishi kerak deydi. Qadimgi Yunonistonda "Etti donishmand" degan tushuncha mavjud bo'lib, bunda o'z

²¹Haitov Sh. Murosa va O'zbekiston falsafasi tarixiga kirish. –T.: Falsafa va huquq instituti, 2010, 262- bet.



davrining yetuk faylasuf olimlari, notiq va qonunshunoslar bu yettilikdan o'rinni olgan. Bu yetti donishmand orasida Fales, Solon, Suqrot, Pifagor, Anaksagor, va albatta Anaharsis ham nazarda tutilgan. Anaharsisni yetti donishmanddan biri sifatida Aristotel, Diogen, Laertskiy, Platon, Plutarxlar o'z asarlarida qayd etishgan. Demak Anaharsisni turli davrblarda yashagan bir necha mualliflar yetti donishmandning biri sifatida sanab o'tishgan. Hattoki Anaharsis sharafiga Afinada yodgorlik o'rnatilgan. Muallifning yozishicha Anaharsis, borliq, bilish nazariyasi masalalari va haqiqat mezonlari to'g'risida, inson bilimining cheksizligi, narsa va hodisalar mohiyati to'g'risida, har qanday fikrga, g'oyaga nisbiy haqiqat tarzida shubha bilan qarash haqida asarlar yozgan. U birinchi bo'lib kema langarini, kulolchilik charxini kashf qilgan, deb e'tirof etishadi²².

Haqiqatdan ham Yunonistonda yetti donishmanddan biri sifatida e'tirof etilishi, bu Anaharsisning ensiklopedik bilim sohibi bo'lganligini bildiradi.

Anaharsis skif millatiga mansub bo'lib, Markaziy Osiyo hududida, xususan, Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida yashagan saklar yoki skiflar avlodiga tegishlidir. Anaharsisni skif millatiga tegishli ekanligini Laertlik Diogen o'zining "Mashhur faylasuflarning hayoti, ta'limoti va hikmatli so'zлari haqida" degan asarida ko'rsatib o'tadi. Skiflar va ular bilan bog'liq voqealar haqida G'arbda asarlar bitilgan. Masalan, Fransuz faylasuf olim Volter "Skiflar" tragediyasini yozgan XVI-asrda lotin tilida "Ckiflar shohi Temurlang" kitobi nashr ettiraladi. Mazkur manbalar bo'yicha skiflar yoki saklar Mavrounnahr hududida qadimdan mavjud bo'lgan, ularning boy moddiy va ma'naviy madaniyati hamda ularning yuksak bilim va falsafasi boshqa g'arb mamlakatlarining fani, jumladan falsafa fani shakllanishiga ijobiy ta'sir qilgan. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan mashhur faylasuf Anaharsis Yunonistonda bo'lgan va mahalliy aristokratiya vakillarini doimo lol qoldirgan. Uning Salon bilan savol-javoblarini yunon faylasufi Germipp qayd qilib o'tgan. Tadqiqotchilar mazkur asos va dalillardan kelib chiqib Anaharsisni dastlabki faylasuflardan biri deb, falsafa fanini o'zbekistonlik Anaharsisdan boshlangan degan fikrni ilgari suradi. Bunday fikrga kelish uchun Sh.Xaitov asosan g'arbning qadimgi davr mutafakkirlari yozib qoldirgan manbalarga tayanadi. Masalan, Klavdiy Elianning "Drevnye avtori o Sredney Azii", Laertlik Diogenning "Mashhur faylasuflarning hayoti, ta'limoti va hikmatli so'zлari haqida", Aristotelning "Nikomax etikasi", shuningdek Germipp, Damon Krenskiyning yozib qoldirgan asarlari shular jumlasidandir.

Anaharsisdek faylasufni O'zbekiston zaminidan yetishib chikkan bu tasodifiy bir hodisa emas , balki bu zamin sarhadida Abu Nasr Farobi, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi buyuk siymolardan tashqari 100lab Buxoriylar, 20dan ortik Paykandiylar, 100ga yaqin Xorazmiylar, 20ga yaqin

²²Haitov Sh. Murosa va O'zbekiston falsafasi tarixiga kirish. -T.: Falsafa va huquq instituti, 2010, 266- bet.

Termiziylar, 80ga yaqin Samarcandiylar, 20dan ziyod Farg'oniyilar, 11ta Marg'inoniylar, 10lab Toshkandiylar, 10lab Zominiylar, G'ijdivoniylar, Nashhibiylar, Nasafiyalar, Navoiylar, Nakshbandiylar, Narshaxoniylar kabi olim va faylasuflar samarali ijod etganlar.

IX-XII asrlar davomida Movarounnahr butun musulmon olamida ilmiy-madaniy jihatdan eng rivoj topgan o'lka sifatida mashhur bo'lib, bu yerda qadimiy an'analar bilan arab, fors, qisman hind hamda qadimgi yunon ilmiy-madaniy an'analari qorishuvi asosida islomiy, falsafiy va tabiiy ilmlar – astronomiya, matematika, tibbiyat, kimyo, dorishunoslik, jug'rofiya kabilar rivoj topdi. Bu davr ma'naviyatining muhim tomonlaridan biri shundaki, olim, donishmand, shoirlarning ko'pchiligi qomusiy bilimlarga ega bo'lib, ilmlar bir-biridan ajralmasdan, uzviy bog'liq holda mavjudligi xarakterli edi. Shuning uchun ham al-Forobiy, ibn Sino, al-Beruniy, az-Zamaxshariy, Ismoil Jurjoniylar juda ko'p sohalarda ijod etib, o'chmas iz qoldirdilar. Shu bilan birga matematika, astronomiya, tibbiyat, mantiq, tilshunoslik, tarix kabi ilmlar, madaniyat, ma'naviyatning rivojida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etgani, islom dinining nazariy masalalari bilan birga axloqiy tomonlari ham keng rivoj topganini ko'ramiz.

Bu davrda ayrim mualliflar keltirgan ilmlar tasnifida dunyoviy(an'anaviy) ilmlar bilan birga arab(islom) ilmlari ham qayd etiladi. Birinchisiga, yunonlardan o'tgan falsafa, matematika, fizika va boshqa qator ilmlar kiritilgan bo'lsa, islom ilmlari sifatida kalom, hadis, fiqh kabi ilmlar sanab o'tiladi. Movarounnahr bu davrda dunyoviy ilmlarnigina emas, balki islom ilmlarining ham rivojlanish markaziga aylangan. Ismoil al-Buxoriy, at-Termiziy, Moturudiy, Marg'inoniy, Kosoniy kabi allomalar bu sohada mashhur bo'ldilar.

Diniy va dunyoviy ilmlar uzviy bog'liq holda rivoj topdi. IX asr boshlari va birinchi yarmida arab xalifaligi poytaxti Bag'doddagi "Bayt ul-Hikma" ilmiy markazining dovrug'ini ko'tarishda O'rta Osiyodan borgan Xorazmiy, Farg'oniy, Javhariy, Abu Mansur. At-Turkiy, Marvaziy kabi yosh olimlarning aniq va tabiiy fanlar sohasidagi faol xizmatlari ulkan ahamiyatga ega bo'ldi.

Har qanday mafkura, milliy g'oya tarixiy, madaniy ma'naviy meros, tarixiy xotira asosida shakllantiriladi va ularga suyanadi.

Milliy g'oyanining tarixiy ildizlarini bilish shuning uchun muhimki, bu ildizlarda ajdodlarimizning buyukligini tasdiqlovchi dalillar bor, kelajak orzu-umidlarini ko'rsatuvchi ma'lumotlar yetarli, insonni faollikka, shu asosda yangi jamiyat qurishga chorlovchi da'vatlar mavjud. Milliy g'oyanining ma'naviy-tarixiy ildizlarini chuqur anglash insonning amaliy harakatiga qudratli ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Milliy g'oyanining tarixiy- ma'naviy ildizlari madaniy – ma'naviy merosda, tarixiy ong va tarixiy xotiradadir. Bu ildizlarni bilish, yana bundan tashqari, milliy

g'oya kurtaklari turli tarixiy davrlarda paydo bo'la boshlaganini, mazmuni boyib bergenligini anglashga yordam beradi. Milliy g'oya ma'naviyatning tarkibiy qismi ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, "albatta, har qaysi xalq yoki millatining ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi"²³. Milliy g'oyaning oziklantiruvchi ildizlarini bilish va anglash inson ma'naviyatini yuksaltiradi. Tarixiylik va mantiqiylikni o'zida mujassamlashtirgan "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida Islom Karimov tomonidan yaxlit holda ko'rsatilgan ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar bular - ayni paytda milliy g'oyaning tarixiy va zamonaviy ildizlari xam hisoblanadi²⁴.

Milliy g'oyamizning ma'rifiy asoslari uch ming yilliy davlatchiligidan bilan bir vaqtida shakllana boshlagan. «Avesto»da bayon etilgan ma'rifatparvarlik g'oyalari buning isbotidir. Vatanimizda miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda boshlang'ich madaniyat markazlari vujudga kelgan, shaharlar tashkil topa boshlagan. Shahar madaniyatining eng asosiy elementi bu ma'rifat maskanlar, ta'lim tarbiyadir. Bu davrda Markaziy Osiyoda keng tarqagan Zardushtiylik faqat sof dingina bo'lib qolmasdan, balki o'z davri ma'naviyatining, o'sha davrdagi xalqlarning madaniyati, ma'naviyati, urf - odasi, axloqi kabi masalalarini o'zida aks ettiradi va ma'naviy ma'rifiy jarayonlarga katta ta'sir ko'rsatadi.

Qadimgi davr madaniyati, ma'naviyati, jumladan, axloq, ma'rifat, ta'lim tarbiya haqidagi fikrlar xalq og'zaki adabiyotida, folklorlarda, turli xalq an'analarda ham o'z aksini topib kelgan. Go'ro'g'li, Alpomish, Rustam haqidagi dostonlarda xalqimizning urf odatlari, ruhiyati, xulq odoblarining ifodasini uchratishimiz mumkin. Bunday ma'lumotlar qadimgi sug'd, manixey, xorazm, turkiy yozuvlar na'munalarida saqlanib qolgan manbalarda ham uchraydi²⁵.

VIII-XII asrlar davomida Vatanimiz hududida muhum o'zgarishlar sodir bo'ladi. O'lkamizga islom kirib keladi. Bu davrda ma'naviyatda hurfikrlilik, har qanday bilim, ilm-fanga hurmat, diniy oqimlar erkinligi ustunlik qiladi. Ta'lim tizimi takomillashadi, ilm dargohlari – madrasalar oliy va o'rta toifalarga ajraladi. Shuningdek ayrim madrasalarda tabiiy va aniq fanlarga ko'proq e'tibor berilsa (Samarqandda Ulug'bek madrasasi), ba'zilarida diniy bilimlar berish ustun xarakterga ega bo'lган. Ta'lim tizimining hatto eng oliy bosqichi, maxsus tadqiqotlar lobarotoriyasiga ega bo'lган akademiyalar ham faoliyat olib borgan. Bag'doddagi Ma'mun akademiyasi va Samarqanddagi Ulug'bek akademiyasi bunga misoldir.

²³Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –T.:Ma'naviyat, 2008, 29-64-betlar

²⁴Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yuk. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. –T.: O'zbekiston, 1999, 137-bet

²⁵Ma'naviyat yulduzları (Markaziy osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001 yil 6-bet.

XI-XII asrlarga kelib Vatanimiz hududidagi Buxoro, Samarqand, Marv, Urganch, Axsiket, Xiva, Shosh va bashqa shaharlarda ko'plab ilm ma'rifikat maskanlari mashhur bo'lgan. Bu davrda Movrounnahr va Xurosonda butun musulmon dunyosiga qator qomusiy allomalarani, ilohiyot nazariyotchilarni, mashhur adib va shoirlar yetishib chiqadilar. Ular o'zlarining kashfiyotlari yaratgan asarlari bilan dunyo ilm fani rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Dunyo sivilizatsiyasida Sharq uyg'onish davri deb ataladigan bu davr mo'g'illar istilosи davrida turg'un holatga tushib qoladi, ta'lim tarbiya, ilm ma'rifikat sohida ham buholat o'z ta'sirini ko'rsatadi.

XIV asrning ikkinchi yarmi –XV asrda Amir Temur va Temuriylar Shohrux, Ulug'bek, Xusayn Boyqaro davrlarida Movarounnahr va Xuroson islom doirasidagi mafkuraviy erkinlik, madaniyatga e'tibor ilm-fan, adabiyot, san'atning tez rivoj topishiga olib keldi. Samarqandda rasadxona qurilib, Ulug'bek ilmiy maktabi shakllandi, aniq fanlar rivojida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Qozizoda Rumiy, Koshiy, Ali Kushchi kabi olimlarning asarlari butun musulmon olamiga mashhur bo'ldi. Gumanitar – ijtimoiy fanlar va rassomlik, xattotlik oliy cho'qqilarga ko'tarildi. Jomiy, Behzod, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxon, Xondamir kabi maiqur adib, rassom, tarixchilarning nomlari boshqa o'lkalarda ham tez ma'lum bo'ldi.

XVI-XIX asr birinchi yarmi madaniyatida ilm-fan, xususan tabiiy fanlarning o'rni susayganini, diniy bilimlar, diniy taaccyblikning roli kuchaya borganini ko'ramiz. O'zaro urushlar tufayli tashqi olam bilan aloqalar, ma'naviy-madaniy munosabatlarning kamayib ketishi ham madaniy hayotdagi ma'lum biqqlikka, yangiliklardan uzilib qolishga olib keldi. Ilm-fan, madaniyat sohasida oldingi erishigan yutuqlar ham o'z ta'sirini yo'qotib, ularga murojaat etish o'rniga diniy ta'limotlar kuchayganini ko'ramiz. Natijada bu davrda an'anaviy islom, uning qoidalari jamiyat hayotida hal etuvchi o'rinni egallab, tasavvuf, xususan, naqshbandiya ham ma'naviy hayotdagi oldin ta'sirini yo'qota bordi.

Shu bilan birga bu davrda turkiy-o'zbek tilidagi badiiy adabiy namunalarining ko'paya borganini, adabiyot, she'riyat ma'naviy hayotning eng muhim asosiy sohasiga aylanib, an'anaviy lirk asarlar bilan birga shoir, adiblar dunyoviy hayot qiyinchiliklari, diniy taassublikning kuchayishiga bo'lgan noroziliklari, so'fiyona fikrlarini she'ri orqali ifoda etishga intilganliklarini ko'ramiz.

Bu davr Maxdumi A'zam, Mirzo Haydar, Abdulg'ozixon, Buxoriy kabi gumanitar ilm vakillari, Mashrab, Turdi, Nodira, Uvaysiy, Mynis Xorazmiy kabi mashhur shoirlarni yetishtirdiki, ular asarlarida zamonasining saboqlari, istaklari, alamlarini aks etdirdilar. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Turkiston o'z mustaqilligini yo'qotdi, rus chorizmi tomonidan bosib olindi.

Xonliklar va yerli xalqning keskin kurashi, qarshiligiga qaramay 1870-yillarga kelib Qo'qon xonligi tugatildi. Buxoro va Xiva xonliklari Rossiyaning vassaliga aylandi: Turkistonda rus mustamlakachilik tuzumi o'rnatildi, u rus general

gubernatori tomonidan boshqarila boshlandi. Rus chorizmi Turkistonda o‘z mustamlakachilik siyosatini o‘tkazish yo‘lida barcha choralarni amalga oshirib, uning boyliklaridan imkonи boricha keng foydalanishga kirishdi. Jahon va ayniqsa, Yaqin Sharq mamlakatlaridagi o‘zgarish va Rossiyaning yangi mustamlakasiga olib kelayotgan Ovrupo madaniyati yangiliklari Turkiston madaniyatida yerli xalqning mustamlakachilik siyosati, kamshitilishiga qarshi ma’rifatchilik harakatini kuchaytirib yubordi. U asosan, xalqni yangi madaniyat, ma’rifatga chaqirishga, millatni uyg‘otishga, yangilayotgan ma’naviyatni egallahashga yo‘naltirilgan edi. Asta-sekin marifatchilikdan jadidchilik o‘sib chiqdi va u ma’lum darajada siyosiy masalalarni olg‘a surʼadi. Yangi ta’lim - tarbiya, yangi maktab, yangi maorif, uni boshqarish, madaniy targ‘ibot, tashkilotchilik masalalari asosiy o‘ringa ko‘tarildi. Yangiliklarga asoslangan holda va eski feodal maorifidan farq qiluvchi fikr-g‘oyalari oldinga surildi ular yerli matbuot, turli kitoblar orqali keng targ‘ib etildi. Bu - madaniyatdagи mustamlakachilikka qarshi kurashda xalq ongini oshirish, o‘z ahvolini yaxshilashga intilishning ko‘rinishlaridan edi.

XIX asrning oxiri – XX asr boshida Turkiston madaniyati qator talantli olim, sayyoh, shoir, pedagog, jurnalistlarni yetishtirib chiqardi, ular xalqimizning umumiy madaniy rivojlanishiga juda katta ta’sir ko‘rsatdi.

Bu davrda Ahmad Donish, Berdaq, Feruz, Muqimiyy, Furqat, Zavqiy, Bayoni, Avaz O‘tar kabi olim, shoirlar o‘z davrining muhim masalalarini ko‘tarib chiqdilar va xalqni ilm-fan, marifatni egallahashga undadilar.

Behbudiyy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Ayniy, Hamza kabi talant egalari jadidchilik g‘oyalarni olg‘a surish va targ‘ib qilish sohasida bayroq dor bo‘lib tanildilar, Turkistonning o‘z rivojlanish yo‘lini targ‘ib etishda jonbozlik ko‘rsatdilar.

4. Milliy g‘oya va siyosat. Milliy g‘oya, ma’naviyat va yoshlar tarbiyasi

Milliy g‘oya va siyosat o‘rtasida dialektik bog‘liqlik mavjud. Davlat arboblaridan birining e’tirof etishicha, Buyuk Britaniya demokratik davlat qurishda bir necha yuz yillik tajribaga ega. Shunday mislsiz taraqqiyot qozongan davlatda ham demokratiya xususidagi muammolar qo‘zg‘alib turarkan. Shundan kelib chiqadigai bo‘lsak, bizning demokratiyani tushunish va jamiyatimizga tadbiq etishdagn natijalarimizdan qoniqish hosil qilishimiz mumkin.

Olamshumul tajribalarga nisbatan olgapda, jamoatchiligidan hozirgi darajasini demokratiyani his qnish, demokratiyani tushunish, demokratiyaii idrok etish, demokratiyani o‘rganish, hayotga tadbiq etishga nntilish bosqichn deya belgilash mumkip. Xo‘sh, demokratiyaniig o‘zi nima? Uni amalga oshirishninig qandan usullari va belgilari mavjud?

Demokratiya – yunoncha “demos” - xalq, teng huquqli fuqarolar yig‘ini, “kratos” - kuch, hokimiyat, qudrat, boshqaruv ma’nolarini berib, bugungi kunda u

xalq hokimiyati ma'nosini beradi. Yangi davrda demokratiya atamasi orqali erkinlik, fuqarolik, xalq suvereniteti, milliy suverenitet, milliy davlat g'oyalari rivoj topmoqda. Demokratiya tushunchasining real mazmuni u yoki bu davrda mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga qarab turli tarixiy davrlarda o'zgarib turdi. Siyosatshunoslar demokratianing uchta asosiy modelini (liberal, identitar, plyuralistik) ko'rsatadilar.

1) Liberal demokratiya (XIX-XX asr boshi) hokimiyat manbai bo'lgan xalqqa mulkdor erkaklarni, mulkiy va boshqa senzli kishilarni kiritadi. Quyi qatlamlar, yollanma ishchilar, ayollar saylov huquqiga ega emasligiga asoslanadi.

2) Identitar (jamoaviy) demokratiya – xalq (millat, guruh, qatlam) birligidan, yaxlitligidan, xalq irodasi bilan vakolatli hokimiyat faoliyatining o'xshashligidan kelib chiqadi.

3) Plyuralistik demokratiya – liberal siyosiy tizimdan o'sib chiqqan va uning asosiy tashkiliy tamoyillarini meros qilib o'ziga olgan. U konstitutsionalizm, hokimiyatlar bo'linishi, shaxs erkinliklari, inson huquqlari, ozchilik muxtoriyati va boshqa qadriyatlarga tayanadi.

Demokratiya o'z tarixida xilma-xil shakl va mazmundagi uzoq yo'lni bosib o'tdi. Demokratiya har bir xalqning milliy ongini, xususiyatlarini, milliy ruhini, mentalitetini, tabiatini hisobga olgan holda uning siyosiy tizimida o'z aksini topadi.

G'arb mamlakatlarida vujudga kelgan demokratiya individlarning (shaxs) guruhdan (ko'pchilikdan) ustunligi g'oyasi mavjud. Bu mamlakatlarda individual erkinliklar va huquqlar masalasi dolzarb. Demokratiya Sharqda boshqacha mazmun kasb etadi. Sharqda individ erkinligi va huquqlarga tayanilsada, u ko'proq guruh, jamoa manfaati va huquqlari bilan uyg'unlashadi, ya'ni an'ana va zamonaviylilikning o'ziga xos uyg'unligiga asoslanadi.

Shu yo'ldan qator Sharq mamlakatlari bormoqda. Islom diniga e'tiqod qiluvchi mamlakatlarning ijobiy tajribalari mavjud. Ma'lumki, Qadimgi Turkistonda hukmdorlar, hatto Amir Temur buyuk siyosatchi sifatida xalqning (raiyat) fikrini bilish, tabaqalar bilan bamaslahat ish yuritish, murosayu-madora, muruvvat, bag'rikenglik va sabr-toqatlilik bilan davlatni idora qilganlar.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham demokratiyaga o'tishning o'ziga xos yo'ldan bormoqda. Milliy an'analarni, milliy davlatchilikni rivojlantirishga e'tibor berilmoqda. Kengash, maslahat, murosa, sabr-toqatlilik, bag'rikenglik mamlakatda ijtimoiy muammolarni hal etishning va demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qaror toptirishning zarur sharti hisoblanadi.

Amerika Qo'shma Shtatlarining sobiq prezidenti Avraam Linkoln ta'kidlaganidek, demokratiya xalq orqali, xalq uchun o'rnatilgan xalq hokimiyatidir. Demokratianing mazmun-mohiyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Xalq hokimiyatchiligi" bobi, 7- moddasida: "Xalq davlat hokimiyatnning birdan-bir



manbaidir” - deya mustahkamlab qo‘yilgan. Xalq hokimiyatchiligiga bag‘ishlangan ushbu modda mazmuni Respublikamizda demokratik jamiyat qurishning huquqiy asoslarni mustahkamligidai dalolat beradi.

Jahon jamiyatshunosligi kashf etgan qonuniyatlargaga ko‘ra, xalq o‘z qo‘lida to‘plagan hokimiyatni ikki usulda amalga oshiradi.

1.Bevosita demokratiya. Bunda xalqning hech qanday vakillarsiz, o‘z qo‘lida to‘plagan hokimiyatni o‘zi amalga oshirishi tushuniladi. Ushbu usuldagagi demokratiyaning huquqiy asosi Konstitutsiyaning 9-moddasida

mustahkamlangan: “Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiyo ovozga (referendumga) qo‘yiladi”. Asosiy qonun ushbu moddasining hayotiy ijrosi quyidagi shakllarda namoyon bo‘lmoqda. Davlat qabul qilayotgan qonun loyihalar, umumxalq muhokamasidan o‘tkazkilmoqda. Saylovchilar saylovlarda bevosita o‘zi ishtirok etadi. Respublika Prezidenti vakillik organlarining eng quyidan eng yuqorigacha bo‘lgan bosqichlari deputatlarni saylovchilarning o‘zlarini bevosita saylaydilar. Shuningdek, mahalliy o‘zinn o‘zi boshqarish organlari, ya’ni mahalla qo‘mitalari faoliyatini ham bevosita demokratiyaning yaqqol misoli sifatida ko‘rsatish mumkin.

2.Demokratiyaning amalga oshirishning ikkinchi usuli vakillik demokratiyasi. Bunda xalq o‘z hokimiyatini bilvosita amalga oshiradi. Ya’ni xalq o‘z qo‘lida to‘plagan hokimiyatni o‘zi saylab qo‘ygan vakillari orqali - Oliy Majlis, mahalliy kengash deputatlari vositasida amalga oshiradi. Mazkur deputatlar o‘z vakolatlarini saylovchilardan olganlar va o‘z faoliyatlarida xalq manfaatlarini ifoda etadi.

O‘zbekistonda Davlat va ijroiya hokimiyatining rahbari bo‘lmish Respublika Prezidenti ham bevosita saylovchilar tomonidan saylanada. Mamlakatimizdagи boshqa davlat organlari jumladan, xukumat, sud organlari, vazirlar va boshqalar Respublika Prezidenti yoki Oliy Majlis tomonidan tayinlanishi yoki saylanish tartibini inobatga olsak, o‘zbek xalqi barcha davlat organlari va mansabdor shaxslarni saylash tayinlashda bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi.

Hozirgi zamon xorijiy mamlakatlarning huquqshunoslari davlat va jamiyat arboblari fikrlariga ko‘ra demokratik huquqiy davlat qurish uchun barcha mamlakatlarga xos bo‘lgan umumiyo xususiyatlari mavjuddir. Ular qo‘yidagilardir:

- 1.Saylovlar.
- 2.Saylov yakunlarini aniqlash usuli.
- 3.Teng huquqlik.
- 4.Fikrlar erkinligi.
- 5.Ko‘ppartiyaviylik.

Bizning Respublikamizda yuqorida ko‘rsatilgan demokratik davlatlarga xos bo‘lgan asosiy belgilar konunda ham, amalga ham mavjuddir.

Sohaning yetakchi olimlaridan biri A.Erkaevning fikricha, milliy g‘oya aslida muayyan xalqning oliy istiqbol maqsadini bir necha so‘zlarda yoki iborada mujassam ifodalovchi tushunchalar yoki shior, iboradir. U xalqni o‘sha maqsad yo‘lida birlashtiradi, safarbar etadi. Xalq barcha sa‘y-harakatlarini, intilishlarini, bunyodkorlik faoliyatini unga muvofiqlashtiradi. Zarur bo‘lsa, iqtisodiy, ijtimoiy



munosabatlarini, mamlakatning huquqiy, siyosiy, mafkuraviy asoslarini, ta'limgartarbiya tizimini chuqur isloq qiladi. Milliy g'oyaning asosiy vazifalaridan biri, avvalo, xalqning jipsligini, birligini, mamlakatning hududiy yaxlitligini saqlash va mustahkamlashdir. Ikkinchidan, millatning oliy maqsadini, rivojlanish marralarini, mo'ljalarni umumiy tarzda aniqlaydi. Milliy g'oya turli iboralarda ifodalanishi mumkin. Lekin ifoda shaklidan qat'i nazar, xalqqa istiqbolni, ijtimoiy mo'ljalni ko'rsatishi shart.

Istiqlolga erishganimizdan keyin dastlabki yillarda “O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat” shiori olg'a surildi. U amalda milliy g'oya vazifasini o'tadi va xalqni birlashtirishda, safarbar etishda katta rol o'ynadi. Mazkur jozibali shiorda urg'u jamiyatga emas, davlatga berilgandi. Keyinchalik milliy g'oya shaklan takomillashtirilganda “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot” iborasi olg'a surildi. Unda urg'u siyosiy tashkilotga (davlatga) emas, balki har kishi uchun, siyosiy, mafkuraviy qarashlaridan qat'i nazar, birdek aziz Vatanga hamda shaxs va jamiyat hech qachon befarq bo'lmaydigan erkinlikka va farovonlikka qo'yildi. Milliy g'oyaning bunday tushunchaviy ifodasi ancha mukammallik kasb etdi.

Ammo uning mazmunini, uni amalga oshirish vazifalarini ochib berishga yetarlicha mas'uliyat bilan yondashilmadi. Ayniqsa, u islohotlarning yo'naliishlari, sohalari, turli bosqichlari, amaldagi va ehtimoldagi muammolari bilan bog'lanmadi. Natijada u mafkuraviy chaqiriq, quruq shior darajasida qolib ketdi. Aniq muammolar va vazifalardan yiroqligi uchun odamlarga ta'siri asta-sekin susaya boshladi.

Katta qiziqish va xayrixohlik bilan kutib olingan “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot” bugun iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotimizga real ta'sir ko'rsatayotirmi, degan savolga aniq javob berish ancha mushkul. Milliy g'oyani jonlantirish uchun uni Uchinchi Renessans g'oyasi bilan boyitish zarur. Faqat Uchinchi Renessansni amalga oshirib, biz ozod va obod Vatanda erkin va farovon hayotni barpo eta olamiz. Yoki, yana qulayrog'i, Uchinchi Renessansga erishishni milliy g'oyaning yangi ifodasi, deb e'lon qilish maqsadga muvofiq.

Milliy g'oya joriy vazifalarni emas, balki strategik oliy maqsadni ifodalaydi. Shu ma'noda Uchinchi Renessans g'oyasi istiqbolga intilishga juda mos keladi. Mazkur g'oyaning safarbarlik kuchi, umuman, mafkuraviy salohiyati juda yuqori. Ayni chog'da o'tmish tariximizning shonli sahifalari, buyuk ajdodlarimizning bunyodkorlik va ijodkorlik salohiyati bilan bog'lanadi. Bizga mazkur tushuncha kimlarning vorislari ekanimizni eslatib turadi. Yangi Renessans yo'lida xalqimiz turli mayda, vaqtinchalik masalalarga, guruhbozlik, mahalliychilik, ayirmachilik, mafkuraviy mutaassiblikning har xil ko'rinishlariga chalg'imasi ligi kerak. Tarix saboqlarini unutishga haqqimiz yo'q.



Uchinchi Renessans g'oyasi milliy ruhiyatimizga, xalqimiz armon-orzusiga yaqin. Zotan, xalq ilgari oqqan daryosi yana oqishini astoydil istaydi²⁶.

Aslini olganda, uchinchi renessansni yaratuvchilar ham, milliy g'oya va ma'naviyatni rivojlantiruvchi kuch ham – yoshlar. Shu sababli ham milliy g'oya, ma'naviyat va yoshlar tarbiyasi tushunchalari birga ifoda etiladi va bir-birini to'ldiradi.

Yoshlar tarbiyasi mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida shunday dedi: "Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olish. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. Shu munosabat bilan O'zbekiston globallashuv va axborotkommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi. Bizning nazarimizda, mazkur hujjatni imzolaydigan davlatlar ushbu sohani o'z ijtimoiy siyosatining asosiy va muhim hayotiy ustuvor yo'nalishlaridan biri darajasiga ko'tarish bo'yicha qat'iy majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi kerak"²⁷.

Globallashuv sharoitida inson, ayniqsa, yoshlar qalbi va ongi uchun kurash borgan sayin shiddatli tus olib, dunyoning mafkuraviy manzarasi tubdan o'zgarib bormoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning quyidagi fikrlari: "Bugun qancha yoshlar soxta aldrovlarga uchib, o'z umrini xazon qilayotganini o'ylab, to'g'risi, tunlari uxlamasdan chiqaman. O'zingiz aytинг, aziz birodarlar, bu achchiq haqiqat yuragimizga xanjar bo'lib sanchilishi kerak emassi? Axir, kechagina shu yoshlar, o'zimizning qorako'zlar, birimizning mahalladoshimiz, birimizning o'g'limiz, birimizning qizimiz yoki jiyanimiz edi-ku! Ular qachon adashdi, qachon noto'g'ri yo'lga kirib ketdi? Biz nega g'aflatda qoldik? Qachon, qaerda xatoga yo'l qo'ydik? Farzandlarimiz qachon begonalarning qo'liga o'tib ketdi? Nima jin urdiyu ular o'z ota-onasi, o'z yurtining dushmaniga aylanib qoldi? Bugun bu mudhish balo-qazoning oldini olmasak, bor kuchimizni shunga safarbar

²⁶ Erkaev A. Uchinchi Renessans – milliy g'oya sifatida. //Xalq so'zi, 2020 yil, 8-sentyabr.

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidgi nutqi.// Xalq so'zi, 2017 yil, 21 sentyabr.



etmasak, ertaga kech bo‘ladi”²⁸, deya ta’kidlaganlari har bir kasb egasiga dolzARB vazifa bo‘lishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-sonli Qarorida qayd qilinganidek, “...jahonda g‘oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskin davrda yoshlar o‘rtasida milliy qadriyatlarga bepisandlik, zararli yot g‘oyalari ta’siriga berilish, jinoyatchilik va ekstremizm harakatlariga adashib qo‘silib qolish holatlari hamon uchramoqda. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini oshirish, ma’naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatiga yaqindan ko‘maklashish maqsadida kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish...”²⁹ vazifasi ushbu sohadagi ishlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etishi alohida ta’kidlandi. Mustaqillik davrida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga alohida e’tibor qaratib kelingan. Bu borada mamlakatda keng faoliyat olib borayotgan O‘zbekiston yoshlari ittifoqi faoliyatining asosiy maqsadi – yoshlarni birlashtirish, sog‘lom turmush talablari asosida tarbiyalash, ularning manfaatlarini himoya qilish, yosh yigit-qizlarning o‘z aql-zakovati, kuch-g‘ayratini to‘la namoyon etishi, jamiyatda munosib o‘rin egallashlari uchun shart-sharoit yaratib berishdan iborat³⁰, deb belgilangan. Bularning barchasi O‘zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishga xizmat qiladigan islohotlarning natijasidir.

5. Mamlakatimizda milliy g‘oya ta’limining joriy etilishi.

Mamlakatimizda milliy g‘oya ta’limi mustaqillik yillarda shakllandi. Bu ta’limning joriy etilishi har birimizga yashashimizdan maqsad nima ekanligini, insonlik va insoniylikning mohiyatini, mustaqillikning hech bir tushuncha bilan almashtirib bo‘lmas buyuk qadriyat ekanligini anglashimizga; Vatan nima, kindik qonimiz tomgan tuproq nima, oila, mahalla qanday tushunchalar, hayotimizda ularning qanday o‘rni bor, ozodlik nima, o‘zgalarga qaram bo‘lish nima - bularning barchasi haqida chuqurroq o‘ylab ko‘rishimizga, mushohada yuritishimizga imkon yaratadi, ko‘mak beradi.

Aynan mana shu maqsadda dastlab milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlar, so‘ng ularni umumlashtirgan “Tarbiya” fani yuzaga keldi.

Dastlab, 2001 yil 18 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani

²⁸O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi:// Xalq so‘zi. 2017 yil 16 iyun.

²⁹ Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori:// Toshkent, Xalq so‘zi. 2019 yil. 4 may. № 78

³⁰O‘zbekiston Yoshlar ittifoqining maqsad va vazifalari://<https://yoshlarittifoqi.uz/uz/menu/maqsad-va-vazifalar>

bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida"gi Farmoyishi qabul qilindi.

Ushbu Farmoyishda "2001 yilning 25 fevraliga qadar oliy ta'lim muassasalari uchun ma'ruza matnlarini yaratish, Davlat matbuot qo'mitasi bilan hamkorlikda chop etish va joylarga yetkazishni tashkil qilsinlar" ³¹ deyiladi.

So'ng 2006 yil 25 avgustda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Aslida bu fanlarning yuzaga kelishi yangi asr boshidagi zarurat edi. Chunki, milliy g'oya jamiyatimiz taraqqiyotining oyaviy tamoyillarini o'zida ifoda etadi, bu g'oya mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga xizmat qiladigan g'oya to'g'risidagi yaxlit, izchil ta'limotdir. Bu ta'limot o'z tushuncha va tamoyillariga, tarixiy negizlariga, ilmiy, falsafiy, dunyoviy va diniy, milliy hamda umumbashariy ildizlariga ega muayyan tarixiy zaruriyat mujassam bo'lgan nazariyadir.

Milliy g'oya ta'limi rivojida O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida", "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarining alohida o'rni bor.

Jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yilning 12 avgustida qabul qilingan, Oliy Majlis Senati tomonidan 2016 yilning 24 avgustida maqullangan va 2016 yilning 15 sentyabirdan qonuniy kuchga kurgan O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonunning asosiy maqsadi yoshlarga oid davlat siyosati munosabatlarini tartibga solishdan iborat bo'lib, yangi tahrirdagi qonun 4 bob, 33ta moddadan tashkil top gan. Qonunda yoshlar bo'yicha davlat siyosatining maqsadi va tamoyillari, yoshlarning huquqiy va ijtimoiy muhofazasi, ta'lim olish huquqlari, iqtidorli yoshlarga nisbatan davlat ko'magini amalga oshirish kabi dolzarb masalalar qamrab olingan.

Qonunda belgilangan tamoyillardan biri ochiqlik va shaffoflik, yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda yoshlarning ishtiroki, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlar ustuvorligi, yoshlarning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy prinsiplari sifatida belgilangan.

Qonunda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari alohida moddada belgilab qo'yilgan bo'lib, unda yoshlarning huquq va erkinliklari, qonuniy

³¹"Ma'rifikat" gazetasi, 2001 yil, 20 yanvar'.

manfaatlarini ta'minlash, ma'naviy, intellektual, jismoniy-axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish o'z ifodasini top gan.

Bundan tashqari qonunning yana bir muhim jihat - kelajagimiz egalarini vatanparvarlik, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, keng dunyoqarashga ega qilib ularni tarbiyalash, terrorizm, diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish kabi me'yorlar o'z aksini topgan.

Qonunda quyidagi tushunchalarga izoh berib ketilgan, yoshlar -yosh fuqarolar 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar, yosh oila-er-xotinning ikkisi ham 30 yoshdan oshmagan oila.

Qonunga muvofiq oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini bitirgan, ta'lim muassasasini bitirgandan so'ng olgan ixtisosligi bo'yicha uch yil ichida ishga kirgan, ishlayotganligiga uch yildan ko'p bo'limgan o'ttiz yoshdan oshmagan xodimlar yosh mutaxassis hisoblanishadi.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda yosh fuqarolar tomonidan, shuningdek ta'sischilari yosh fuqarolar bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati-yosh tadbirkorlar deb aytildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, mafkura sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi. Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak... Buning uchun o'zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma'naviyati, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas'ul deb bilgan insonlar – bu mahalla yoki diniy tashkilotlar bo'ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta'sir kuchiga ega ijodkor ziyorilar bo'ladimi – ularning barchasi, ayniqsa, faol bo'lishlari lozim.

Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160 -sonli qarorining qabul qilinishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni keng jamoatchilikka samarali yetkazishda, oila, mahalla, ta'lim muassasalari va mehnat jamoalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishda muhim turtki bo'ldi. Ushbu qaror asosida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi qayta tashkil etildi. Ushbu qarorda belgilanganidek, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining raislik qilishi ma'naviyat va ma'rifat bugungi kunda jamiyat rivojlanishida o'ta muhim masalalardan biri ekanining tasdig'idir.

Jahonda g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskin davom etayotgan, ma'naviy tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda yoshlar o'rtasida milliy qadriyatlarga bepisandlik, zararli yot g'oyalar ta'siriga berilish, jinoyatchilik va ekstremizm

harakatlariga adashib qo'shib qolish holatlari hamon uchrayotganligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-sonli Qarorining qabul qilish zaruratin keltirib chiqardi.

Qarorning asosiy maqsadi ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini oshirish, ma'naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatiga yaqindan ko'maklashish hisoblanadi.

Qaror bilan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi faoliyatining asosiy yo'nalishlari belgilandi.

Shunga ko'ra, Kengash qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka samarali yetkazishi lozim.

Bundan tashqari Kengash quyidagilar uchun mas'ul hisoblanadi:

aholi o'rtasida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish;

oila, mahalla, ta'lif muassasalari va mehnat jamoalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish va sog'lomlashtirishga qaratilgan faoliyatda ishtirok etish, "mahalla-tuman-viloyat-respublika" prinsipi asosida hududlar kesimidagi ijtimoiy-ma'naviy muhit xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish;

"Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida jamiyatda uzlusiz ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo'nalishlari, ta'sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish;

tinchlik va osoyishtalikka, mamlakatimizning barqaror taraqqiyotiga, qadriyat va urf-odatlarga hamda insonparvarlik g'oyalariga xavf soluvchi turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi samarali targ'ibot ishlarini olib borish;

aholining ijtimoiy-ma'naviy hayotida bunyodkorlik g'oyalarini kuchaytirish, Diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlash.

Qaror bilan Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, aholining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga doir chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Dastur doirasida respublika bo'ylab "Ma'naviyat festivali" va "Yilning eng faol ma'naviyat targ'ibotchisi" tanlovi o'tkazilmoqda.

Endilikda har yili "Bu yilda o'qish zarur bo'lgan 100 ta kitob" ro'yxati tuzilmoqda.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Respublika kengashining, uning hududiy bo'lim va bo'linmalari tegishli hududiy kengashlarning ishchi organlari hisoblanadi.



Qarorga muvofiq, Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi hamda Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitning holatini aniqlash va manzilli sog'lomlashtirish metodikasi ishlab chiqildi.

Bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy ishlar uchun mas'ul xodimlar Markaz huzuridagi "Ma'naviyat targ'ibotchisi" ta'lim muassasasida o'qitilmoqda.

Qaror bilan "Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishoni ta'sis etildi.

Markaz Rahbarlari xodimlarni Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy propiska qilish to'g'risida iltimosnoma kiritishi mumkin bo'lgan organlar ro'yxatiga kiritildi.

Endilikda ta'limning boshqa bo'g'inlari qatori oliy ta'lim tizimda ham ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ana shu me'yoriy huquqiy hujatlar asosida tashkil etilishi maqsad muvofiq.

Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar quyidagi asosiy yo'nalishlardagi olib borilishi zarur:

- talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida, mustaqil O'zbekiston Respublikasining xaqiqiy fuqarolari etib shakllantirish;
- Vatan oldidagi fuqarolik va farzandlik vazifalarini sidqidildan bajarishga tayyorlash;
- talabalarda kasb xunarni mukammal egallash mas'uliyatni oshirish;
- talabaning shaxs sifatidagi, o'ziga xos individual fazilatlarni shakllantirish va takomillashtirish;
- talabalarni ijtimoiy faollik, tashabuskorlik, o'qishga va kasbga bo'lgan hurmat va ijtimoiy mas'ullik hissini keng targ'ib qilish;
- talabalar ijtimoiy-siyosiy va huquqiy ongini rivojlantirish, ularda tanqidiy va taxliliy fikrlash ko'nikmalarni kengaytirish;
- talaba yoshlarga salbiy illatlar:adolatsizlik, ta'magirlik, mahalliychilikning salbiy oqibatlarini anglatish;
- talaba yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularning qiziqishlari asosida ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etish;
- manzillashgan ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarni takomillashtirib borish.

Nazorat savollari

1. "Oliy ta'limda milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlarini o'qitishning nazariy asoslari" modulining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Bugungi kunda milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o'qitishda qanday eng muhim talablar qo'yilmoqda?
3. Milliy g'oya tushunchasiga ta'rif bering va izohlang...
4. O'zlikni anglash tushunchasiga qanday ta'riflar berilgan va nima uchun "o'zlikni anglash" – ma'naviyatning eng ustuvor kategoriylaridan biri hisoblanadi?

5. Insoniyat tarixiy takomili hozirgi Yevropa ilmida nechta asosiy davrga ajratiladi?

6. Ma'naviyat sohasining taniqli olimlaridan biri Abdurahim Erkaev o'zbek xalqi ma'naviyati rivojlanishining tarixiy bosqichlarini necha davrga bo'lib o'rghanishni taklif etadi?

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi.// Xalq so'zi. 2017 yil 16 iyun.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidgi nutqi.// Xalq so'zi, 2017 yil, 21 sentyabr.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi//Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr.

4. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.// Toshkent, Xalq so'zi. 2019 yil. 4 may. № 78

5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yuk. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. –T.: O'zbekiston, 1999.

6. Karimov. I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T 8. – T.: O'zbekiston, 2000.

7. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mastahkam irodasiga ishonaman. "Fidokor". 2000 yil, 8 iyun.

8. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-jild. – T.: O'zbekiston, 2003.

9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.

10. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'FMJ, 2004.

11. Xo'jamurodov I.R. Istiqlol va o'zlikni anglash. – Milliy istiqlol mafkurasi va uning ta'lim-tarbiyatadagi o'rni. S., 1995.

12. Komilov N. Tasavvuf. Tavhid asrori. – T.: O'zbekiston, 1999.

13. Otamurodov S. Milliy g'oya - milliy tiklanish manbai. – "Tarix, mustaqillik, milliy g'oya". -T.: Akademiya, 2000.

14. Erkaev A. Milliy g'oya mohiyati. – T.: Ma'naviyat, 2001.

15. "Ma'rifat" gazetasi, 2001 yil, 20 yanvar.

16. Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.

17. Alimova M., Tyumenova M., Hasanov J. Milliy o'zlikni anglash jarayonida ijtimoiy faollik – "Yoshlar ongi, qalbi va dunyoqarashini shakllantirish hozirgi kunning dolzarb masalasi". – Guliston, 2006.



18. Qo'chqorov V. "O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotining demokratiyalashishi jarayonida milliy o'zlikni anglash muammosi" siyosiy-falsafiy tahlil Siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2009.
19. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
20. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. – T.: O'MEDIN, 2010.
21. Haitov Sh. Murosa va O'zbekiston falsafasi tarixiga kirish. –T.: Falsafa va huquq instituti, 2010.
22. Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf. – T.: Yangi asr avlodi, 2011.
23. Tohiriyon A., Sobirova M., Zamonov Z. Milliy g'oya turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda interfaol ta'llim metodlaridan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. – T.: RTM, 2017.
24. Erkaev A. Ma'naviyatshunoslik. Monografiya. 1-kitob. – T.: Ma'naviyat, 2019.
25. Erkaev A. Uchinchi Renessans – milliy g'oya sifatida. //Xalq so'zi, 2020 yil, 8-sentyabr.

Elektron ta'lim resurslari

1. Imomnazarov M. Ma'naviyatning rivojlanish tarixi.//
<http://kutubxona.adu.uz/kutubxona/11manaviyatningrivojlanishtarixipdf.pdf>
2. O'zbekiston Yoshlar ittifoqining maqsad va vazifalari.
[/https://yoshlarittifoqi.uz/uz/menu/maqsad-va-vazifalar](https://yoshlarittifoqi.uz/uz/menu/maqsad-va-vazifalar)

2-mavzu: "O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA MILLIY G'OYANI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI"

Reja:

1. Milliy g'oya –millatni harakatga keltiradigan qudratli omil.
2. Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda milliy g'oyani rivojlantirish dolzarb masalaga aylanishi.
3. "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiysi"ning qabul qilinishi.
4. Milliy yuksalish tushunchasining mazmun mohiyati.
5. "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" g'oyasi. Milliy yuksalish g'oyasining asosiy tushunchalari.

Tayanch tushunchalar: Milliy g'oya, shaxs, fuqaro, milliy g'urur, iftixor, ornomus, strategiya, Harakatlar strategiyasi, konsepsiya, O'zbekiston taraqqiyotining



yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiysi, milliy yuksalish, milliy yuksalish g'oyasi, milliy yuksalish g'oyasining asosiy tushunchalari, milliy tiklanish.

1.Milliy g'oya –millatni harakatga keltiradigan qudratli omil

Milliy g'oya o‘z mohiyatiga ko‘ra, xalq, millat taqdiriga daxldor bo‘lgan, qisqa yoki uzoq muddatda hal etilishi kerak bo‘lgan vazifalar va mo‘ljallarni ham aks ettiradi. Ikkinchı jahon urishi davrida fashistlar bosib olgan Fransiyada “qarshilik ko‘rsatish” milliy g'oya darajasiga ko‘tarilgani va Fransiyaning ozod etilishi bilan o‘z ahamiyatini yo‘qotgani fikrimiz dalili bo‘ladi. Mamlakatimiz uchun milliy g'oya haqidagi masalaning bugungi amaliy ahamiyati shundaki, biz o‘tish davrini boshdan kechirmoqdamiz. Har bir xalq o‘z tarixining burilish nuqtalarida, avvalo, mafkura masalasini, uning o‘zagini tashkil etadigan, o‘ziga xos o‘q, birlashtiruvchi yadro vazifasini o‘taydigan ijtimoiy g'oyani shakllantirish muammosini hal qiladi. Mamlakatimiz uchun milliy g'oya haqidagi masalaning bugungi amaliy ahamiyati shundaki, biz o‘tish davrini boshdan kechirmoqdamiz. Aynan shunday paytda aholining turli qatlamlari manfaatlarini himoya qiluvchi mafkuralarning shakllanishiga sharoit tug‘ilishi mumkin. Shunday ekan, millat, jamiyatni parokanda bo‘lib ketishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Aks holda, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy islohotlar o‘z ahamiyatini yo‘qotadi, mustaqillik yo‘lida g‘ov paydo bo‘ladi.

Mustaqil taraqqiyot yo‘lida aniq marralarni ko‘zlab yashashimizda, pirovard maqsadimiz bo‘lgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish borasidagi intilishlarimizda biz uchun ruhiy-ma’naviy kuch-quvvat manbai, ilmiy asos – bu milliy g'oya, milliy mafkura³².

O‘z milliy g'oyasini, o‘zligini anglagan va uni hayotining ma’no-mazmuniga aylantirgan millat ozod va obod Vatanda yashashi, aks holda esa, u vaqt o‘tishi bilan millat sifatida yo‘q bo‘lib ketishi ham mumkin.

Xususan, donishmand xalqimizning milliy g'oyalari minglab u yaratgan dostonlarda, maqol va matallarda, rivoyat va ertaklarda, «Avesto» va boshqa qadimiy yozma yodgorliklarda, buyuk ajdodlarimizning asarlarida, sohibqiron Amir Temur o‘gitlarida, ulug‘ mutafakkir bobokalonimiz Mir Alisher Navoiy hazratlarining she’rlari va boshqa mashhur fozilu-fuzalolarimizning qarashlarida uchraydi. Masalan, «O‘zingni er bilsang, o‘zgani sher bil», «Qora ko‘ngil - yara ko‘ngil», «Qing‘ir ishning qirq yildan keyin ham qiyig‘i chiqar», «Qarg‘a bo‘lma - qayrilasan, issiq joydan ayrilasan», «Yaxshilik to‘rga eltar, yomonlik - go‘rga», «Esing borida etagingni yop», «Ona yurting - oltin beshiging» va boshqa ko‘plab xalq maqollari milliy g'oyamizning ayrim ko‘rinishlaridir.

³²Karimov. I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T 8. – T.: O‘zbekiston, 2000,463-b.



U yoki bu g'oyaning milliy g'oya sifatida maydonga chiqishi millatning o'tmishi, mavjud holati bilan bevosita bog'liqdir. Zero, ana shu ikki negizga tayangan hodagina u millatning qisqa yoki uzoq vaqtida erishishi lozim bo'lgan maqsad – muddaolari va mo'ljallarini to'g'ri ifodalay olishi mumkin. Tom ma'noda milliy g'oya oxir oqibat ozmi-ko'pmi insoniyat taqdiriga ta'sir qiladi. Shu ma'noda, har qanday milliy g'oyada umuminsoniy mohiyat mavjud bo'ladi. Ammo aniq bir millat yoki umuman insoniyat uchun ahamiyatni bo'lgan g'yaolar ham bor. Aytaylik, "Milliy yarash" g'oyasi fuqarolar urush ketayotgan davlat uchun hayotiy mazmunga ega bo'lsa, "Manfaatli hamkorlik" g'oyasi dunyoning barcha mamlakatlari uchun birdek ahamiyatlidir. Har bir xalq o'z tarixinnig burilish nuqtalarida, avval mafkura masalasini, uning o'zlarini tashkil etadigan, o'ziga xos o'q, birlashtiruvchi yadro vazifasini o'taydigan ijtimoiy g'oyani shakllantirish muammosini hal qiladi.

Har qanday mafkura muayyan maqsadlarga xizmat qiladi, bu yo'lida xilma-xil vazifalarni bajaradi. Ma'lumki, mafkuraning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilarda namayon bo'ladi:

- odamlarni muayyan g'oyaga ishontirish;
- shu g'oyani atrofida uyushtirish;
- kishilarni ma'naviy – ruxiy jihatdan rag'batlantirish;
- g'oyaviy tarbiyalash;
- g'oyaviy immunitetni shakllantirish;
- harakat dasturi bo'lish.

Qadimgi xoqonlardan birining yurtiga qo'shni podshodan elchi kelBDI. U shunday debdi: "shohimizning amri shuki, agar hoqon o'zining eng sevimli tulporini bizga in'om qilmasa, yurtingizga urush e'lon qilamiz". Elchining bu gaplarini vazir xoqonga yetkazibdi. Xoqon, mayli yurtimning tinchligi uchun sevimli tulporimdan voz kecha qolay, deb tulporni berib yuboringlar, deya buyruq qilibdi. Shu tariqa yurtning tinchligi va osoyishtaligi bir oz vaqt saqlanib qolibdi. Bir muncha vaqtdan so'ng o'sha podshodan yana elchi kelBDI va bu safar haqonning sevimli kanizagini talab qilibdi. Hoqon yurt tinchligi yo'lida kanizagini ham hadya qilib yuboribdi. Uchinchi safar yana elchi kelBDI. Uning muddaosini vazir hoqonga shunday bayon qilibdi: "Shohim, yurtimizning qarovsiz burchagida ozgina toshloq joy bor edi, bu safar qo'shni podsho o'sha yerni berishimizni talab qilmoqda. Keling, shu tashlandiq joyni berib yuboraylik, shu bilan xalqimizning tinchligini saqlab qolamiz." Bu gapni eshitgan hoqon: "Yo'q!" – debdi keskin: "Endi urush qilmasak bo'lmaydi. Tulpor va kanizak shaxsan menga tegishli edi, shu sababli ularni osonlikcha berib yubordim. Ammo Vatanimiz sarhadlarining har bir qarichida shu choqqacha o'tgan otabobolarimizning, biz bilan hozir yashayotgan vatandoshlarimizning va kelgusida tug'ilajak farzandlarimiz, nevara-chevaralarimizning haqqi bor. Ularning haqqini o'zgaga berib yuborishga hech birimizning haqqimiz yo'q. Vatanning har bir qarich

yerini saqlab qolish uchun endi urushga borishimizga to‘g‘ri keladi. Xalqni safarbarlikka otlantur!”. Ko‘rinib turibdiki har bir qarichni e’zozlash falsafasining ildizi mujassamdir.

Milliy mafkura jamiyatdagi barcha sotsial qatlamlar va guruhlarning umumiy harakat dasturi, ularni faollikka da’vat etuvchi vosita hisoblanadi. Mafkuraviy maqsad – g‘oyaviy faoliyatni amalga oshirishdan qutiladigan ideal natijasidir. Maqsadni aniq-ravshan idrok etish inson va jamiyat faoliyatiga izchillik, sobitqadamlik va faollik bag‘ishlaydi.

Milliy mafkuraning oliy maqsadi – Vatanimiz ravnaqi, yurtimiz tinchligi va xalq farovonligi g‘oyalariga tayangan holda xalqimizni mustaqillikni mustahkamlash, O‘zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etishdir.

Hozirgi paytda kimning g‘oyasi kuchli, fikri tiniq, mafkurasi hayotiy bo‘lsa – o‘sha g‘alaba qozonadi. Bu – insoniyatning XX asr tarixidan kelib chiqadigan muhim xulosalardan biridir. Milliy istiqlol mafkurasi xalqning tub manfaatlari va maqsadlarini o‘zida ifoda etadi, jamiyat a‘zolarini shu maqsad atrofida jipslashtiradi.

O‘zbekiston xalqining tub manfaatlari: mamlakat mustaqilligi, yurt tinchligi, millatlararo totuvlik, fuqarolar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, mamlakat aholisi va har bir oila, mahalla-ko‘yning faroovnligini ta’minlashdan iboratdir.

Milliy g‘oya bilan bog‘liq tushunchalarning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u, asosan, O‘zbekiston xalqi ijtimoiy, hayot sohalari rivoji bilan, uning milliy-madaniy merosi, urf-odatlari, qadriyatları, tili, madaniyati, tarixi, falsafasi, diniy ruhiyati bilan uzviy bog‘liq. Milliy g‘oya milliylikni, milliy rivojlanish xususiyatlarini e’tirof etadi va unga hurmat bilan qaraydi. Milliy g‘oya “sinfiylik”, “partiyaviylik” tamoyillariga asoslanmaydi. Boshqa mamlakat xalqlarining hayotiga o‘z g‘oyalarini singdirishni da’vo qilmaydi.

Milliy g‘oya O‘zbekiston Respublikasi nomini olgan o‘zbek xalqi, millatining milliy-madaniy merosiga tayangan holda boshqa xalqlar madaniyati, maqsad va intilishlari bilan o‘zaro mushtarak tarzda mamlakat ravnaqining ma’naviy-ruhiy, falsafiy omili sifatida xizmat qiladi.

Milliy g‘oyani o‘rganishni taqozo etadigan umumiy va o‘ziga xos qonuniyatlar mavjud. Umumiy qonuniyatlar turli xalqlar, mamlakatlar, jamiyatlar hayotida amal qiladigan umumiy asosga ega bo‘lgan ichki zaruriy bog‘lanishlar bo‘lib, u jamiyat va mafkuralar (g‘oyalar) ning bir-birlari bilan uzviy bog‘liqligi qonunidir. Jamiyat mafkurasiz, maqsadsiz yashay olmaydi. Demak, birinchidan, mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo‘lmasa, odam, jamiyat, davlat o‘z yo‘lini yo‘qotishi muqarrar. Ikkinchidan, qaerdaki g‘oyaviy bo‘shliq vujudga kelsa, o‘sha yerda begona g‘oya asosida bo‘lgan mafkuralar ta’siri uchun sharoit mavjud bo‘ladi. Buni

isboti uchun xoh tarixdan, xoh zamonamizdan ko‘plab misollar keltirish qiyin emas⁷. U jamiyat oldidagi maqsadlar, uni amalga oshirish vositalaridir.

Milliy g‘oyaning tushunchalari bilan bir qatorda uning namoyon bo‘lish qonunlari ham mavjud. Bular:

- turli xalqlar, turli jamiyatlar mavjud. Ularning maqsadlari ham, rivojlanish yo‘llari ham turli xil. Ya’ni rivojlanishning, ijtimoiy taraqqiyotning xilma-xilligi qonuni orqali namoyon bo‘ladi;
- dunyoning mafkuraviy manzarasi turli xil maqsadlar, turli-xil manfaatlar, qarashlar bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lgan va bo‘lib qolmoqda. Bu ezgu g‘oyalar bilan birga yovuz g‘oyalarning ham yashovchanligini, «dunyoda mafkura sohasida kurashlar» davom etib kelayotganligining asosida yotgan o‘ziga xos jihatidir.

Lekin, har bir xalqning o‘ziga xos ma’naviy ruhiyati, merosi, qadriyatlar bilan bog‘liq g‘oyasi ham mavjud. Uni inkor etib bo‘lmaydi. Uni anglamaslik u bilan bog‘liq bo‘lgan turmush tarzini, madaniyatidagi xususiyatlarini, tarixini, tilini, milliy-madaniy rivojlanish qonuniyatlarini e’tirof etmaslikka olib keladi. Bu oxir-oqibatda shu xalqni yoki mamlakatning «o‘zligini» tan olmaslikka sabab bo‘ladigan yo‘ldir.

- Globallashuv jarayonining milliy g‘oyaga ta’sir etishi ham o‘ziga xos umumiy qonuniyatdir. Bu jarayon turli mamlakatlar, xalqlar hayotida ularning bir-biriga bog‘liqligini, o‘zaro ta’sirini oshiradi, ma’naviy, g‘oyaviy hayotida aks etmasdan qolmaydi.

Milliy g‘oya to‘g‘risida fikr yuritganda, uning o‘zbek xalqining hayoti, turmush tarzi, tarixi, madaniyati, milliy-madaniy merosi va qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan hamda milliy g‘oyasida aks etadigan o‘ziga xos qonuniyatlar ham mavjud. Bu qonuniyat milliy istiqlol g‘oyasining mazmuni, maqsadi va xususiyati nuqtai nazaridan karaganda alohida, ustuvor ahamiyatga ega. Chunki, bu qonuniyatni hisobga olish o‘zbek xalqining, millatning kelajagi bilan o‘zligini saqlab qolish hamda o‘z negizida rivojlanishini, dunyoda o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lishni e’tirof etish bilan bog‘liq. Tarixiy jihatdan yondashganda, bu sohada «turli g‘oyalar», «mafklular» ana shu muhim qonuniyatlarga zid bo‘lgan holatlarni ham kuzatilishini ko‘rsatadi. O‘zbek xalqini tilidan, madaniyatidan, tarixidan ajratib qo‘yishga bo‘lgan urinishlar bunga misoldir. Chunki yot va begona g‘oyalar xalqning turmush tarzi, milliy-madaniy qadriyatlaridan ajratib qo‘yish orqali uni zaiflashtirishga va o‘z irodasiga bo‘ysundirishga harakat qilgan. Yot va begona g‘oyalar ba’zi xalqlarning millat sifatida rivojiga o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazgan. Shuning uchun ham milliy istiqlol g‘oyasiga tayanish va unga amal qilish O‘zbekiston xalqining o‘zligini



saqlab qolish va o'ziga xos va mos rivojlanish ehtiyoji sifatida namoyon bo'ladi. Demak, milliy g'oyaning qonuniyatlari har bir xalq uchun milliy o'ziga xosligini zamon yutuqlari bilan bog'lashning nafaqat kafolati, balki rivojlanish strategiyasi hamdir.

2. Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda milliy g'oyani rivojlantirish dolzarb masalaga aylanishi

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish yuzasidan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 7- fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoniga asosan tasdiqlandi. Strategiya va taktika – (grekcha "qo'shinni olib boraman" va grekcha "tartibga solmoq") siyosiy hayot, siyosiy jarayon va siyosiy kurashda siyosiy partiylar, boshqa kuchlar, harakatlar, tashkilotlar ishtirok etishining nazariyasi va amaliyoti. Strateg (grekcha) – qo'shin boshlig'i, oliv bosh qo'mondon yoki davlat siyosatini oliy darajada olib boruvchi siyosiy rahbar.

Farmon 10 banddan iborat. Uning birinchi bandida quyidagi besh ustuvor yo'nalishdagi vazifalar belgilab berilgan. Ayni paytda bu vazifalarning mamlakatimizda milliy g'oyani rivojlantirish vazifalari bilan chambarchas bog'liqligini ko'rish mumkin:

► davlat va jamiyat qurilishi takomillashtirishga yunaltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyatni institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish;

► qonun usuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh kilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash;

► iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish; Liberalizm – (bu atama lotincha "liberalis" so'zidan olingan bo'lib, "erkinlik" degan ma'noni anglatadi) mafkura, ijtimoiysiyosiy harakat. U ijtimoiy imtiyozlar va avloddan-avlodga o'tuvchi hokimiyatga qarshi chiqib burjua qatlamlarining qarashlarini o'zida mujassam etadi. Asosiy tamoyillari: individualizm, erkinlik, bozor va raqobatning mutlaqligi, davlatni cheklash zarurligi (asoschilar I.Bentam, J.Mil, A.Smit, G.Spenser). Liberalizm – hozirgi davrda eng yirik va ko'p tarqalgan mafkuraviy oqimlardan biridir. Liberalizm XVII-XVIII asrda ma'rifatparvarlik davr g'oyalari negizida tarix sahnasiga chiqib kelayotgan burjuaziya sinfining mafkurasi sifatida shakllandi. Bu mafkuraning asosiy qoidalari J.Lokk, T.Gobbs, Sh.Monteske, A.Smit, T.Jefferson, D.Mil asarlarida asoslab beriladi. Liberalizmning poydevorini shaxs erkinligi, uning barcha jamiyat institutlariga nisbatan eng oliy qadriyat ekanligi, shaxsning ham o'z oldida, ham jamiyat oldida mas'ulligi barcha kishilarining o'zini-o'zi ro'yobga chiqarish huquqini tan olishligi kabi prinsiplar tashkil etadi.

► -ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'ligini saqlash tizimini takomillashtirish, xotinqizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat 47 siyosatini takomillashtirish;

► xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqr o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash.

Shu o'rinda "Harakatlar strategiyasi" dasturi belgisidagi ranglar milliy g'oyaning ustuvor tamoyillari bilan nihoyatda uyg'un ekanligini ta'kidlash zarur:

Moviy favorang – osmon va toza suv ramzi, buyuk Amir Temur davlatining bayrog'ining rangi.



Siyohrang – qonuniylik elementlari hisoblangan ustuvorlik va ornomuslilik ramzi.

Tillarang – iqtisodiyotni rivojlantirish elementlari hisoblangan kuch-qudrat va boylik ramzi.

Qizil rang – hayot va aholining munosib turmush tarzini ta'minlash ramzi.

Oq rang – tinchliksevarlik siyosati elementlari hisoblangan tinchlik va soflik ramzi.

Yana shuningdek, harakatlar strategiyasida milliy g'oyaning quyidagi milliy va umuminsoniy negizlari ham o'z ifodasini topgan:

Vatanparvarlik - barcha zamонlarda aynan istiqlol va mustaqillik davrida keng hamkorlik ma'nosini kasb etadi. Garchi vatanparvarlik axloqiy kategoriya bo'lsa-da, barcha mafkura, g'oya tur va tizimlarida faol qatnashadi.

Insonparvarlik - olamdagi jamiki narsalar inson va uning baxt saodati uchun yaratilgan. Yurtboshimiz iborasi bilan aytganda, "Insonparvarlik bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir". Shu ma'noda gumanizm, insonparvarlik mafkurani asosiy negizlaridan birini tashkil etadi.

Demokratiya - (xalq hokimiyyati) bu ko'pchilikni hokimiyat boshqaruvida o'z vakillari bilan qatnashuvidir. Baynalmilallik - (arabcha millatlararo) jahondagi barcha millat va elatlarining tenglik, hamjihatlik nazariyasini va amaliyoti.

Taraqqiyot – ravnaq, davlat yoki jamiyatni iqtisodiy siyosiy va ma'naviy sohada o'sishi, takomillashuvi.

Tinchlik - jamiyat ijtimoiy qatlamlarini va turli davlatlarni o'zaro kelishib, ichki ishlariga aralashmasdan faoliyat yuritishi.

Hamkorlik – davlat muassasalari va insonlar, davlatlarni o'zaro taraqqiyot uchun olib boradigan iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy aloqlari.

Yaratuvchanlik – mehnatsevarlik – inson bor ekan u yaratuvchilik bilan mashg'ul bo'ladi, mehnat qiladi. Mehnat ob'ektiv olamni insonlar tomonidan maqsadli o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat turidir.

Ma'rifatparvarlik – kishilarni bilimga chorlash, bilimdon, ziyorilarni qadrash jarayoni.

Erkinlik – kishilarni butun imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun lozim bo'lgan, yaratilgan muhit.

Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlar milliy va umuminsoniy negiziga asoslangan bo'lib, ularda milliy g'oyaning asosiy tamoyillari bilan mushtaraklikni kuzatish mumkin.

Harakatlar strategiyasining birinchi yo'nalishida davlat hokimiyyati tizimida Oliy Majlis rolini kuchaytirish, qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan yaxshilash, siyosiy partiyalar rolini oshirishga doir ustuvor vazifalar ko'zda tutilgani fuqarolar manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar qabul qilinishida muhim ahamiyat

kasb etadi. Ushbu tarixiy hujjat orqali davlat xizmatini isloh qilish, iqtisodiyotda davlat boshqaruvini kamaytirish, davlat va xususiy sektorlar hamkorligi zamонави shakllarini, “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish bo‘yicha ham muhim chora-tadbirlar ro‘yobga chiqarilishini alohida e’tirof etish joiz. Bular pirovardida davlat idoralari hamda xalqimiz o‘rtasida mustahkam ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi va yurtdoshlarimizga munosib turmush sharoiti yaratilishini kafolatlaydi hamda ushbu ustuvor yo‘nalishda belgilangan vazifalarning milliy g‘oyaning el yurt manfaatlarining hamma narsadan ustuvorligi tamoyili bilan uyg‘unligini amalda isbotlaydi.

Ma’muriy sudlarni, xo‘jalik sudlari tizimida mintaqaviy apellyatsiya sudlarini tuzish, sudya yordamchisi lavozimini ta’sis etish orqali sudlarni kelgusida ixtisoslashtirish hamda ularning devonini mustahkamlash choralari ham ko‘riladi.

Bundan tashqari, protsessual qonun hujjatlarini takomillashtirish, quyi instansiya sudlarining kamchiliklarini mustaqil bartaraf etish va uzil-kesil qaror qabul qilish yuzasidan yuqori sud instansiyalarining vakolatlarini kengaytirish rejalashtirilganki, bu sansalorliklarga hamda ishlarning ko‘rib chiqilishi sudlar tomonidan asossiz cho‘zib yuborilishiga barham beradi.

Huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat tartibini saqlash bo‘yicha ichki ishlar organlarining faoliyatini tubdan takomillashtirishga ham alohida e’tibor qaratiladi. Qolaversa, 2018 - 2021 yillarda jinoyat hamda jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish konsepsiysi ishlab chiqiladi.

Bu sa’y-harakatlar sudlarning chinakamiga mustaqilligini ta’minalash, umuman, huquq-tartibot organlarini takomillashtirish orqali inson huquq va manfaatlarini kafolatlash imkonini beradi. O‘z o‘rnida mazkur ustuvor yo‘nalishda ko‘zda tutilgan maqsadlar milliy g‘oyaning qonun ustuvorligini ta’minalash tamoyilidan ko‘zda tutiladigan maqsadlar bilan naqadar mushtarakligini ko‘rish mumkin.

Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish hamda liberallashtirishga oid belgilangan chora-tadbirlar ro‘yobga chiqarilishi, o‘z navbatida, mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minalash, pirovardida aholi farovonligini yuksaltirishda muhim o‘rin tutadi. Chunonchi, iqtisodiyotning ochiqligi va raqobatdoshligini oshirish, iqtisodiy mustaqillikni kuchaytirish, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish, yetakchi ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya va divyversifikatsiya qilish, moliya-bank sohasini tubdan isloh etish, tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilishga e’tibor qaratilgani diqqatga molik.

Butun xalqimiz, ayniqsa, uning eng faol qatlamaiga aylanib borayotgan tadbirkorlarni o‘ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o‘rganish, ularni

qo'llab-quvvatlash, huquq hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasida belgilangan vazifalar, shubhasiz, oilalar farovonligini ta'minlash bilan birga, yurtimiz iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu hujjatda mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish, eksportga mo'ljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xorijiy invyestorlar uchun investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, soliq ma'murchilagini yaxshilash, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari hamda mexanizmlarini joriy qilish, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish bilan bog'liq vazifalar aks etgani muhim jihatlardan biri bo'lib, uning ijrosini ta'minlash har birimizdan katta mas'uliyat talab qiladi. Albatta, bunda ijtimoiy sheriklik munosabatlaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bular mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirish orqali milliy g'oyaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan xalq farovonligini amalda ta'minlash imkonini beradi hamda xalqimizning hayotdan rozi bo'lib, baxtli-saodatli umr kechirishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Harakatlar strategiyasida belgilangan ijtimoiy sohani rivojlantirishga oid chora-tadbirlar aholi bandligini kafolatlash, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, aholining muhtoj qatlamiciga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini yaxshilash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirishda muhim o'rinni tutadi.

Harakatlar strategiyasida aholi, ayniqsa, ayollar, yoshlar bandligini ta'minlash, shu maqsadda tadbirkorlik, oilaviy biznes hamda hunarmandchilikni rivojlantirish, ayollar va qizlarning salomatligini mustahkamlash, ular orasida jismoniy tarbiya hamda sportni ommalashtirish, shuningdek, keksalar, o'zgalar parvarishiga muhtoj, urush va mehnat fronti qatnashchilari, ijtimoiy himoyaga ehtiyojmand shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq dolzarb chora-tadbirlar ham qamrab olingan. O'z navbatida, biz, xalq vakillari Strategiyada ko'zda tutilgan maqsad hamda vazifalarni aholi keng qatlamiciga yetkazishimiz, uning mazmun-mohiyatini atroflicha tushuntirishimiz zarur.

Zero, ushbu vazifalarning izchil ijrosi mamlakatimizning asosiy qonuni bo'lgan Konstitutsiyasi, eng muhimi milliy g'oyamizda ilgari surilgan "Inson manfaatlari barcha narsadan ustun" degan hayotiy tamoyilning ro'yobini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbek xalqining bag'rikengligi qadimdan yashab kelayotgan tabiiy xudud, iqlim, o'ziga xos xilma-hil tabiat bilan uzviy bog'liq. Markaziy Osiyoning o'rtasida joylashgan O'zbekiston tabiatini o'troq yashashga har tomonlama qulay va yilning to'rt fasli o'zligini to'liq namoyon etadi. Shu xudud tabiatiga xos kenglik – odamlardagi xushfe'llikni, rang-baranglik – dunyoqarashidagi mulohazalilikni, saxovatli ona

zamin – saxovatpeshalikni, shaldiroq suvlari – sofdillilikni, purviqor tog'lari – oliyhimmatlilik kabi eng muhim insoniy fazilatlarni shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. O'zbekiston tuprog'ining buyuk mo'jizasi shundaki, unda dunyoning istalgan qit'asidan bir urug' yoki ko'chat olib kelib eksangiz bexato unadi, yaxshi hosil beradi. Balki, ona tabiatimizning mana shu imkoniyatlari mamlakatimizni ko'p millatli davlatga aylantirgan va xalqimiz ruhiyatida bag'rikenglikni shakllantirgan bo'lsa ajab emas.

3. “O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiysi”ning qabul qilinishi

Konsepsiya so'zi lotincha conceptio so'zidan olingan bo'lib, majmua, tizim ma'nolarini anglatadi. Shuningdek, konsepsiya deyilganda biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarни tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar ham tushuniladi.

Keyingi mamlakatimizda muayyan sohaning kompleks rivojini nazarda tutuvchi konsepsiylar qabul qilinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti tomonidan 2010 yil 12 noyabrda e'lon qilingan “Mamlakatimizda demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi”, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi 434-son qarori bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiysi” shular jumlasidandir.

Mamlakatimizda milliy g'oyani rivojlantirish, bu boradagi targ'ibot-tashviqot ishlarining sifatini yanada yaxshilash maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2019 yil 8 apreldagi “O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi №5465 –son Farmoyishi e'lon qilindi.

Mazkur farmoyishdan so'ng “O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiysi” loyihasi tayyorlanib, umumxalq muhokamasiga qo'yilib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali”ga joylashtirildi.

Konsepsiya loyihasi muqaddima hamda “Milliy g'oya haqida umumiyl tushuncha”, “O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi”, “O'zbekistonning milliy g'oyasi”, “Bosh g'oya”, “Milliy yuksalish g'oyasining asosiy tushunchalari”, “Milliy yuksalish g'oyasining asosiy tamoyillari” deb nomlangan 6 ta bo'limdan iborat.

Konsepsiya belgilangan maqsad va vazifalarda xalqimizning butun orzu-istiklari, intilishlari o'zining ifodasini topgan. Xususan, mamlakatimizda yashovchi



turli millat va elatlar o'rtasida "Yagona Vatan tuyg'usi"ni yanada mustahkamlash, jamiyatimizning barcha jabhalarida adolat – qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq roziligidagi erishish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan javob berish, bugungi zamon talabidan kelib chiqqan holda ilm-fan, ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor qaratish, iqtisodiyotga innovatsion yondashuvni keng joriy etishga alohida ahamiyat berilgan.

Bu borada ishlar samarasini oshirish uchun oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish holatini chuqur o'rganib chiqish kerak. Ana shunda har bir oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi milliy g'oya targ'ibotchisiga aylanadi.

O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida "Milliy tiklanishdan–milliy yuksalish sari" degan ulug' maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan barcha islohotlarimizning markazida eng avvalo fuqarolarning huquq manfaatlari turganligi nihoyatda muhim voqelikdir.

Shu ma'noda Milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasida xalqimiz hayot sifatini yuksaltirish, "Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan g'oyaga qat'iy amal qilish, xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o'rni va nufuzini oshirish, onalik va bolalikni, oilani, ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning davlat va jamiyat hayotidagi faolligini oshirish, xorijda yashab tahlil olayotgan va mehnat qilayotgan vatandoshlar bilan muntazam aloqa o'rnatish, ularning o'z bilim va tajribasi, aql-zakovatini O'zbekiston ravnaqi yo'lida ishlatishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori va nufuzini oshirish kabi muhim vazifalarning alohida qayd etib o'tilgani nafaqat konsepsiyaning hayotiyligini ta'minlagan, shu bilan birga real maqsadlarning qo'yilganligi, mamlakatimiz aholisining baxtli va farovon yashashi uchun barcha imkoniyatlar ishga solinishini aniq ifodalaganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasida yana bir muhim jihat, jaholat nafaqat diniy, balki dunyoviy, dahriylik ko'rinishida ham namoyon bo'lishiga alohida ko'rsatib o'tilgan. Bu ayrim kishilar tomonidan dinni yomonotliq qilishga urinish holatlariga qarshi munosib javob bo'ladi. Darhaqiqat, Milliy g'oya bunday jaholat ko'rinishlariga qarshi ma'rifat asosida kurash olib boradi, ma'naviyat va ma'rifat masalasini O'zbekistonlik barcha sog'lom fikrli, mas'uliyatli kishilarning vijdon ishiga aylanishiga da'vat etadi.

4. Yuksalish tushunchasining mazmun mohiyati

Bugun biz mutlaqo Yangi O'zbekiston barpo etilayotgan, mamlakatimiz hayotining barcha sohalari yangilanayotgan, xalqimizni yuksalish sari yetaklayotgan Harakatlar strategiyasi samarali amalga oshirilayotgan zamonda yashayapmiz. "Yuksalish" g'oyasi qariyb o'ttiz yildan buyon mustaqil taraqqiyot yo'lidan



borayotgan O'zbekiston jamiyatining bugungi kuni, yangi taraqqiyot bosqichining maqsad-muddaolarini yaqqol va yaxlit ifodalaydi. Ayni paytda u mamlakatimizda keyingi yillarda keng quloch yoygan islohotlarning pirovard natijalariga erishishning samarali yo'llari va imkoniyatlarini ham o'zida aks ettiradi.

Ta'kidlash joizki, "yuksalish" tushunchasi falsafiy ma'noda muayyan xalq yoki davlat o'z taraqqiyotining bir davridan ikkinchi davriga o'tishi yoki jamiyatdagi umrini o'tab bo'lgan tushuncha va tamoyillar, amaliy faoliyat mezonlari, ba'zi tartib-qoidalar hamda eskirgan ijtimoiy munosabatlarning tayanch paradigmalarini zamonaviy talablar asosida isloh etish va rivojlanishning yangi bosqichiga erishish jarayonini ifodalaydi. Insoniyatning ko'p asrlik tajribasiga ko'ra, har bir mamlakatning bu jahhada tanlagan islohotlar strategiyasi o'ziga xos bo'lib, boshqa bir davlatning yuksalishi uchun aynan mos kelmaydi.

Ayni paytda, ushbu sohada ham umumiylar qonuniyatlar, asosiy paradigmalar va ustuvor tamoyillar shakllangan. Shu ma'noda qadimgi dunyoning dono faylasuflaridan biri Konfutsiyning "Yuksalish – ezgu maqsad, barqarorlik – unga erishishning shart-sharoiti, islohotlar esa uni ta'minlashning asosiy vositasidir" degan fikri har qanday yangi taraqqiyot davriga o'tishning mazmun-mohiyatini lo'nda ifodalaydi.

"Yuksalish" tushunchasiga bir qator iboralarni qo'shib ishlatish tajribasi ham bor. "Iqtisodiy yuksalish", "Ijtimoiy yuksalish", "Ma'naviy yuksalish", "Madaniy yuksalish" kabilar ana shu asosda shakllangan. Masalan, Fransiya, Germaniya, Shvesiya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning II Jahon urushidan keyingi rivojlanishi uchun asos bo'lgan va XX asr o'rtalaridan boshlangan taraqqiyot strategiyalarida iqtisodiy yuksalish masalalariga ko'proq e'tibor qaratilgani ma'lum.

Xorijiy ekspertlar fikriga ko'ra, "yuksalish" tushunchasiga "milliy" iborasi qo'shib ishlatilganida muayyan xalq yoki biror davlatning o'ziga xos xususiyatlari asosida rivojlanayotgani anglashiladi. Farqlash lozimki, milliy biqiqlik va milliy mahdudlikning natijasi bo'lgan "proteksionizm" va "izolyatsionizm" bilan bog'liq g'oyalar esa muayyan mamlakatning o'z qobig'iga o'ralgani hamda tashqi dunyodan ajralib qolganini bildiradi.

Prezident Shavkat Mirziyoevning ma'ruzalarini chuqur o'rganish orqali shunday xulosaga kelish mumkinki, bugun mamlakatimizda "Yuksalish" g'oyasi aholining barcha qatlamlari, hamma siyosiy partiyalar, davlat va nodavlat tashkilotlarning umumiylar manfaatlari va mushtarak maqsadlarini ifodalamoqda. Bu g'oya yurtimizda yashayotgan barcha kishilarning ezgu maqsad-muddaolarini aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi, "Insonlarning dardu tashvishlarini o'ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir", "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak", "Odilona qonunlarni qabul qilish, jamiyatda qonunga hurmat ruhini

qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir”, “Xalqimiz o‘z hayotida ijobiy o‘zgarishlarni ertaga emas, uzoq kelajakda emas, aynan bugun ko‘rishi kerak”, “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” kabi hikmatlarda “Yuksalish” g‘oyasi tayanch paradigmalarining mazmun-mohiyati o‘z ifodasini topgan. Ular jamiyatimiz hayoti, xalqimiz qalbi va ongidan chuqur joy oldi, butun mamlakatimiz, barcha soha va tarmoqlarda amalga oshirilayotgan islohotlarni harakatlantiruvchi kuchga, ta’bir joiz bo‘lsa, g‘oyaviy o‘zagi va ma’naviy tayanchiga aylandi. Bunday tarixiy o‘zgarishlar silsilasida xalq bilan muloqot qilish, murojaatlar bilan ishslash bo‘yicha tamomila yangi tizimga asos solingani va buning xalqaro miqyosda noyob tuzilma sifatida keng e’tirof etilayotgani esa ushbu jarayonning samarali amalga oshayotganidan dalolat beradi.

Bu borada dunyoning ba’zi xalqlari va mamlakatlari hayotida yaxshi samara berayotgan tajribalar ham bor. Masalan, Xitoyda Den Syaopin 1978 yildan boshlab “islohotlar hamda ochiqlik” siyosatini joriy qilgani ma’lum. Unga ko‘ra, tashqi hamkorlarga nisbatan “ochiq eshiklar siyosati” tamoyili, iqtisodiyotni liberallashtirish, valyutaning erkin konvertatsiyasi hamda maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish iqtisodiyotni rivojlantirishning tamal toshi bo‘lgan edi. Mazkur mamlakatning o‘ziga xos taraqqiyot strategiyasi va yangilanish tamoyillari keyingi o‘ttiz yil davomida Xitoyda yalpi ichki mahsulotning ikki xonali raqamlarda o‘sishiga imkon berdi, uni dunyoning eng qudratli va boy mamlakatlaridan biriga aylantirdi.

Davlatimiz rahbarining BMT Bosh assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqida alohida ta’kidlangan “Bugungi kunda O‘zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an’analariga amal qilib, teran anglagan holda, qat’iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo‘lidan bormoqdamiz. Jamiyatimizda siyosiy faoliik ortib bormoqda, barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko‘zlangan maqsad – “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat”, degan fikr ham “Yuksalish” g‘oyasi tayanch tamoyillarining xalqaro maydonidagi yaqqol ifodasidir.

5. “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” g‘oyasi. Milliy yuksalish g‘oyasining asosiy tushunchalari

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va yangilanishlar jarayonida milliy g‘oyani rivojlantirish kun tartibidagi dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlarining salbiy oqibatlari, yangi mafkuraviy xavf va tahdidlar ko‘lamining kengayib borayotgani mazqur masalaning

ahamiyatini yanada oshirmoqda. Bu jarayonda quyidagilarga alohida ahamiyat berish talab etilmoqda:

birinchidan, mamlakatimizni bugungi tez taraqqiy etib borayotgan dunyoga mos ravishda rivojlantirish, jamiyat a'zolarini milliy yuksalish yo'lida yanada birlashtirish va safarbar etish masalasiga alohida e'tibor qaratish;

ikkinchidan, mamlakat tinchligi, xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy qadriyatlariga asoslangan hayot tarzini barbod qilishga yo'naltirilgan g'oyaviy-mafkuraviy taxdidlarga qarshi kurashda sinovdan o'tgan milliy va jahon tajribasining samarali usullaridan keng foydalanish;

uchinchidan, dunyoda yuz berayotgan geosiyosi va mafkuraviy jarayonlar, turli axborot xurujlari mazmun-mohiyatini anglash, xalqaro terrorizm va ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik va odam savdosi, narkobiznes, "ommaviy madaniyat" kabi turli xavf va tahdidlarga qarshi kurashishda kuchlarni birlashtirish va ularni umummilliy harakat darajasiga olib chiqish;

to'rtinchidan, dunyoviylik va diniylikning sog'lom muvozanatini ta'minlash, insof, vijdon, diyonat kabi axloqiy qadriyatlarga tayanib yashash va faoliyat yuritishni fuqarolarning dunyoqarashi va xatti-harakatiga singdirish;

beshinchidan, O'zbekiston ko'p millatli bag'rikeng diyor ekanini inobatga olgan holda, "Milliy g'oya-bizning g'oya" degan tushunchani barcha millat va elat vakillari o'rtasida keng targ'ib etish;

oltinchidan, vatanparvarlik tuyg'usini quchaytirish, aholining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy faolligi va fuqarolik mas'uliyatini oshirish;

yettinchidan, inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim va tarbiyani milliy g'oya qadriyatlari darajasiga ko'tarish, ta'lim olishga bo'lgan intilishni rag'batlantirishning samarali mexanizmlarini joriy etish.

Milliy g'oya inson, xalq va jamiyat hayotiga chuqur kirib boradigan ta'sirchan omil sifatida jamiyatning bosh maqsadini ifoda etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida **milliy tiklanishdan–milliy yuksalish** sari degan ulug' maqsad bosh g'oya sifatida maydonga chiqmoqda.

Milliy yuksalish g'oyasining **asosiy vazifalari**:

O'zbekistonni 2030 yilgacha dunyodagi 50 ta rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirishiga erishish;

- hayot sifatining yuqori darajasini ta'minlashga qodir iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish orqali odamlarning hayot darajasini tubdan oshirishga erishish;

xalq manfaatlari va adolat tamoyillari ustunligini ta'minlashda "**Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralarini xalqqa xizmat qilishi kerak**" degan g'oyaga qat'iy amal qilish;

-jamiyatda millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglikning g'oyaviy asoslarini mustahkamlash, O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning tili, dini,

milliy urf-odat va qadriyatlarini saqlash va rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

-xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o'rni va nufuzini oshirish, onalik va bolalikni, oilani, ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning davlat va jamiyat hayotidagi faolligini oshirish;

-buyuk allomalar, aziz-avliyolar beba ho merosini, atoqli davlat va jamoat arboblari, yengilmas sarkardalar, zamondoshlarimiz jasoratini yoshlarga yetkazish, ularning qalbida vatanga sadoqat, milliy g'ypyp va iftixor tuyg'ularini quchaytirish;

-xalqimizni birlashtiradigan, jamiyatimizni ulug' maqsadlar sari safarbar etadigan, milliy ma'naviyatimizning bitmas-tuganmas boyligi bo'lgan o'zbek tilini hayotimizdagagi o'rni va nufuzini oshirish;

-yangicha va mustaqil fikrlaydigan, mas'uliyatli, tashabbuskor, ilg'or boshqaruv usullarini puxta o'zlashtirgan, vatanparvar, yuqori malakali, halol va sadoqatli kadrlarni tanlash va tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratish;

-ta'lim-tarbiya jarayonlarini taraqqiyotning bosh omili darajasiga qo'tarish, uzuksiz ta'lim-tarbiya tizimini milliy g'oyaga muvofiq takomillashtirib borish, tarbiyaning ta'lim standartlarini yaratish;

-ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida yuksak salohiyatli, yangicha va mustaqil fikrlaydigan, O'zbekistonning ertangi taqdirini o'z qo'liga olishga qodir yoshlarni tarbiyalash, bu borada innovatsion yondashuvni keng joriy etish;

-xorijda yashab tahsil olayotgan va mehnat qilayotgan vatandoshlar bilan muntazam aloqa o'rnatish, ularning o'z bilim va tajribasi, aql-zakovatini O'zbekiston ravnaqi yulida ishlatishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

-O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori va nufuzini oshirish.

Milliy yuksalish g'oyasining asosiy tushunchalari

Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari degan ulug' maqsad davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini kompleks rivojlantirishni nazarda tutadi. Milliy g'oyaning asosiy tushuncha va tamoyillari O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning bosh g'oyasidan kelib chiqadi va uni to'ldirib, boyitib boradi hamda xalqimiz qalbi va ongiga yanada chuqur singdirishga xizmat qiladi.

Yagona Vatan tuyg'usi

Inson qaerda yashamasin, yagona Vatan tuyg'usi uni o'z muqaddas zamini bilan bog'lab turadi. Ma'naviy barkamol inson doimo yurtining bugungi va ertangi taraqqiyoti haqida o'ylaydi, uning oldidagi farzandlik burchini ado etishga intiladi.

Shu bois ham O'zbekistonliklarning bilim va tajribasi, aql-zakovati, iste'dodini Vatan ravnaqi yo'lida birlashtirish, ularning orzu umidlari ro'yobi sanalgan milliy g'oyani amalga oshirish yo'lidagi intilishlarni umummilliy harakatga aylantirish dolzarb vazifa sanaladi.



Bu jarayonda Vatan ravnaqining muhim manbai bo'lgan millatlararo totuvlik va dinlararo bagrikenglik tamoyillarini yanada mustahkamlash asosida mamlakatdagi 130 dan ziyod turli millat va elat vakillari o'rta sidagi munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarish muhim o'rin tutadi.

Adolat - qonun ustuvorligida

Barcha sohada adolat va qonun ustuvor bo'lsagina jamiyatda tom ma'nodagi erkinlik hamda demokratiya, yuksak ma'naviyat, sog'lom turmush tarzi qaror topadi. Shu bois, ulug' ajdodlarimiz adolatli davlat va jamiyat qurishni orzu qilib, uning huquqiy va ilmiy-falsafiy asoslariga doir ta'limotlar yaratgan.

Jamiyat hayotida adolatni qaror toptirishda "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi **kerak**" degan g'oyaga qat'iy amal qilib, odamlarning dardini eshitish, ular bilan ochiq muloqotda bo'lish, og'irini yengil qilishga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu muloqotlar orqali oddiy fuqarolarda davlatga, uning idoralariga bo'lgan ishonch mustahkamlanadi, ular o'zlarining davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etayotganini, xuquqiy-demokratik davlatda yashayotganligini chuqur his etib, ulkan bunyodkor kuchga aylanadi.

Xalq roziligi

Inson qadr-qimmatini ko'tarish, uning o'z hayoti va taqdirining haqiqiy egasi deb his etishi, moddiy va ma'naviy jihatdan to'kis yashashi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish, xalqning roziligiga erishish milliy g'oyaning muhim vazifasi hisoblanadi. Yurtimizda qabul qilinayotgan qo'plab ijtimoiy dasturlardan ko'zda tutilgan maqsad ham shunda.

O'zbekistonning zamонавији qiyofasi, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, madaniy-gumanitar taraqqiyoti, bir so'z bilan aytganda, milliy yuksalish darajasi avvalo xalqimizning o'z bunyodkorlik salohiyati, orzu-umidlarini ruyobga chiqarish uchun yaratib beriladigan shart-sharoit va imkoniyatlarga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida amalga oshirilayotgan xalqchil va insonparvar siyosat bu borada oldimizda turgan ylyg'vop vazifalarni amalga oshirishda dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Jaholatga qarshi ma'rifat

Jaholat nafaqat diniy shaqlida, balki dunyoviy, dahriyliq ko'rinishida ham namoyon bo'ladi. Milliy g'oya bunday jaholat ko'rinishlariga qarshi ma'rifat asosida kurash olib boradi, ma'naviyat va ma'rifat masalasini O'zbekistonlik barcha sog'lom fikrli, mas'uliyatli kishilarning vijdon ishiga aylanishiga da'vat etadi.

Bunda avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlash, savodsizlik va jaholatga bahdam berish

maqsadida qabul qilingan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyusiya asos bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lismi va ma'rifati bashariyat farovonligining asosiy omili hisoblanadi. Shu bois inson ma'naviy olami, xalqimiz madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrabavaylash va boyitish bugungi kunda har qachongidan ham muhimdir. Bu borada milliy g'oya yurtimiz zaminidan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarimizning bebaho ilmiy-ma'naviy merosiga, xalqimizning boy tarixi va madaniyatiga, jahon ilm-fani yutuqlari va umumbashariy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi.

Innovatsion taraqqiyot

O'zbekiston – ulkan tabiiy zahiralar, iqtisodiy va insoniy salohiyatga boy mamlakat. Shuning uchun **milliy tiklanishdan** – **milliy yuksalish** sari borishda iqtisodiyotni, butun mamlakatni innovatsion asosda rivojlantirish muhim rol uynaydi.

Bugungi kunda dunyoda innovatsion g'oyasiz, ilm-fan yutuqlarisiz biror-bir soha rivojini tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbekistonning eng katta boyligi – bu xalqning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir.

O'rta asrlar oralig'ida yurtimiz xududidan yetishib chiqqan ulug' alloma va mutafakkirlar jahon ilm-faniga, butun insoniyat tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan.

Xususan, **IX-XII** va **XIV-XV** asrlarda ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobjiy ta'sir ko'rsatgan Sharq Uyg'onish davri –Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan.

Shu bois ham, innovatsion taraqqiyot bilan xalqimizning an'anaviy milliy turmush tarzi o'rtasida o'ziga xos uyg'unlikni ta'minlash orqali O'zbekistonga xos milliy taraqqiyot modelini yaratish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Milliy yuksalish g'oyasi xalqimizning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatini ro'yobga chiqarib, O'zbekistonning yangi tarixida uchinchi renessans davrining boshlanishiga xizmat qiladi.

Milliy yuksalish g'oyasining asosiy tamoyillari

Milliy yuksalish g'oyasining asosiy tamoyillari uning ilmiy jihatdan asoslangani va muntazamligi, ochiqlik va bag'rikenglik, tarixiylik va zamonaviylik, universallik va moslashuvchanlik qabi xususiyatlarga ega ekanligi bilan ifodalanadi va quyidagilarda o'z aksini topadi:

- millati, tili va dinidan qat'iy nazar, O'zbekistonning barcha fuqarolari manfaatlari va orzu-intilishlarini aks ettirish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni ta'minlash;

- qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklarini eng oliy qadriyat darajasiga ko'tarish;
- oshkorlik va fikrlar xilma-xilligiga rioya etish;
- shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari hamda mas'uliyati uyg'unligiga erishish;
- farovon hayot barpo etishga qaratilgan iqtisodiy omillar samaradorligini oshirish;
- milliy yuksalish g'oyasini umummiliy harakatga aylantirish.

Nazorat savollari

1. “Ikkinchi jahon urishi davrida fashistlar bosib olgan qaysi mamlakatda “qarshilik ko'rsatish” milliy g'oya darajasiga ko'tarilgan?
2. U yoki bu g'oyaning milliy g'oya sifatida maydonga chiqishi nima bilan bevosita bog'liq?
3. Milliy mafkuraning oliy maqsadini izohlang...
4. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlarini sanab o'ting...
5. Strategiya va taktika tshunchalari qanday ma'nolarni anglatadi?
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 7-fevraldag'i “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni necha banddan iborat?

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasidgi nutqi. 2020 yil, 23 sentyabr.// <https://www.gazeta.uz/uz/2020/09/23/bmt/>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi//Xalq so'zi, 2020 yil 25 yanvar.
4. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.// Toshkent, Xalq so'zi, 2019 yil. 4 may. № 78.
5. 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6- son, 70-modda.

6. Shavkat Mirziyoevning 2019 yil 8 apreldagi “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi №5465–son Farmoyishi//Xalq so‘zi, 2019 yil, 9 aprel.
7. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiysi” loyihasi // <https://regulation.gov.uz/uz/document/10558>.
8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
9. Otamurodov S. Milliy g‘oya - milliy tiklanish manbai. – “Tarix, mustaqillik, milliy g‘oya”. -T.: Akademiya, 2000.
10. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
11. Tohiriyon A., Sobirova M., Zamonov Z. Milliy g‘oya turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitishda interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. – T.: RTM, 2017.
12. Erkaev A. Ma’naviyatshunoslik. Monografiya. 1-kitob. – T.: Ma’naviyat, 2019.
13. Erkaev A. Uchinchi Renessans – milliy g‘oya sifatida. //Xalq so‘zi, 2020 yil, 8-sentyabr.

3-mavzu. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY G‘OYA VA MA’NAVIYAT ASOSLARI TURKUMIDAGI FANLARNI O‘QITISHGA QO‘YILAYOTGAN TALABLAR

Reja:

1. “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishidagi fanlarni o‘qitishning o‘ziga xosliklari.
2. Milliy g‘oya va ma’naviyat turkumidagi fanlar va ularni o‘qitishning bugungi holati, yechimini kutayogan muammolar.
3. Globallashuv sharoitida milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o‘qitishga qo‘yilayotgan talablar.
4. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi va g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish imkoniyatlarining kengayishi, uslub va vositalarining takomillashuvi, yangi texnik va texnologik tizimlarning yuzaga kelishi.
5. Talabalar o‘rtasida milliy mustaqillik g‘oyalari asosida ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish prinsiplari.

Tayanch tushunchalar: Milliy g‘oya, o‘zlikni anglash, milliy o‘z-o‘zini anglash, shaxs tarbiyasi, milliy g‘oya va ma’naviyat turkumidagi fanlarni o‘qitishning bugungi holati, globallashuv, mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi, g‘oyaviy ta’sir, g‘oyaviy ta’sir imkoniyatlari, uslub va vositalar, yangi texnik va texnologik



tizimlar, ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlar, talabalar o'rtaida ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish.

1.“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” yo'nalishidagi fanlarni o'qitishning o'ziga xosliklari

“Milliy g'oya va ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlar va huquq ta'limi” yo'nalishidagi fanlarni o'qitishning o'ziga xosliklari shundaki, **milliy g'oya** – muayyan millat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari-yetaklaydigan fikrlar majmui. U millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtiradi, uning tub manfaatlarini, maqsadlarini ifodalaydi. Milliy g'oya o'z mohiyatiga ko'ra, xalq, millat taqdiriga daxldor bo'lган, qisqa yoki uzoq muddatda hal etilishi kerak bo'lган vazifalar va mo'ljallarni ham aks ettiradi. Milliy g'oya millatning milliy o'zligini anglash bilan chambarchas bog'liqdir.

Milliy o'z-o'zini anglash - har bir millat (elat)ning o'zini haqiqiy mavjud sub'ekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalovchi ekanligini, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetishiga milliy o'z-o'zini anglash deyiladi.

Milliy o'z-o'zini anglash millat shakllanishining nisbiy yuqori bosqichi mezonidir. Millat o'ziga xos bo'lган urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarni shakllantirishi va yagona davlat asosida birlashishi mumkin. Yuqorida ta'kidlangan xususiyatlar shakllanmas ekan, mamlakat iqtisodiy rivojlanishi jumladan intellektual salohiyati rivojlanishi mumkin emas. Ammo uning millat sifatida o'z-o'zini anglashi yanada murakkabroq jarayon hisoblanadi. Chunki millatning aksariyat ko'pchiligining yagona moddiy va ma'naviy boyliklarga egaligi hissiyotining shakllanishi, o'zining juz'iy manfaatlaridan umummilliyl manfaatlarni ustuvor qo'ya bilish hissi juda sekinlik bilan namoyon bo'ladi.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimov bayon etishicha, “O'zlikni anglash deganda men tarixiy xotirani tiklash, nasl-nasabimiz kim ekanini, kimlarning vorisi ekanligimizni anglab yetishni, shundan kelib chiqib, o'zimizga xos va mos jamiyat barpo etishni tushunaman”³³.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatni asoslarini shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini yanada demokratlashtirish, avvalo, har bir fuqaroning va butun jamiyatning oliy maqsadlarini o'zida mujassam etgan milliy g'oya atrofida uyushish, millatning ajralmas qismi ekanligini anglab yetishga ham bog'liq. Mamlakatimiz birinchi Prezidentining fikricha, «Chinakam insoniy fazilatlarga ega bo'lган... odam demokratik ne'matlarning oddiy iste'molchisi emas, balki ularning

³³ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: O'zbekiston, 1999, 132-154-betlar.



faol yaratuvchisi va himoyachisiga aylanadi... Shundagina inson o‘z mamlakatining tom ma’nodagi munosib fuqarosi bo‘la oladi»³⁴.

Mustaqillik tufayli bir tizimdan ikkinchi tizimga o‘tish davrida o‘zlikni anglashning o‘ziga xos ko‘rinishlarini anglamasdan ma’naviy yuksalish va taraqqiyot darajasini anglab bo‘lmaydi. Yuksak rivojlangan jamiyat esa o‘zligini anglagan shaxslardan tarkib topadi. O‘zligini anglagan yoki anglay boshlagan kishigina shaxs darajasiga ko‘tariladi. Demak, o‘zlikni anglash, avvalo, har bir insonning shaxsi, intellektual salohiyati, alohida «meni» bilan bog‘liq. Hadisda aytilganidek, «Kimki o‘zligini tanisa, robbini taniydi».

Milliy o‘z-o‘zini anglash millatning moddiy hamda ma’naviy manfaatlarini himoya qiluvchi va rivojlantiruvchi omil hisoblanadi. U faqat milliy manfaatlarni himoya qilish bilan cheklanmaydi, u millatni «harakat»ga keltiradi va birlashtirib turadi. Xususan, millat taraqqiyoti jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarda yuzaga keladigan muammo-larni hal qilishda milliy o‘z-o‘zini anglash omili millatni jipslashtiradi va uni umummaqsadlar yo‘lida harakatga keltiradi. U har qanday millat uchun zarur asosiy o‘ziga xos belgilari tizimida yetakchi o‘rinni egallaydi. Milliy o‘z-o‘zini anglash millat abadiyligini ta’minlashning eng muhim omilidir. Chunki bu salohiyat millatning o‘ziga xosligini va manfaatlarini himoya qilib turadi. Xitoy faylasufi Shan Yan (mil.avv. 390-338) fikricha, “Nodon xalqni boshqarish oson. Tentak odamlarni og‘ir mehnatga majburlash oson. Aqli kishilarni esa mashaqqatli mehnatga jalb etish mushkuldir”.

O‘zbek millati taraqqiyotida milliy o‘z-o‘zini anglash jarayoni chor imperiyasi o‘lkamizni bosib olgandan so‘ng o‘z mustaqilligimiz uchun kurash-larda, sho‘rolar tizimi sharoitida o‘zligimizni saqlab qolish uchun bo‘lgan harakatlarda namoyon bo‘lib keldi. Mustaqillikni qo‘lga kiritganimizdan keyin milliy o‘zligimizni anglash ikki yo‘nalishda:

1. Sobiq sho‘rolar davrida toptalgan urf-odatlarini, qadr-qimmatini, qadriyatlarini tiklash va ma’naviy merosimizni o‘zlashtirishga bo‘lgan harakatlarda.

2. Adolat, demokratiya va huquq ustuvorligiga asoslangan jamiyat qurish bilan bog‘liq bo‘lgan islohotlarni o‘tkazish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni hal qilishdagi umummilliy harakatlarda namoyon bo‘lmoqda.

Milliy o‘z-o‘zini anglash u yoki bu millatni o‘zga millatlardan ajralib ketishiga olib kelmaydi, balki o‘zligini anglagan millatlarning ma’rifatlashgan hamkorliklarining mustahkamlanib borishiga xizmat qiladi. Shuning uchun mustaqillik sharoitida o‘zbek xalqining o‘z-o‘zini anglashini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgandir. O‘zbek millatida o‘z-o‘zini anglash hissini mustahkamlash va rivojlantirish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

³⁴ Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. T.11. – T.: O‘zbekiston, 2003, 34-bet



Axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali ta'lif samaradorligini oshirish, o'quv muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash - bugungi kunda ta'lif bosqichlarida milliy g'oya va ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishning dolzarb masalalaridandir.

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlar eng avvalo yangicha fikrlaydigan alohida shaxs tarbiyasiga yo'naltirilishi lozim. Chunki, har qanday g'oya eng avvalo individual ongdan boshlanadi. Yangicha fikrlaydigan fozil inson, eng avvalo, fuqarolik burchini his etadigan shaxs bo'lishi darkor. Demokratik jamiyat qurish uchun, demokratik tamoyillarni to'la qaror toptirish uchun, eng avvalo, shu mo'tabar zaminda tavallud va tarbiya topgan shaxs, o'zini aynan shu yurt farzandi deb bilguvchi inson o'z davlati, o'z xalqi oldidagi, uni katta umidlar bilan tarbiya etgan, voyaga yetkazgan jamiyat oldidagi burchini ado etishi kerak. Bu gap menga ham, sizga ham – barchamizga biday tegishlidir!

Sodda qilib aytganda, har qaysi fuqaro, har birimiz: "Shu davlat, shu jamiyat menga nima berdi?" deb emas, balki: "Men o'zim Vatanimga, elu yurtimga nima berdim?" deb o'yashimiz va shu aqida bilan yashashimiz kerak³⁵.

Nega milliy ong, milliy g'urur, milliy mafkura haqida jon kuydirib gapiramiz? Buning sababi shuki, biz O'zbekistonimizni buyuk davlatlar qatoriga qo'shishga ahdu paymon qildik. Bolalarimizni, yigit-qizlarimizni shu g'oyaga qattiq ishonadigan buyuk davlat fuqarolari, buyuk davlatga munosib farzandlar etib tarbiyalashimiz lozim³⁶.

Aslida ontologik jihatdan g'oya va mafkura sub'ektiv reallik hodisalari sifatida muayyan narsa-hodisa, jarayon-voqelikning bizning ongimizdan tashqarida mavjud ekanligini ifodalovchi mazmunga ega. Faqat uni qalban anglash zarur.

Bugungi kunda milliy g'oya va ma'naviyat turkumidagi fanlarni zamonaviy talablar asosida o'qitishda eng avvalo yoshlar ongi va shuuriga ana shu fazilatlarni singdirishga, ma'naviyatli avlod tarbiyasiga e'tibor qaratish zarur. Chunki, "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ta'kidlanganidek, "ma'naviyat" tushunchasi jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida to'la mujassam etadi".

Ma'lumki, milliy g'oya va ma'naviyat turkumidagi fanlarning ta'lif-tarbiyaviy vazifalarini nazariy va amaliy bilimlar tizimi asosidagina hal etishi mumkin.

Bu ilmiy dunyoqarash, psixologiya, pedagogika, didaktika, falsafa, demokratik jamiyat qurish, milliy g'oya va ma'naviyat turkumidagi fanlarni o'qitish nazariyasi, didaktikasini o'z ichiga oladi. Biroq birgina nazariy bilimlarning o'zi yetarli emas. O'qitishning ma'lum mazmuni va o'qituvchilarning aqliy faoliyati saviyasi bilan

³⁵ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. II jild. – T.: O'zbekiston, 1996,110-b

³⁶ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. II jild. – T.: O'zbekiston, 1996,226-b.

ta'sirlanadigan u yoki buo'quv yo'nalishi uchun eng yaroqli usullarini va qo'llay bilish darsga tayyorlanishda yoki darsning o'zida yuzaga keladigan aniq metodik vazifalarni xal etishni bilishi zarur.

2. Milliy g'oya va ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlar va ularni o'qitishning bugungi holati, yechimini kutayogan muammolar

Bugungi kunda "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining umumkasbiy va ixtisoslik fanlari blokiga "Milliy g'oya, ma'naviyatning pedagogik asoslari", "Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari", "Etnomadaniyat", "Globallashuv asoslari", "Geosiyosat asoslari", "Ma'naviyatshunoslik", "Milliy g'oya tarixi va nazariyasi", "Ijtimoiy hayot va din", "Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari", "Jahon siyosiy -mafkuraviy ta'limrotlar tarixi", "Milliy taraqqiyotning g'oyaviy asoslari" kabi milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlar kiritilgan bo'lib, bu fanlarni o'qitish bugungi kunda har bir o'qituvchidan chuqur bilim, teran tafakkur va mushohadani, yangiliklar va zamon talablariga moslashuvni hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish mahoratini talab etadi.

Milliy g'oya va ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitish jarayonida har bir pedagog o'quv yurtining spesifik xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik faoliyatini talabalar jamoasining umumiyligi tayyorlarligiga individual va differensial yondoshgan holda tashkil etmog'i va amalga oshirib bormog'i lozim. Yoshlarimizda milliy g'oya va milliy mafkura tushunchalarini faol shakllantirib borish shubhasiz ularning g'oyaviy-siyosiy kamolotlarida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida darsning o'rni va ahamiyati mutlaqo boshqacha. Har holda qadimgi didaktika mutaxassislari bir soatlik darsni yaxshi bir asar deyishgani bejiz emas. Talaba uchun u yangi bilim va ma'lumotlar olishning eng asosiy va bitmas-tuganmas qaynar bulog'idir. Dars faqat bilim olishning manbaigina emas. Ayni mana shu pedagogik jarayon davomida talaba bilim olishga oid ko'nikma va malakalar tizimiga ega bo'lib boradi. O'zining dunyoqarashini kengaytiradi. Shu jarayonda uning o'zini va o'zligini ko'rsatish uchun muhim ijtimoiy-pedagogik sharoit hozirlanadi. Demak, u shaxs sifatida shakllana boshlaydi. Ushbu holatlar o'qituvchi zimmasiga juda katta burch va mas'uliyatni yuklaydi. U kelajakda shu jamiyatning barcha talablariga mos va munosib bo'lib o'sishi kerak bo'lgan yosh avlod taqdirida eng muhim rolni ado etadi.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya jarayonini qayta qurish, takomillashtirish va rivojlantirish jarayoni uzluksiz va muntazam tarzda davom etmoqda. Bularning orasida dars va uni tashkil etish, uning samaradorlik darajasini oshirish, darsni talaba

uchun eng qiziqarli, foydali hamda o'zligini namoyon etadigan eng muhim vositalardan biriga aylantirish singari masalalar mavjud.

Bunga qanday erishiladi? Uning siru asrорlari nimalardan iborat?

Buning birinchi va eng asosiy sharti o'qituvchi shaxsi bilan bog'liq. Toki o'qituvchi har doimgidek mohir tashkilotchi, bilimdon yetakchi, mehribon ustoz, bilimlarni o'z vaqtida tegishli shaklda yetkazib beruvchi asosiy manba, shakl va usullar tizimining egallanishiga mos va munosib yo'lni ko'rsatib beruvchi yo'lboshchi, talabaning asosiy tayanchi va maslahatgo'yи bo'lmas ekan ta'lim-tarbiya jarayoniga oid muvaffaqiyat va yutuqlar haqida gapirish ortiqcha bo'ladi. Xalqimizda bir maqolning ikki xil shakli ommalashgan. Ulardan birida "Ustoz – otangdan ulug‘”, boshqasida “Ustoz – otangdek ulug‘” deyiladi. Ularning har biri o'ziga xos talqinga ega.

Ko'pincha o'qituvchini artistga o'xshatishadi. Bu to'g'ri gap. Ammo o'qituvchi artistga o'xshaydi degani uning artist bo'lishi kerak degani emas. Mashhur kashfiyotchi o'qituvchi Ilin shunday deydi: "Artistlarga o'xshashdan cho'chimang. Biz o'zimizni namoyish etmaymiz. Biz o'zimizni bag'ishlaymiz. Dars degan ijtimoiylik, ommaviylik, oshkorlik va insoniylik saboqlaridir".

Bugun ta'lim muassasalari oldidagi asosiy vazifa barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat. Barkamol avlod qirralarining asosiylari esa globallashuv jarayonidagi ijtimoiyma'naviy muhitda erkin harakatlana olish, raqobatbardoshlik muhitida o'zini yo'qotmaslik, aksincha, jamiyatdan o'zining munosib o'rmini topa bilih, ma'naviy jihatdan yuksak maqomni egallah, shu yo'l bilan o'zligini ko'rsatish va jamiyatga tegishli tarzda naf keltirishdan iboratdir.

Bola shaxsining shakllanishida dars asosiy o'rin tutar ekan, demak, mana shu dars jarayonini intensivlashtirish ham asosiy o'rin tutadi. Bu nima degani? Buning oddiy va soddagina talqini shundan iboratki, dars talabalarni fikrlaydigan, chuqr mushohada qiladigan, o'quv jarayoniga nisbatan qiziqishlarini oshiradigan, ulardagi mustaqil va ijodiy ishslash ruhini shakllantiradigan jarayonga aylanishi lozim.

Buning uchun esa darsning barcha tarkibiy qismlari orasidagi aloqadorlik kuchaytirilishi, xususan, uning shakl va metodlaridan boshlab tashkiliy shakllari, uning talaba shaxsini faollashtirishga yo'naltiradigan jihatlarigacha e'tiborda tutilishi kerak. Bilimlarni tayyor holda berish tamoyili o'rniga talabaning o'zi mana shu bilimlarni egallahga intiladigan sharoitni yaratish, samara beradigan yangiliklar tizimini munosib tarzda shakllantirish bu yo'ldagi asosiy vazifalarimizdan biridir.

Dars: uning an'anaviy va noan'anaviy shakllari

Hozirgi ta'lim-tarbiya jarayonidagi eng asosiy shakl darsdir. U an'ana tarzida bugun ham o'z nufuzini pasaytirgani yo'q. Faqat uning mazmunida jiddiy yangilanishlar bo'layotganini hech kim inkor eta olmaydi. Ma'lumki, darsga qo'yiladigan umumdidaktik hamda har bir fanning o'z xususiyatlaridan kelib



chiqadigan talablari mavjud. Ularni umumpedagogik, metodik, psixologik, adabiy va lisoniy talablar tarzida guruhlashtirish mumkin. Milliy g'oya va ma'naviyat darslarining shakl, ko'rinishlari ham nihoyatda xilma-xillashib borayotgani ob'ektiv jarayon sifatida e'tirof etiladi. Mana shu holatning o'ziyoq ularga tayyorgarlik ko'rishning ham o'ziga xos xususiyatlari borligini nazarda tutadi.

Zamonaviy yangi shakl va usullar, dars tiplari osmondan tushgani yo'q. Ularning asosiy qismi an'anaviy dars shakllarining zamonaviylashtirilishi, ularga yangilik elementlarining ko'proq kiritilishi, eng muhimi esa ularning maqsadga muvofiq tarzagi yangilanishlari bilan aloqador. Ilgari ham darslarga, ularning tarkibiy qismlariga ayrim o'zgarish va qo'shimchalarni kiritishga, ularning mazmunini boyitishga bo'lgan urinishlar bo'lgan edi. Buni inkor etish o'rinli bo'lmaydi. Shunga qaramay, bu urinishlarning muntazam bo'limganini, ko'proq tasodifiylikka asslanganligini, muayyan tizim shakliga kiritilmaganini, maqsad va vazifalar bilan yangilik mazmunining uyg'unlashmaganini ham e'tirof etishga to'g'ri keladi.

An'anaviy darslarning ham, noan'anaviy darslarning ham asl o'zagini, tub mohiyatini uning maqsadi tashkil etadi. Maqsadning dars tipiga, shakliga, tarkibiy qismlari orasidagi bog'lanishlarning zichligi va mustahkamligiga mos va munosibligi uning samaradorligiga kafolat beradi, aksincha holatlarda esa bunday samaradorlikka ko'z tutish ertakdan boshqa narsa bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda dars samaradorligining asosiy omili talabalarning bilih faoliyatini tashkil etish bilim mohiyati va uni egallahsga qaratilgan shakl va usullar birligidan iborat bo'lishi kerak. Shundagina qo'yilgan maqsadning aniq natijasi haqida gapirish mumkin bo'ladi. Tasavvurimizning oydinlashishi uchun ayrim misollarni keltirish joiz ko'rindi:

Ma'lumki, o'rtal umumta'lim maktab talabalari uchun mo'ljallangan "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani darsliklari mazmuni va vazifasi jihatidan mafkuraviy adabiyotlar hisoblanadi. Ilmiy nuqtai nazardan mafkuraviy adabiyotlar ikki turga ya'ni:

- Mutaxasislar (bevosita mafkuraviy ish bilan shug'ullanuvchilar)ga mo'ljallangan adabiyotlarga;
- Nomutaxasis ya'ni, keng omma (jumladan, talabalar)ga mo'ljallangan adabiyotlarga bo'linadi.

Mazkur turdag'i adabiyotlar bir biridan ham shakl ham mazmun jihatdan farqlanadi. Birinchi turdag'i adabiyotlar mutaxasislar (bevosita mafkuraviy ish bilan shug'ullanuvchilar)ga mo'ljallanganligi uchun ularda g'oya, g'oyaning turlari, bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi va bu manzaraning yaqin kelajakdagi o'zgarishlari to'g'risidagi ilmiy prognozlar, mafkura va uning tuzilishi hamda muayyan g'oyani kishilar ongiga singdirish metodlari aniq, ravshan bayon etiladi.



Ikkinci turdag'i adabiyotlar esa nomutaxasis ya'ni, keng omma (jumladan, talabalar)ga mo'ljallanganligi uchun ham ularda *g'oya, g'oyaning turlari, mafkura va uning tuzilishi hamda muayyan g'oyani kishilar ongiga singdirish metodlari* aniq, ravshan bayon etilmaydi (!). Aksincha bunday ma'lumotlar yashirin tarzda, o'ta metodik ustalik bilan o'quv adabiyotga joylanadiki, natijada bu ma'lumotlarni qabul qilish keng omma ya'ni, nomutaxasis (jumladan, talaba)lar uchun qiyinchilik tug'dirmaydi.

O'z o'zidan ikkinchi turdag'i adabiyotlarni yaratilishiga qanday yondashish kerak degan tabiiy savol tug'iladi? Aytish lozimki, birinchi turdag'i adabiyotlarga qaraganda ikkinchi turdag'i adabiyotlarni yaratish ancha murakkab jarayondir. Unda avvalo, auditoriya joylashgan makon(hudud), auditoriyaning mentaliteti, yoshi, qiziqishlari va boshqa shu kabi jihatlari inobatga olinishi va shundan keyin, darslik mavzulari tanlanishi hamda ishlanishi lozim. Mavzular bayoniga kelganda quruq ma'lumot beruvchi qismlarni chiqarib tashlash va mavzu bayonini "**g'oya demasdan g'oyani – singdirish**" tamoyiliga asoslangan holda yaratish lozim. Bu degani, yuqorida aytganimizdek, talabalar (ya'ni, mutaxassis bo'limganlar) ga mo'ljallangan o'quv darsliklarida *g'oya, g'oyaning turlari, mafkura va uning tuzilishi hamda g'oyani kishilar ongiga singdirish yo'llari va usullari* haqida to'xtalmasdan, aksincha bu darsliklarni talabalar yoshi va qiziqishlariga mos mavzular kiritilishi (shu mavzular ichiga albatta bunyodkor g'oyalari singdirilgan bo'lishi) maqsadga muvofiqdir.

O'rta umumta'lim mакtabning 7, 8, 9-sinf talabalari uchun mo'ljallangan "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani darsliklari³⁷ (o'yashimizcha o'qituvchi, mutaxasislar uchun emas) talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, u ikkinchi turdag'i adabiyotlar sirasiga kiradi. Lekin, darsliklar mazmunida ko'proq yashirin tarzda berilishi, singdirilishi lozim bo'lgan jihatlar oshkora, quruq ma'lumot bayoni sifatida berib o'tilgan. Masalan: 8-sinf darsligini oladigan bo'lsak unda Milliy mafkuramizning bosh va asosiy g'oyalari sonma son sanalib, har biri alohida mavzu sifatida tanlangan va bu mavzularga tegishli ma'lumotlar ochiq, oshkora tarzda bayon etilgan. Bu hol har uchala darslikda ham mavjuddir. Bizningcha bu darsliklarning metodik kamchiligi bo'lib, bu "**g'oya demasdan g'oyani – singdirish**" tamoyiliga zid keladi.

Darsliklardagi o'nglanishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni bizningcha quyidagi yo'llar bilan bartaraf etish lozim:

³⁷Qarang:M.Qarshiboev, S.Nishonova, O.Musurmonova,M.Qarshiboev. "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari", 7-sinf. Toshkent., "Ma'naviyat" 2011.

R.Qo'chqorov, S.Nishonova, O.Musurmonova, M.Qarshiboev. "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari", 8-sinf. Toshkent., "Ma'naviyat" 2011.

O. Musurmonova, Murtazo Qarshiboev, Rahmon Qo'chqorov. "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari", 9-sinf. Toshkent., "Ma'naviyat" 2011.

- “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” fani darsliklarini mafkuraviy adabiyotlar sifatida qarab ularni ikki turga ya’ni, mutaxasislar (ya’ni, shu fan o‘qituvchilari)ga mo‘ljallangan adabiyotlarga va nomutaxasis (ya’ni, talabalar)ga mo‘ljallangan adabiyotlarga bo‘lish lozim;

- Mutaxasis o‘qituvchilar uchun alohida “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” fani bo‘yicha metodik qo‘llanma (*sinf darsliklariga mos va sinflar kesimida*) yaratilishi va unda mavzular ochiq, oshkora bayon etilishi, mavzuga mos metodlar keltirilishi hamda iloji boricha har bir mavzu bo‘yicha video, multimediya maxsulotlari diskka joylab, shu qo‘llanma ichda o‘qituvchiga yetkazilishi kerak;

- Talabalarga mo‘ljallangan o‘quv darsliklarida iloji boricha g‘oya, g‘oyaning turlari, mafkura va uning tuzilishi hamda g‘oyani kishilar ongiga singdirish yo‘llari haqida to‘xtalmasdan, Milliy g‘oyani singdirishga yo‘naltirilgan “muammoli vaziyatlar taxlili”, “munozaraga yo‘naltirilgan voqealar matni”, “mustaqil o‘qishga mo‘ljallangan matnlari” kabi ma’lumotlarni kiritish lozim.

- Talabalarga mo‘ljallangan o‘quv darsliklari mavzuga daxldor foto suratlar (faqt ijobiy, chiroyli suratlar bilan emas balki, inson tubanlashuvining oqibatlarini ko‘rsatib beruvchi rasmlar) bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir.

“Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” darsliklarini tayyorlanishiga yuqorida aytib o‘tilgan jihatlarga e’tibor qaratilishi mazkur darsliklarni yanada mukammallahuviga, yangi avlod darsliklarini vujudga kelishiga olib keladi. O‘qituvchilarga ham talabalarga ham mo‘ljallangan qo‘llanma va darsliklarni yaratilishi “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” darsini ilmiy va metodik jihatdan sifatini oshishini ta’minlaydi. Bu esa, talabalarni g‘oya yoki mafkura to‘g‘risidagi ma’lumotlarni quruq eshitishdan ko‘ra, g‘oya tushunchasini, uning kuchini, bugungi dunyodagi mafkuraviy jarayonlarni hamda bu jarayonlarda qanday yo‘l tutish lozimligini jonli mushoxada bilan anglash imkonini beradi.

3. Globallashuv sharoitida milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o‘qitishga qo‘yilayotgan talablar

Bugungi globallashuv davrida ta’lim – tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari(AKT) dadil kirib kelishi ustoz-murabbiylar zimmasiga katta ma’suliyat yuklamoqda. Davr bilan hamnafas qadam tashlash zamonaviy pedagoglardan izlanuvchanlik, ijodkorlik, o‘z mahoratini muntazam oshirishni taqozo etadi.

Chunki, hozirgi dunyoda amalga oshayotgan global o‘zgarishlar ta’lim va tarbiya sohasiga ham o‘zining ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bu bir tomonidan, global o‘zgarishlarni ob’ektiv jarayon sifatida inson hayoti sohalariga ta’sirini xolisona o‘rganishni taqozo etadi. Ikkinchidan, global o‘zgarishlar ta’lim-tarbiya jarayonlariga ham o‘zining ta’sirini ko‘rsatayotganligi sababli uning bilan bog‘liq bo‘lgan yutuq va



muammolarni bilish va tegishli xulosalar chiqarish amaliy ahamiyatga ega. Globallashuv ta'lim-tarbiyaning axborot kommunikatsiya tizimi, internet tarmoqlari va zamonaviy pedtexnologiyalar bilan bog'liq yangi imkoniyatlar yaratib bermoqda. Ta'limni an'naviy usullari o'rnida intefao'l usullarni qo'llash orqali uni samaradorligiga erishish dolzarb bo'lib turibdi. Chunki, hozirgi davrda g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar globallashib, yer yuzidagi barcha mintqa va mamlakatlarni qamrab olib, integratsiyalashish, globallashish, differesiyalashish, intensivlashish kabi xususiyatlarni namoyon qilmoqda.

Qolaversa, globallashuv jarayonining ayniqsa tarbiya sohasiga ko'rsatayotgan ayrim g'arazli nosog'lom g'oyaviy-mafkuraviy muammolarni ham keltirib chiqarmoqdaki, uni hisobga olmaslik mumkin emas.

Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, bu voqeа bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas.

"Globallashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihat shundan iboratki, - deb ta'kidlaydi I.Karimov, - hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar"³⁸.

Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega³⁹. Bu masalaning kishini doimo ogoh bo'lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab yetish nihoyatda qiyin.

Mana shunday vaziyatda odam o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli ma'naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi ta'siriga bardosh berishi amrimahol. Buni kundalik hayotda uchrab turadigan ko'plab voqealar misolida yaqqol kuzatish mumkin va ularning qanday og'ir oqibatlarga olib kelishi hammaga ma'lum.

Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio-televiedenie, matbuot, Internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda yoshlarni ushbu vositalarni qo'llamaslikka chaqirish ham to'g'ri kelmasligi ushbu asarda quyidagicha izohlanadi: "Biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat

³⁸ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008, - 113-b.

³⁹ O'sha joyda.



qurish vazifasini o‘z oldimizga qat’iy maqsad qilib qo‘yganmiz va bu yo‘ldan hech qachon qaytmaymiz”⁴⁰.

Yoshlarimizning ma’naviy olamida bo‘shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur.

Bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin.

Globallashuv sharoitida inson, ayniqsa, yoshlar qalbi va ongi uchun kurash borgan sayin shiddatli tus olib, dunyoning mafkuraviy manzarasi tubdan o‘zgarib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’biri bilan aytganda: “...Biz bugun axborot globallashuvi davrida yashayapmiz. Biz istaymizmi, yo‘qmi, yurtimizga turli ko‘rinishdagi axborot xurujlari bo‘lishi tabiiy. Ana shunday xurujlarga qarshi aholida, ayniqsa, yoshlarda immunitetni mustahkamlash, ularni milliy qadriyatlarimiz va istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashda televideenie va radioning o‘rni beqiyosdir”⁴¹, deya ta’kidlaganlariga eng avvalo milliy g‘oya sohasi vakillari alohida e’tibor qaratishlari zarur.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida ayniqsa ma’naviy – ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishda zamонавији usul va vositalardan foydalanishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda talaba va o‘qituvchi hamkorligi juda muhim rol o‘ynaydi. Talabada bu texnologiyalardan foydalanishda zamонавији usul mohiyatini his qila olish qobiliyati kuchli bo‘lishi kerak. Talabada bu qobiliyatni shakllantirish esa mazkur fan o‘qituvchilaridan ijodkorlik va mahorat talab etiladi.

Buning uchun qator ishlar tashkil qilinishi lozim, jumladan:

- taniqli olimlar va ijodkorlar, shu fan bo‘yicha tuman(shahar), viloyat yil o‘qituvchilari bilan uchrashuvlar;
- yangi texnologiyalardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish;
- akadem guruhlarda zamонавији texnologiyani aks ettiruvchi mo‘jazgina ko‘rgazmalar tashkil qilish;
- AKT imkoniyati va qurilmalaridan samarali foydalana olishi.

Bugungi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylangan kunda, istagan joyda turib dunyoning narigi chekkasidagi odam bilan muloqatga kirishish imkoniyati tug‘ilgan. Yurtimizda internet tizimi yanada rivojlanmoqda, asosiysi undan “Istaganingcha yasha, senga hech kim xo‘jayin emas,

⁴⁰ O‘sha joyda.

⁴¹ Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017, 25-6.



sen erkinsan. Xohlaganingni qil, istaganing bilan yur” qabilida foydalanmaslik zarur. Yoshlarni “ommaviy madaniyat”ning “Istaganingcha yasha, senga hech kim xo‘jayin emas, sen erkinsan. Xohlaganingni qil istaganing bilan yur” qabilidagi fikrlar, g‘oyalar orqali targ‘ib qilinmoqda, o‘z ta’sir doirasini kengaytirish, kishilik ongini boshqariga urinmoqda.

Ta’lim muassasalarimizda talabalarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Prezidentimiz aytganidek, jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o‘rab-chirmab, uni o‘qima, buni ko‘rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o‘rab olish, hech shubhasiz, zamon talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to‘g‘ri kelmaydi. Eng avvalo yoshlarga to‘g‘ri bilim berib, ularda ko‘nikma va malakani to‘g‘ri shakllantirib borish lozim.

4. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi va g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish imkoniyatlarining kengayishi, uslub va vositalarining takomillashuvi, yangi texnik va texnologik tizimlarning yuzaga kelishi

Hozirgi davrda glaballashuv jarayonida bilimlar majmuasi va axboratlar, turli xil adabiyotlar shu qadar ko‘payib ketdik, ularni malum ajratilgan soatda o‘zlashtirib olish qiyin. Shu sababli yeng zarur bilimlarni egallah uchun o‘qitishning turli xil texnologiyalari va metodlari yuzaga kelmoqda ularni saralab turmushda qo‘llash asosiy vazifadir.

“O‘qitish texnologiyasi” tushunchasi ilk bor 1970 yilda YuNESKO konferensiyasida yangradi. Shu tashkilot tomonidan nashr qilingan “Yashash uchun o‘qish” nomli ma’ruzada yuqoridaq atama ta’limiy jarayonni modernizatsiyalashda harakatlantiruvchi kuch sifatida aniqlandi. “Qanday o‘qish kerak?” nomli ma’ruzada esa birinchi marta unga ta’rif berildi. Unda o‘qitish texnologiyasi informatsion inqilob natijasida paydo bo‘lgan va didaktikada foydalanadigan inson o‘rtasida aloqa (muloqot) usul va vositalari yig‘indisi sifatida tavsiflanadi.

O‘zbekistonda pedagoglar N.Sayidahmedov, U.Tolipov, U.Nishonaliev, A.Ochilov, N.Azizzo‘jaevalar o‘qitish texnologiyasi muammolari bilan shug‘ullanib, bu sohaga munosib hissa qo‘shib kelmoqdalar. V.P.Bespalko, M.V.Klarin, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin, T.Shopavalenko, A.Monaxov, D.Blok, B.Blum, T.Gilbert, R.Maydtir kabi chet ellik tadqiqotchilar xizmatini ham e’tirof etish zarur. Albatta, olim va mutaxassislarning qarashlari bir-biriga mos kelmasligi tabiiydir. Ba’zilari o‘qitish texnologiyasini pedagogika fani sifatida qaraydi.

Zamonaviy pedagogikada o‘qitish texnologiyasining asosiy tavsifi sifatida uning tizimliligi, ilmiyligi, qayta tiklanuvchanligi, qo‘shiluvchanligi, samaradorligi, sifat va



motivlashganligi, algoritmlashganligi, axborotliligi, nusxa olish imkoniyati, yangi sharoitga ko'chirish mumkinligi kabi jihatlariga e'tibor qaratiladi.

Jamiyat, madaniyat va ta'lim rivojlanayotgan, globallashuv tobora keng avj olayotgan bugungi kunda milliy g'oya va ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda ta'limiy innovatsiyalar tatbiqini yaxshilash, ulardan foydalanish metodikasini ishlab chiqish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini innovatsion yo'naltirishning zarurligini quyidagi holatlar belgilaydi.

- Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlar ta'lim sifatini yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarish zarurligini taqazo etadi. Bunda pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish, foydalanish va ta'lim jarayoniga tatbiq etishni o'z ichiga olgan o'qituvchilar pedagogik faoliyatining innovatsion yo'nalanganligi ta'lim siyosatini yangilash vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

- Ikkinchidan, ta'lim mazmunining insonparvarlashuvi, o'quv predmetlari hajmi va tarkibining o'zgarishi ta'limning yangi tashkiliy shakl va texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etilishini talab etadi.

- Uchinchidan, o'qituvchilarning pedagogik yangiliklarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishga bo'lgan munosabatlari o'zgarib bormoqda. Avval innovatsion pedagogik faoliyat, asosan yuqorida taklif etilgan yangiliklarni ta'lim jarayoniga joriy etish bilan cheklangan bo'lsa, hozir u tanlanadigan tadqiqot xarakteriga ega bo'lib bormoqda. Shuning uchun, ta'limni boshqarish tashkilotlari faoliyatida o'qituvchilar tomonidan ta'lim amaliyotiga kiritilayotgan pedagogik innovatsiyalarini tahlil qilish va baholash, ularni ishlab chiqish va tatbiq etish uchun qulay ta'limiy sharoit yaratish muhim yo'nalishga aylanmoqda.

Zamonaviy ta'lim amaliyotida "ta'limda innovatsiya", "pedagogik innovatsiya", "ta'limni modernizatsiyalash" kabi atamalardan keng foydalilanadi. Ta'limni modernizatsiyalash ta'lim sohasidagi davlat siyosati, davlat miqyosida ta'limni rivojlantirish strategiyasi bilan bog'liq bo'lib, ta'lim sohasidagi modernizatsiya masalalari davlat strukturalarining tashabbusi bilan yechiladi. Pedagogik innovatsiyalar esa ilmiy maktablarda, ta'lim amaliyotida hamda olim va pedagoglarning ijodiy faoliyati natijasida vujudga keladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim jarayonlari sifat va samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlashda "yangilik", "yangilik kiritish", "yangilanish", "innovatsiya", "innovatsion faoliyat", "innovatsion jarayon", "innovatsion madaniyat" kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini izohlash muhim ahamiyatga ega. Yangilik har tomonlama o'ylab chiqilgan, rejorashtirilgan, o'quv jarayoniga maqsadli kiritilayotgan hamda mazkur ko'rinishda avval uchramagan yangi ta'limiy amaliyot (yangi tartib, uslub, metod, metodologiya, texnologiya va b.) hisoblanadi.

O'qituvchilar pedagogik faoliyatining innovatsion yo'nalgaligini shakllantirishda u yoki bu yangiliklarning samaradorligini aniqlash imkonini beradigan bir qator mezonlardan foydalanish lozim.

Pedagogik innovatsiya mezonlariga quyidagilar kiradi:

- yangilik;
- optimallik;
- yuqori natijaviylik;
- innovatsiyalarni ommaviy tajribada ijodiy qo'llash imkoniyati.

Ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlari sifat va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan pedagogik innovatsiyaning asosiy mezonı **yangilikdir**.

Shuning uchun, innovatsion pedagogik jarayonda ishtirok etishni istagan milliy g'oya yoki milliy g'oya va ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlarfani o'qituvchisi taqdim etilayotgan yangilikning mohiyati nimada ekanligi hamda yangilikning darajasini aniqlab olishi muhim hisoblanadi. Chunki ba'zi o'qituvchilar uchun bu haqiqatan yangilik bo'lishi, boshqalar uchun esa bunday hisoblanmasligi mumkin. Shu bois, o'qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga jalb etish jarayoniga ularning xohishi, shaxsiy va individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish kerak.

Yangilik quyidagi bosqichlarga (darajalarga) bo'linadi: absolyut, lokal-absolyut, shartli, sub'ektiv, taniqlik darajasi va qo'llanish sohasi bilan farqlanuvchi.

Optimallik pedagogik innovatsiya samaradorligini aniqlovchi mezon sifatida belgilangan natijaga erishish uchun o'qituvchi va talabaning sarflagan kuch va vositalarini belgilaydi. Turli o'qituvchilar o'zining va talabalarning mehnat intensivligi turlicha bo'lganida bir xil natijaga erishishlari mumkin. Ta'lim jarayoniga kam kuch va vaqt sarflab pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etish va yuqori natjalarga erishish uning optimalligidan dalolat beradi.

Yuqori natijaviylik pedagogik innovatsiyaning mezonı sifatida o'qituvchilar faoliyatidagi ijobiyligi natjalarning turg'unligini belgilaydi. Baholashdagi texnologiyalilik, natjalarning kuzatilishi va belgilanishi, tushunish va bayon etishdagi bирyoqlamalilik ta'lim-tarbiyaning yangi usul va uslublarining ahamiyatini baholashda mazkur mezonning muhimligi ko'rindi. pedagogik innovatsiyaning yuqori natijaviylik mezonining qimmati barkamol shaxsni shakllantirishni ta'minlash hisoblanadi.

Ommaviy tajribada innovatsiyalarni ijodiy qo'llash imkoniyatlari mezonini pedagogik innovatsiyalarni baholash mezonı sifatida ifodalash mumkin. Ommaviy pedagogik tajribada innovatsiyalarni ijodiy qo'llash alohida o'qituvchilar faoliyatining boshlang'ich bosqichida tasdiqlanadi. U tajriba-sinovdan o'tganidan va ob'ektiv baholanganidan so'ng ommaviy tatbiq etishga tavsiya etilishi mumkin.

O'qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash, ularning innovatsion madaniyatini rivojlantirishda o'qituvchilarda quyidagi elementlarning mavjudligi muhim hisoblanadi:

- o'qituvchilarning yangiliklarni qabul qilishga tayyorligini tavsiflovchi motivlar, qarashlarning mavjudligi, ularda innovatsion yo'nalanlikning shakllanganligi;
- kreativlik va individuallik, faoliyatli o'zini anglash kabi ijodiy qobiliyatlarning mavjudligi;
- o'qituvchilarda pedagogik madaniyatning rivojlanganligi;
- o'qituvchilarda an'anaviy topshiriqlarni variativ uslubda amalga oshirishni ta'minlaydigan texnologik komponentning shakllanganligi;
- o'qituvchilarda innovatsion jarayonda o'zi va mazkur jarayondagi o'rni haqida adekvat tasavvur hosil qilishga ko'maklashuvchi refleksiyaning mavjudligi.

Innovatsion madaniyatga kasbiy hodisa sifatida qarash maqsadga muvofiq. Chunki madaniyat kasbning xususiyati bilan bog'liq bo'lib, mutaxassis qaysi sohada faoliyat ko'rsatishidan qat'i nazar, jamiyat hayotidagi turli sohalarga, ya'ni mehnat, maishiy xizmat, dam olish, ta'lif va muloqat sohalariga yangiliklarni kiritadi.

O'qituvchilarning **umummadaniy sifatlariga** ma'naviy, fuqarolik sifatlar va eruditsiya (bilimdonlik) kiradi.

O'qituvchilarning yuqori darajali samara beruvchi yangiliklarni ta'lif jarayoniga tatbiq etishga ko'maklashuvchi **kasbiy sifatlariga** quyidagilar kiradi:

- o'qituvchilarning o'z predmetini biliishi;
- texnologik madaniyatga egaligi;
- psixologik madaniyatining rivojlanganligi.

Pedagogik faoliyatni innovatsion yo'naltirishning asosiy omillaridan biri o'qituvchilarda muayyan shaxsiy sifatlarning rivojlanganligi hisoblanadi. Shuning uchun, o'qituvchilarning innovatsion madaniyatini shakllantirishda unda qanday shaxsiy sifatlar rivojlangan bo'lishini aniqlashtirib olish lozim.

Ishlab chiqilgan umumiyl o'rta ta'lif maktab o'qituvchilarining innovatsion madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmida o'qituvchilarning uchta shaxsiy xususiyatlari ajratib olindi. Bularغا quyidagi **shaxsiy sifatlar** kiradi:

- o'qituvchilarning talabalarga rivojlanayotgan sub'ekt sifatida munosabatda bo'lishi;
- o'qituvchilarda insoniy o'zaro munosabat madaniyatining rivojlanganligi;
- o'qituvchilarning o'ziga rivojlanayotgan sub'ekt sifatida qarashi.

O'qituvchining innovatsion madaniyatini quyidagi o'zaro bog'liq komponentlar yig'indisi sifatida qarash maqsadga muvofiqdır. Bular, texnologik, faoliyatli, kommunikativ, shaxsiy-ijodiy komponentlar.

5. Talabalar o'rtasida milliy mustaqillik g'oyalari asosida ma'naviy- axloqiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish prinsiplari

Milliy g'oya, milliy g'oya va ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlarturkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda o'qituvchidan alohida mahorat, bilim, ijodkorlik talab etiladi.

Mavzular dalillar aniq misol turli rivoyat, hikoyat, voqealar bayon etilishi maqsadga muvofiqdir. Milliy g'oya, milliy g'oya va ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlarturkumiga kiruvchi fanlarni o'zlashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyani, pedagogik xamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib ularga quyidagilar kirdi:

- talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga qiziqtirish;
- talabalarning o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishni ta'minlash;
- talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda xar bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirish;
- pedagog va talaba talabaning hamisha xamkorlikdagi faoliyatini takomillashtirish.

Pedagogik texnologiyaning asosiy negizi bu o'qituvchi va talaba-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'kitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, jaryonida talaba talabalar: mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zлari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruuhga, guruuh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatları uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Talabalar quyidagi ta'lim prinsiplarini bilishlari va uni amaliyotda qo'llay olishlari shart: mazmun, metod, og'zaki (verbal), yozma test shakllari, amaliy (seminar), ma'ruza, laboratoriya. Vositalari: kompyuter, kinoskop, kodoskop, kinoapparat, videomagnitofon, display, tarqatma material, usul, chizmalar, yozmalar, yozma materiallar, ped texnologiyalar.

Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni bu maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyhalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Jarayon: o'qituvchi talaba-talaba. Maqsad: mazmun – metod – shakl – vosita – natija.

Maqsadni amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishishi, ham o'quv hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun metod, shakl vositaga ya'ni texnologiyaga bog'liq.

Milliy g'oya, milliy g'oya va ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlarturkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishning asosiy vazifalaridan biri talabalarda asosiy tushunchalarni shakllantirishdir.

Tushuncha – bu predmet to'plamlarining muxim, umumiyligi belgilari to'g'risidagi fikrdir. Tushuncha talabalarda predmet va xaqiqiy olam hodisalarining hissiy obrazlari bo'lgan tasavvurlarni umumlashtirish asosida vujudga keladi.

Masalan: ma'naviyat, ma'rifat tushunchalari orqali idrok qilish bilan talabalar ma'no, bilim, rux to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladilar.

Bu tushunchalarning rang – barang xossalarni e'tiborga olib, bu tasavvurlarni taqqoslab talaba uning umumiyligi, muxim xossalarni umumlashtiradi.

Bu misoldan ko'rinadiki, tushunchalarning shakllanish usullaridan biri qaralayotgan predmetlar to'plamiga mos bo'limgan xar xil belgilarni chiqarib tashlab, umumiyligi, muximiyligi, belgilarni saqlab qolishdan iboratdir.

Bu tushunchalar orasida bog'lanish tushunchalar ta'rifida uning yaqin turi va ko'rnishini farqlarini ko'rsatish bilan ifodalash mumkin.

Masalan: ma'naviyat, ma'rifat tushunchalarining shakllanishidan tashqari fanlararo munosabatni aniqlash ham muximdir.

Masalan: aniq tushunchalar qaralayotgan ob'ektlar orasidagi munosabatlarni o'rnatish bilan shakllanadi. Ma'naviyat, marifat, madaniyat, milliy istiqlol g'oyasi, milliy g'oya, mafkura, axloq, tushunchalariga umumiylilik sifatida qaraladi.

1. Talabalarning o'quv faoliyatiga rahbarlik qilish.

Darsda o'qituvchi talabalarni o'qitadi, talabalar esa o'qiydi degan fikrni boshqa so'zlarda quyidagicha ifodalash mumkin: talabalar o'quv, malaka va bilimlarni egallaydilar, o'qituvchilar esa bilimni egallash jarayoniga raxbarlik qiladilar.

Bu rahbarlik o'qituvchining talabalar o'quv faoliyatini tashkil qilishdan iborat bo'ladi. Buning uchun o'qituvchi kerakli material tanlaydi, uni ma'lum ketma-ketlikda joylashtiradi, talabalarga bilim manbalarini tavsiya kiladi, talabalarning o'zlashtirish bo'yicha faoliyatini tashkil etadi, bilimni o'zlashtirish jarayoni qanday o'tishini nazorat qiladi.

Talabalarning bilimlarni o'zlashtirish jarayoni qiyin jarayondir. Buni murakkab tushunchalarning vujudga kelishini xaqqoniyligini anglagandagina to'g'ri tushunish mumkin.

Milliy g'oya, milliy g'oya va ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlarturkumiga kiruvchi fanlarni o'qitish bilimlar va uning xaqiqatligi bizning atrofimizda turgan narsalarning mavjudligiga, uni kuzatish va tajribalarga bog'liq emas, kuzatish va tajriba bizga tushunchalarning hosil bo'lishiga mayl bag'ishlaydi. Lekin haqiqatni tasavvur qilishga asosan tushunchalar bizdan tashqaridagi narsalarning xossalarni aks



ettiradi. Kosmos tushunchasi yoki fazoviy olam tushunchasi bizdan tashqaridagi narsalarining xususiyatlaridan kelib chiqqan.

Tushunchalarning vujudga kelishini bunday tushunish yosh, maktab talabalarining tashqi olam ob'ektlariga xos bo'lgan fazoviy shakl, mikdoriy munosabatlarni o'rganishlarini tarbiyalaydi va tashqi olam haqidagi, kosmos xaqidagi tushunchalarning shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, talabalar mavjud bilimlarni, o'zlarining katta shaxsiy tajribalarida mustaqil munosabatning ta'siri bo'lgan xolda egallaydi.

O'qituvchi talabalarning bilimlarini aniqlaydi, ularni to'ldiradi va shu poydevorga yangi bilimlarni o'zlashtirishni tashkil etadi. Yangi bilimlarni bunday egallah, yangi fakt va tushunchalarni kuzatish asosida mustaqil ishlashi, shuningdek, kishilar tomonidan ishlangan bilimlarni egallah bilan olib borish mumkin. Bunda yangi bilimlarni egallah yangi va oldingi bilimlar orasidagi ta'riflangan tushunchalar va yangi faktlar orasidagi qarama-qarshiliklarni hal qilish asosida boradi. Tushunchalar talaba ongida o'zgarishsiz qolmasdan ular shaklan o'zgaradi, rivojlanadi.

Masalan: o'quv va hayotdagi amaliy tajribalar asosida predmetlarni taqqoslash, solishtirish shuningdek, bolalar asosiy belgilarni o'zlashtirib oladi. Shunday qilib, talabalarning o'qituvchi raxbarligida bilimlarni egallah jarayonini quyidagicha ifodalash mumkin:

- talabalarning shaxsiy xayotiy tajribasi va oldin egallagan bilimlari
- maktabda tashkil kilingan tajriba: kuzatish, laboratoriya va boshqa amaliy ishlar
- to'plangan tajriba, kitoblarda bosilgan bilimlar. Bilimlarni o'quv – amaliy va hayotiy – amaliy ishlarda qo'llash
- o'qituvchi va talabalar faoliyati orasidagi moslik.

Talabalarning bilim olishlari va o'qituvchining unga rahbarligini quyidagicha ko'rsatish mumkin.

O'qituvchining faoliyati:

1. Talabalarning bilimini so'rash, suhbat, hisoblash, amaliy topshiriqlar berish asosida talabalar bilimini aniqlash.

2. Ko'rgazmali qurol va vositalarni namoyish qilish va kuzatishni tashkil kilish.

Suhbat tushuntirishlarni bog'langan xolda bilimlarni bayon qilish, kitob bilan ishslashni uyushtirish.

Talabalarning o'quv – amaliy va hayotiy – amaliy ishlarni tashkil etish.


So'rash va amaliy ishlarni bajarish bo'yicha topshiriq berish yo'li bilan talabalar bilimini tekshirish.

Talabalar faoliyati:

1. O'qituvchi savollariga javob berish, yordamida topshiriqlar bajarish.

2. Tavsiya qilingan obektlar ustida kuzatish, taxlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, deduktiv xulosalar chiqarish.
3. O'qituvchining bayonini tinglash, kitob o'qish, faktlarni umumlashtirish va eslash.
4. Egallangan bilimlarni amaliy ishlarni bajarishga qo'llash, oldin egallangan bilimlarni o'zgargan sharoitda qo'llash.
5. O'qituvchining savollariga javob berish, amaliy ishlarni bajarish.

Milliy g'oya, milliy g'oya va ma'naviyat turkumidagi fanlarni o'qitish borasida bir qator fanlar orasidagi aloqadorlik.



Ushbu darslarida bilimlarning shunday puxta poydevorini qo'yish kerakki, bu poydevor ustiga bundan keyingi ta'limni uzluksiz davom ettirish mumkin bo'lsin.

Nazorat savollari

1. Milliy o'z-o'zini anglash deganda nimani tushunasiz?
2. Mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimovning o'zlikni anglash tushunchasiga bergen ta'rifini izohlang...
3. "Nodon xalqni boshqarish oson. Tentak odamlarni og'ir mehnatga majburlash oson. Aqli kishilarni esa mashaqqatli mehnatga jalb etish mushkuldir". – Ushbu fikrlar qaysi Xitoy mutafakkiriga tegishli?
4. Mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan keyin milliy o'zligimizni anglash necha yo'nalishda namoyon bo'lmoqda?
5. Biz nega milliy ong, milliy g'urur, milliy mafkura haqida jon kuydirib gapiramiz?

6. Bugungi kunda “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi” bakalavriat ta'lim yo'naliishi o'quv rejasining umumkasbiy va ixtisoslik fanlari blokiga kiritilgan fanlarni sanab o'ting va bugungi kunda ushbu fanlarga bo'lgan ehtiyojni asoslang...

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasidgi nutqi. 2020 yil, 23 sentyabr.//
<https://www.gazeta.uz/uz/2020/09/23/bmt/>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi//Xalq so'zi, 2020 yil 25 yanvar.
4. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.// Toshkent, Xalq so'zi. 2019 yil. 4 may. № 78.
5. Shavkat Mirziyoevning 2019 yil 8 apreldagi “O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi №5465 – son Farmoyishi//Xalq so'zi, 2019 yil, 9 aprel.
6. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiysi” loyihasi // <https://regulation.gov.uz/uz/document/10558>.
8. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. II jild. – T.: O'zbekiston, 1996.
9. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: O'zbekiston, 1999.
10. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. – T.: O'zbekiston, 2003.
11. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
12. Otamurodov S. Milliy g'oya - milliy tiklanish manbai. – “Tarix, mustaqillik, milliy g'oya”. -T.: Akademiya, 2000.
13. Zamonaviy dars. / Mas'ul muharrir Sh. Shomansurov – T.: A. Avloniy nomidagi xalq ta'lifi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy instituti, 2007.
14. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
15. Qarshiboev M., Nishonova S., Musurmonova O., Qarshiboev M. “Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari”, 7-sinf. – T.: “Ma'naviyat”, 2011.
16. Musurmonova O, Qarshiboev M, Qo'chqorov R. “Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari”, 9-sinf. – T.: “Ma'naviyat”, 2011.



17. Xoliqov I., Sobirova M., Masharipova G. “Ma’naviyat asoslari” fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o’qitish. – T.:TDPU, 2013.
18. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo’lajak o’qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo’llanma. – T.: TDPU, 2014. 6,5 b.t.
19. Tohiriyon A., Sobirova M., Zamonov Z. Milliy g‘oya turkumiga kiruvchi fanlarni o’qitishda interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. – T.: RTM, 2017.

4-mavzu: KOMPETENSIYaLARGA ASOSLANGAN TA’LIM. MAFKURAVIY KOMPETENSIYa VA UNI RIVOJLANTIRISHNING ZARURIYATI

Reja:

1. “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishidagi fanlar o’qituvchilarining dars jarayonlarida va ma’naviy-ma’rifiy ishlarda yangicha yondashuv va innovatsiyalar.
2. Kompetensiyaviy yondashuv va kompetensiya tushunchasi. Kompetensiyalarga asoslangan ta’lim.
3. Bugungi kunda professor-o’qituvchilarning mafkuraviy kompetentliligin shakllantirish zaruriyati.
4. Talaba yoshlarning ma’naviy va g‘oyaviy tarbiyasida pedagoglarning o‘rn va roli.
5. Professor-o’qituvchilarning imidj masalasi, nutqiy salohiyati, kundalik faoliyatda so‘z va amal birligi masalasi

Tayanch tushunchalar: Milliy g‘oya, dars, dars jarayonlari, kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, kompetensiyalarga asoslangan ta’lim, o’qituvchining umummadaniy sifatlari, o’qituvchining shaxsiy sifatlari pedagogning kasbiy kompetentligi, pedagogning g‘oyaviy kompetentligi, pedagogning mafkuraviy kompetentligi, pedagogning ma’naviy kompetentligi, imidj, o’qituvchi imidji.

1. Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishidagi fanlar o’qituvchilarining dars jarayonlarida va ma’naviy-ma’rifiy ishlarda yangicha yondashuv va innovatsiyalar

Bugungi kunda “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishidagi fanlar o’qituvchilarining dars jarayonlarida va ma’naviy-ma’rifiy ishlarda yangicha yondashuv va innovatsiyalar, yangiliklarga intilish talab etiladi.

Aslida innovatsiya insoniyat yaralgandan buyon mavjud. “Bizning ajdodlarimiz ham jamiyat hayotini o‘zgartirgan yoki oldinga siljitgan, o‘zлari yashagan davrga xos



yoki bazaviy innovatsiyalar bilan shug'ullangan. Masalan, eramizdan avvalgi 1200 yillarda temir quyish texnologiyasining yaratilishi insoniyat tarixida juda katta o'zgarishlarga sabab bo'lgan⁴². Shuni alohida ta'kidlash joizki, mamlakatimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan rennesans davrida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan kashfiyotlar hamda ilmiy farazlar O'zbekiston kelgusida dunyo tamadduniga navbatdagi salmoqli hissasini qo'shishini kafolatlaydi. Shuning uchun ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash orqali ushbu jahbada yuzaga kelgan bo'shlinqi to'ldirish vazifasi bugungi kunning dolzarb masalasi.

Ma'lumki, so'nggi 50 yil ichida axborot texnologiyalari sohasida ulkan innovatsion kashfiyotlar yaratildi. Texnologik kashfiyotlar axborotni uzatish va qayta ishlash xarajatlarini keskin pasaytirdi. Shu bilan birga, axborotning tezkorligi va ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada ko'tarildi. Ushbu tendensiya juda tez sur'atlarda rivojlandi. Bundan tashqari, ushbu sohadagi yutuqlar globallashuv jarayonini rivojlantirib, odamlarni muayyan tarmoqlar ichida birlashishiga, ya'ni tarmoq jamiyatlari, tarmoqlashgan ma'lumotlar bazalarini yuzaga keltirdi⁴³. Shu nuqtai nazardan ham bugungi kunda dars jarayonlarida va auditoriyadan tashqarida talaba yoshlarning innovatsion salohiyatini oshirish, buning uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yangiliklarga intilish, shuningdek, barcha sohalarda raqobatni kuchaytirish davrida innovatsiyalarni rivojlantirishning keng yo'llarini ochish jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir. Insoniyatning butun tarixiy yo'lidagi taraqqiyoti jamiyatning barcha a'zolari, ayniqsa, yoshlarning ta'lim va tashabbuskorligi bilan belgilanadi. Kelgusi yillarda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiysi jamiyatni innovatsion rivojlanish turiga, innovatsion inson kapitalini shakllantirishga o'tishni nazarda tutadi. Inson kapitalining sifatli va miqdoriy xususiyatlariga bog'liq asosiy elementi – yoshlar. Yoshlarni yaqin kelajakda jamiyat suyanishi mumkin bo'lgan, ijtimoiy yo'naliishlarni ishlab chiqadigan ijtimoiy-demografik guruh deb qarashimiz mumkin. Zamonaviy tadqiqotchilar yosh avlodni innovatsiya sohasi uchun muhim bo'lgan dinamizm (faoliyat), tadbirkorlik, tashabbuskorlik kabi fazilatlarga egaligini ta'kidlab, yosh avlodning innovatsion salohiyatini davlat taraqqiyoti yo'lida rivojlantirish va "joriy etish" zarurligini aytib o'tmoqdalar. Bugungi kunda innovatsion rivojlanish yo'liga o'tar ekanmiz, eng avvalo, investitsiyalarni jamiyatni yetakchi kuchi sifatida namoyon bo'layotgan yoshlarga joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning: "Xalqimiz

⁴² Murodxujaev X.A. Innovatsion rivojlanish – bu kelajak poydevori. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi sayti. URL: <https://stat.uz/uz/press-sluzhba/novosti-gks/3581-innovatsion-rivozhanish-bu-kelazhak-poydevori>.

⁴³ Leijten, J. Innovation policy and international relations: directions for EU diplomacy. Eur J Futures Res (2019) 7: 4. <https://doi.org/10.1186/s40309-019-0156-1> page 3



dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo'lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmaydi. Bu sohadagi o'zgarishlarni xalqimizga keng targ'ib etmasak, odamlarda ko'nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo'lolmaymiz. Shuning uchun ushbu faoliyatni zamon talablari darajasida rivojlantirish yangi vazirlik, qolaversa, ushbu markazning asosiy vazifasi bo'lishi kerak", deb ta'kidlashi ham bejiz emas.

Prezidentimiz tomonidan barcha hududlarda ilmiy salohiyatni tiklash va hududlarni kompleks rivojlantirishda intellektual salohiyatdan samarali foydalanish, yoshlarni innovatsion fikrlashga, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga faol jalb etish bo'yicha aniq vazifalar belgilab qo'yilmoqda.

Shunday ekan, avvalo, "innovatsiya" tushunchasiga alohida to'xtalib o'tsak. Innovatsiya bu bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatlari o'sish samaradorligini ta'minlash uchun joriy etilgan yangilikdir. Inson intellektual faoliyati, uning fantaziysi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi.

"Innovatsiya" atamasi lotincha "novatio" so'zidan olingan bo'lib, "yangilanish" (yoki "o'zgarish"), "in" qo'shimchasi esa lotinchadan "yo'nalishida" deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit "Innovatio" ko'rinishida tarjima qilsak – "o'zgarishlar yo'nalishida" deb izohlanadi.

"Innovation" tushunchasi ilk marta XIX asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo bo'ldi. "Innovatsiya" tushunchasi o'zining yangi hayotini "innovatsion kombinatsiyalar"ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o'zgarishlar natijasida XX asrning boshida avstriyalik va amerikalik iqtisodchi Y. Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900 yillarda iqtisodda ushbu terminni ilmiy muomalaga kiritgan dastlabki olimlardan biri edi⁴⁴.

Innovatsiyaga har qanday turdag'i yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarashimiz lozim. Keng tarqalgan yanglish fikrlashlarga qaramasdan innovatsiyalar kashfiyotlardan farq qiladi.

Innovatsiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farqi:

- ilm-fan – bu ma'lum mablag'larni bilimlar va g'oyalarga aylantirish;
- innovatsiyalar – bu bilimlar va g'oyalarni mablag'larga aylantirishdir;
- ixtiro – bu yangi konsepsiyanı yaratish demak;
- innovatsiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko'rsatish va uni muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirish.

⁴⁴ Terabayt.uz Internet saytidan ma'lumotlar.



Yuqoridagilardan kelib chiqib ta'kidlash lozimki, innovatsiyalar mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, intellektual salohiyatni takomillashtirish, yangi sanoat hamda moliyaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish sohasi faoliyatini kengaytirish, mahsulot sifatini oshirish, uning eksportbopligrini ta'minlashga doir vazifalarni hal etishda muhim o'rinni tutar ekan.

Ilg'or xorijiy tajriba, jahon ilm-fanining zamonaviy yutuqlari, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosida iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal innovatsion rivojlantirish hamda ushbu jarayonlarga yoshlarni keng jalb qilish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ilmiy-eksperimental ixtisoslashtirilgan laboratoriyalar, yuqori texnologiyalar markazlari va texnoparklar tashkil etishga alohida e'tibor qaratildi.

2. Kompetensiyaviy yondashuv va kompetensiya tushunchasi.

Kompetensiyalarga asoslangan ta'lim

Hozirgi kunda ta'lim sohasida "kompetensiya", "kompetensiyaviy yondashuv", "kompetentlilik" tushunchalari faol qo'llana boshladi. Bu tushuncha Yevropada birinchi marta 1596 yilda Vikipediya lug'atida ishlatilgan. Hozirda Vikipediyada elektron lug'atda "kompetensiya" tushunchasi "bu xodimning lavozim talablariga muvofiq ishslash qobiliyatidir"⁴⁵, deya izohlangan.

Aytish joizki, lug'atlarda ushbu so'zlarning ma'nolari turlicha izohlanadi. Jumladan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da kompetensiya so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi:

"**Kompetensiya**-(lot. Sompetere- layoqatli, munosib bo'lmoq). 1) Muayyan tashkilot yoki mansabdar shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi; vakolat. 2) Shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi".¹⁸

Ruscha-o'zbekcha tarjima lug'atlarida esa bu so'z quyidagicha sharhlanadi:

"**Kompetensiya-1.** Biror kishi yaxshi xabardor, omilkor bo'lgan soha; 2. yur. huquq (vazifa, ish) doirasi.";

"**Kompetensiya-1.** Biror kishi yaxshi xabardor bo'lgan soha yoki masala; 2. Vakolat, huquq ixtiyor; **Kompetentn/ыи,-ая, oe,-тен, -tna-yetarli** ma'lumotga ega bo'lgan, puxta bilimli, yaxshi biladigan, bilimdon, xabardor, omilkor; 2) asosli, e'tiborli, mo'tabar; 3) kompetensiyaga, ya'ni huquqqa ega bo'lgan; vakolatli;

⁴⁵ www.wikipedia.org/wiki/Kompetensiya.

¹⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008. -267-bet.



Kompetentnost-chuqur bilimga egalik; chuqur bilimga asoslanganlik, asoslilik; xabardorlik, omilkorlik.”¹⁹

Berilgan izohlar ta'lim sohasida kompetensiya so‘zini layoqat, kompetentlikni esa layoqatlilik deb, **ta’limga kompetensiyaviy yondashuvni** egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim yo‘nalishi, deb tushunish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim-egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish layoqatini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim bo‘lib, talabalarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qiladi.

Kompetensiyalar 2 asosiy turga: tayanch va xususiy kompetensiyalarga bo‘linadi. **Tayanch kompetensiyalar** insonning shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirisha olish, jamiyatda o‘z o‘rnini egallay olish, duch keladigan muammolarning yechimini hal eta olish, eng muhimmi, o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘la olish ko‘nikma-malakalarini tarkib toptirishga qaratiladi. Shundan kelib chiqqan holda, u

1) kommunikativ kompetensiya:

- jamiyatda o‘zaro muloqotga kirishish uchun ona tilini (yoki boshqa bir tilni) mukammal o‘zlashtirish va muloqotda samarali foydalana olish;
- o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish;
- ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;
- muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qila bilish va suhbatdoshini ishontira bilish;
- turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda konstruktiv qarorlarni qabul qila olish.

2) axborot bilan ishslash kompetensiyasi:

- mavjud axborot manbalaridan (*internet, televizor, radio, telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.*) foydalana olish;
- media vositalardan kerakli axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishslash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta’minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish;

¹⁹ Ruscha-o‘zbekcha lug‘at /O‘zSSR Fanlar akademiyasi A.S.Pushkin nomli Til va adabiyot instituti /1-tom. . – T.: O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi, 1983. – B.456.

- ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiyalarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish;

- kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish.

3) shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi:

- o‘zini shaxs sifatida muntazam rivojlantirib borish, jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

- hayoti davomida o‘qib-o‘rganish, bilimi, tajribasini mustaqil ravishda oshirib borish;

- o‘z hatti-harakatini adekvat baholash, o‘zini nazorat qila bilish, halollik, to‘g‘rilik kabi sifatlarga ega bo‘lish;

- o‘qib-o‘rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

4) ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

- jamiyatda bo‘layotgan voqeа, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish;

- o‘z fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish

- fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, huquqiy madaniyatga ega bo‘lish;

- kasbiy mavqeining o‘sishiga intilishi orqali jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga sahovatli bo‘lish.

5) umummadaniy kompetensiyalar

- Vataniga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish;

- badiiy va san’at asarlarini tushunish, ta’sirlana olish;

- kiyinish, yurish-turish va muomala-muloqot yuritishda madaniy me’yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish;

- umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni bilish va e’zozlash;

- o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik hususiyatlari, an’ana va marosimlarini hurmat qilish;

- xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini asrab-avaylash, jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

6) matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

- aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iktisodiy rejalarini tuza olish;

- shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda xisob-kitob bilan ish yuritish;

- kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qiy olish va foydalanish;

- inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalana olish.

Bundan tashqari, ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida talabalarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli **xususiy kompetensiyalar** ham shakllantiriladi.

Jumladan, milliy g'oya va ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda talabalardan **ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi**, **axborot bilan ishlash kompetensiyasi**, **kommunikativ kompetensiya**, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi bilan birga sotsiokulturologik, pragmatik kompetensiyalarni egallashlari ham talab etiladi.

1. Sotsiokulturologik (ijtimoiy-madaniy) kompetensiyada shu xalqning milliy xususiyatlarini bilgan holda yoki o'z milliy an'analari bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini shakllantirish hamda so'zlovchining kommunikativ maqsaddan kelib chiqqan muayyan nutqiy vaziyatga mos ifoda usulini tanlash imkoniyatini hosil qilish, ya'ni: o'zbek tilidagi salomlashish, murojaat shakllari, muomala odobi me'yorlarini ko'zda tutadi. Ushbu layoqat talabalarni o'z xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlarini, urf-odatlari va ularni o'zida aks ettirgan boy adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishish, ularni o'qib o'rganish, shundan kelib chiqib, xalqning tarixiy, madaniy hayotiga xos muhim lavhalarni, jahon milliy madaniyatiga hissa qo'shgan o'zbek xalqi vakillarining ijodiy merosini o'rganish orqali shakllantiriladi.

2. Pragmatik kompetensiya milliy g'oya va ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlar bo'yicha kundalik hayotida egallagan bilim, ko'nikmalarini asosida mustaqil ravishda muloqotga kirisha olish qobiliyatini, kommunikativ vaziyatlarda tushunmovchiliklar paydo bo'lganda takroran so'rash, uzr so'rash orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish, o'zaro suhbatlashish, suhbatga qo'shilish, egallangan bilimlarning amaliy imkoniyatlaridan o'rinli foydalana olish qobiliyatini shakllantirishni nazarda tutadi.

Qayd etilgan kompetensiyalar ta'lim oluvchilarda shaxsiy, ma'naviy, ijtimoiy, kasbiy ko'nikma-malakalarini tarkib toptirishga va egallagan bilimlarini turli hayotiy vaziyatlarda mustaqil qo'llashga qaratilgan layoqatlarini shakllantirishga olib keladi .

Qayd etilgan kompetensiyalar ham **umumta'limi maqsadni**, ham **tarbiyaviy maqsadni** ko'zda tutadi hamda ta'lim oluvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini turli hayotiy vaziyatlarda mustaqil qo'llashga qaratilgan **metakompetensiyalar** tarkib topishiga olib keladi. Biroq ko'zda tutilgan provard natijaga erishish uchun har bir ta'lim bosqichi bitiruvchilari uchun belgilangan kompetensiyalarning me'yoriy darajasi talablarini bajarilishini ta'minlash kerak bo'ladi.

3. Bugungi kunda professor-o'qituvchilarning mafkuraviy kompetentliligin shakllantirish zaruriyati

Har tomonlama yetuk, barkamol avlod tarbiyasi eng avvalo ta'lim tizimi xodimlaridan yuksak kasbiy kompetentlikni talab etadi. Xo'sh, "ta'lim tizimi xodimlarining yuksak kasbiy kompetentligi" deganda nimalar nazarda tutiladi?

Qayd etilganidek, hozirgi kunda ta'lim sohasida "kompetensiya", "kompetensiyaviy yondashuv", "kompetentlilik" tushunchalari faol qo'llanila boshlandi.

Pedagogning kasbiy kompetentligi pedagogik funksiyalarni muayyan tarixiy davrda qabul qilingan me'yorlar, standartlar va talablarga muvofiq bajarishga tayyorlik va qodirlikni belgilovchi kasbiy-shaxsiy xususiyatlarni ifoda etadi.

Kasbiy kompetentlik o'z faoliyat sohasida erkin mo'ljal olishni ko'zda tutadi. Kompetentlik uch muhim omil bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishni nazarda tutadi:

- boshqa odamlar bilan munosabatlar madaniyatini;
- o'z faoliyat sohasi haqida axborot olish ko'nikmasini;
- o'quv axborotini boshqalarga berish ko'nikmasini.

Shunday qilib, kasbiy-pedagogik kompetentlik quyidagi asosiy komponentlar bilan tavsiflanadi:

- shaxsiy-insoniy mo'ljal;
- pedagogik jarayonni tizimli idrok etish;
- o'z faoliyati sohasida mo'ljal ola bilish;
- pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirganlik.

Hozirgi murakkab davr, shiddatli jarayonlar ta'lim tizimi xodimlaridan yuksak kasbiy kompetentlik bilan bir qatorda mafkuraviy kompetentlikka ham ega bo'lishni talab etadi. Chunki barchamizga ayon bo'lgan bir haqiqat borki, u ham bo'lsa, ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim tizimi xodimlarining g'oyaviy bilimdonligi va mafkuraviy kompetentligini shakllantirmasdan turib yosh avlodni ma'naviy va g'oyaviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalab bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'z paytida qayd etganidek: "Tarbiyachi – ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak"⁴⁶.

Demak, «Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi» bakalavriat ta'lim yo'nalishida dars berayotgan, umuman, ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan

⁴⁶Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1993, 27-28-bet.

professor o'qituvchilarning mafkuraviy kompetentliligi deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

- o'zining mustaqil fikriga, g'oyasiga ega bo'lish;
- jamiyatda bo'layotgan voqeja, hodisa va jarayonlarning mohiyatini anglab yetish bilan bir qatorda ularga daxldorlikni his etish va shu jarayonlarda faol ishtirok etish;
- Vataniga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish;
- o'z fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish, fuqarolik munosabatlarda muomala, iqtisodiy, huquqiy madaniyatga ega bo'lish;
- jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga sahovatli bo'lish;
- o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik hususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish;
- xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini asrab-avaylash, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash;
- fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurasha olish fazilatiga ega bo'lish

Pedagogning mafkuraviy kompetentligi zamirida uning kasbiy ma'naviyatga ega bo'lish qobiliyati yotadi. Kasbiy ma'naviyat – insonning ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha bo'lib, u kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Ma'lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Insonning kasbga bo'lgan intilishi, qiziqishi, uni tashkil etish yo'lidagi fidoyiligi – kasbiy ma'naviyatdir.

Kasbiy ma'naviyat – ma'rifat va madaniyat bilan bog'liq. Kasbiy ma'naviyat talaba-yoshlarimizda tayyor holda vujudga kelmaydi. Unga muttasil o'qish, o'rganish, tajriba orttirish orqaligina erishiladi. Kasbiy ma'naviyat qanchalik boyib borsa, jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi. Kasbiy ma'naviyatli odam yashashdan maqsad nimaligini aniq biladi, umrini mazmunli o'tkazish yo'lini izlab topadi, muomala qilish madaniyatini egallaydi, har bir masalaga insof va adolat nuqtai nazaridan yondashadi. Vijdon nima, yolg'on va rost nima, or – nomus nima, halol va harom nima – bularning hammasini bir-biridan ajrata oladi, hayotda yomonlikka boshlovchi xatti-harakatlardan voz kechadi, yaxshilikka boshlovchi amallarni bajaradi.

4. Talaba yoshlarning ma'naviy va g'oyaviy tarbiyasida pedagoglarning o'rni va roli.

Ma'lumki, har bir jamiyatda o'qituvchi va murabbiylar mamlakatdagi ziyyolilar qatlamining asosini tashkil etadi va jamiyat mafkurasining ob'ekti bo'lgan yosh avlod



ongini shakllantiruvchi katta kuch hisoblanadi. Binobarin, ta'lim tizimini mafkurasiz tasavvur etib bo'Imaganidek, ta'limdagi mafkuraviy amaliyotni o'qituvchi va murabbiylarsiz ham ta'savvur etib bo'lmaydi. Hususan, bizning jamiyatimizdagi ta'lim jarayonida ham o'qituvchi va murabbiylar hamda Milliy mafkura o'rtaida mana shunday dialektik bog'liqlik mavjud.

Hozirda o'qituvchi va murabbiylar faoliyatini tashkillashtirish borasida amalgalashirilayotgan barcha islohotlarda mazkur bog'liqlik o'z aksini topmoqda. Bugungi kunda ushbu islohotlar natijasida mamlakatimiz ta'lim tizimi hamda o'qituvchi va murabbiylar faoliyatida tub sifat o'zgarishlar vujudga keltirildi.

Bugungi kunda ushbu tizimdagagi o'qituvchilar faoliyati o'zbek xalqini boy ma'naviy va moddiy merosini yosh avlodga yetkazishda, ularda bu merosdan faxr va g'urur tuyg'ularini kamol toptirishda hamda ularni jahon ilm-fan yutuqlaridan baxramand bo'lishida katta ahamiyat kasb etmoqda.

O'z o'rnida kasbiy ma'naviyatga mafkuraviy tarbiya orqali erishiladi. **Mafkuraviy tarbiya** inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, bugungi kunda o'quvchilarning mafkuraviy tarbiyasida ta'lim tizimi xodimlarining o'ni va roli tobora ortib bormoqda.

Bu yo'nalishda ta'lim tizimi xodimlariga bir qator talablar qo'yilmoqdaki, ularni amalgalashirish uchun tizimning har bir xodimidan alohida mas'uliyat talab etiladi.

Shulardan kelib chiqqan holda oliy ta'lim tizimida milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o'qitishda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim:

1. O'sib kelayotgan yosh avlodda vatanparvarlik tuyg'usini tarkib toptirish, ularda millat ruhi, g'ururi hamda Vatanga sadoqat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish.

2. Ularning qalbida milliy urf-odatlar, an'analarga hurmat hissini shakllantirish.

3. Har bir yoshning ma'rifatli va madaniyatli shaxs etib tarbiyalashga individual yondashish.

4. Buyuk Sharq mutafakkirlarining jahon svilizatsiyasi va madaniyatiga qo'shgan hissasi hamda ta'lim-tarbiyada erishgan yutuqlari bilan talaba yoshlarni muntazam tanishtirib borish orqali, ularda ajdodlarga munosib voris bo'lishga intilish tuyg'usini tarbiyalash.

6. Islom dini ta'limoti va undagi ma'naviy-ma'rifiy tushunchalarni talabalarning yosh xususiyati va intelluktal salohiyatiga qarab, dastur va darsliklarga kiritish.

7. Har bir talabaning mustaqil fikrlashiga va ijodiy izlanishiga yo'l ochib berish.



8. Talabalarda intizomlilik hamda qat'iyatlilik ruhini barqarorlashtirish.

9. G'oyalarning yosh avlod hayotida tutgan o'rnnini to'g'ri baholay olishlariga yo'naltirish.

10. G'oyalarning ichki turi mavjudligi borasida, vayronkor g'oyalarning xususiyati, shakl-shamoyili, kirib kelish yo'llari, ta'sir etish usullari va vositalari haqida muntazam ravishda o'quvchilarga ma'lumotlar berib borish.

11. Talaba yoshlarda vayronkor g'oyalarga qarshi kurasha olish ko'nikmalarini shakllantirib borish va hk.

Bugungi kun, bugungi davr voqeliklarita'lim tizimi xodimlaridan milliy mafkura sohasida nazariy-metodologik bilimga hamda amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarurligini taqozo etadi. Chunki, ta'lim sifatini yaxshilash bevosita o'quvvchilarga bog'liq.

5. Professor-o'quvvchilarning imidj masalasi, nutqiy salohiyati, kundalik faoliyatda so'z va amal birligi masalasi

Oliy ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan professor-o'quvvchilarning mafkuraviy kompetentligi xususida so'z yuritganda, ularning imidjiga, ya'ni, tashqi ko'rinishiga ham alohida e'tibor berish zarur. Chunki mafkuraviy tarbiyada o'quvvchining tashqi qiyofasi ham alohida ahamiyatga ega. Shu bois o'quvvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi)ga amal qilib, ta'lim-tarbiya jarayonida talabaning diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmaslikka, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o'zlashtirishga erishishi zarur.

Bundan tashqari bugungi kun o'quvvchisi nutqiy salohiyatga va salobatga ham ega bo'lishi kerak. O'quvvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:

- a). nutqning to'g'rili;
- б). nutqning aniqligi;
- в). nutqning ifodaviyligi;

г). nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rni bo'limgan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan holi bo'lishi, o'quvvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak;

- д). nutqning ravonligi;

nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish).



Bugungi kun o'qituvchisining o'z kundalik faoliyatida so'z va amal birligiga erishishi ham mafkuraviy kompetentlik mezonlaridan biri sanaladi. Zero o'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'zida bir qator sifatlarning tarkib topishiga erishishi zarur. Chunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni barataraf etishning uddasidan chiqa olishi zarur.

Talaba, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va to'la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, talaba (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e'tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi u bilan tillasha olishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrihohlik, samimiylilik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi zarur.

O'qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

Shu o'rinda e'tibor qaratish zarur bo'lgan yana bir masala ham borki, bu ham bo'lsa, pedagog xodimning pedagogik jamoa, ota-onalar va jamoatchilik fikrini ilg'ay olishi ilg'or va keng dunyoqarashga ega bo'lishidir. Zotan, professor-o'qituvchilarning g'oyaviy salohiyatga ega bo'lishi va mas'uliyatni doimo his qilishining yosh avlodni milliy g'oya va milliy hamda umuminsoniy g'oyalar ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati beqiyos.

Nazorat savollari

1. Insoniyatning butun tarixiy yo'lidagi taraqqiyoti nima bilan belgilanadi?
2. "Innovatsiya" atamasi qaysi tildan olingan va qanday ma'noni anglatadi?
3. "Innovation" tushunchasi ilk marta qachon paydo bo'ldi?
4. Innovatsiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farqi nimada?
5. Kompetensiya nima va ushbu tushuncha ilk marta qachon, qaysi lug'atda ishlatilgan?
6. Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv tushunchasining mohiyatini izohlang...

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.



2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasidgi nutqi. 2020 yil, 23 sentyabr.// <https://www.gazeta.uz/uz/2020/09/23/bmt/>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi//Xalq so'zi, 2020 yil 25 yanvar.
4. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.// Toshkent, Xalq so'zi. 2019 yil. 4 may. № 78.
5. Shavkat Mirziyoevning 2019 yil 8 apreldagi "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi №5465 – son Farmoyishi//Xalq so'zi, 2019 yil, 9 aprel.
6. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiysi" loyihasi // <https://regulation.gov.uz/uz/document/10558>.
8. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. II jild. – T.: O'zbekiston, 1996.
9. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: O'zbekiston, 1999.
10. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. – T.: O'zbekiston, 2003.
11. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
10. Ruscha-o'zbekcha lug'at /O'zSSR Fanlar akademiyasi A.S.Pushkin nomli Til va adabiyot instituti /1-tom. . – T.: O'zbek Sovet Ensiklopediyasi, 1983.
11. Xoliqov I., Sobirova M ., Masharipova G. "Ma'naviyat asoslari" fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish. – T.:TDPU, 2013.
12. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2014. 6,5 b.t.
13. Tohiriyon A., Sobirova M., Zamonov Z. Milliy g'oya turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. – T.: RTM, 2017.
14. Murodxujaev X.A. Innovatsion rivojlanish – bu kelajak poydevori. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi sayti.
15. Leijten, J. Innovation policy and internationalrelations: directions for EU diplomacy. Eur J Futures Res(2019) 7:

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-AMALIY MASHG'ULOT: MILLIY G'OYA VA MA'NAVIYAT ASOSLAR TURKUMIDAGI FANLARINI O'QITISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

Amaliy mashg'ulotda ko'rila digan masalalar mazmuni: Milliy g'oyaning ma'naviyat negizida shakllanishi, tahlili. Ma'naviyatning tarixiy taraqqiyot bosqichlari. Jamiyat, millat manfaatlarini aks ettiruvchi qarashlar. Milliy g'oyaning tarixiy va falsafiy ildizlari.

Milliy g'oya va siyosat. Milliy g'oya, ma'naviyat va yoshlar tarbiyasi. Mamlakatimizda milliy g'oya ta'limining joriy etilishi. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida", "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va va ma'naviy tarbiya yo'nalishlari.

1-ilova

Quyidagi tushunchalarni sharhlab bering:

- Milliy g'oya
- Milliy g'oyaning tarixiy-falsafiy ildizlari
- Ma'naviyat
- Siyosat
- Yoshlar tarbiyasi
- Ma'naviy-ma'rifiy ishlar
- Ma'naviy tarbiya yo'nalishlari

2-ilova

Munozara uchun savollar:

1. Milliy g'oya o'zining tarixiy, dunyoviy, falsafiy, diniy ildizlarini sanab o'ting...
2. Demokratiya qanday ma'noni anglatadi va siyosatshunoslar demokratiyaning nechta asosiy modelini ko'rsatadilar?
3. Juhon jamiatshunosligi kashf etgan qonuniyatlarga ko'ra, xalq o'z qo'lida to'plagan hokimiyatni necha usulda amalga oshiradi?
4. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida milliy g'oya ta'limining shakllanishi jarayonidagi birinchi me'yoriy-huquqiy hujjat qaysi?
5. O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun qachon qabul qilindi va uning asosiy maqsadi nima?



6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160 -sonli qarori qachon qabul qilingan? Ushbu qarorning mohiyatini izohlang...

3-ilova

ADABIYotLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi// Xalq so‘zi. 2017 yil 16 iyun.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidgi nutqi// Xalq so‘zi, 2017 yil, 21 sentyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi//Xalq so‘zi, 2018 yil 29 dekabr.
4. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori// Toshkent, Xalq so‘zi. 2019 yil. 4 may. № 78
5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yuk. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-jild. –T.: O‘zbekiston, 1999.
6. Karimov. I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T 8. – T.: O‘zbekiston, 2000.
7. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mastahkam irodasiga ishonaman. “Fidokor”. 2000 yil, 8 iyun.
8. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. 11-jild. – T.: O‘zbekiston, 2003.
9. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
10. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O‘FMJ, 2004.
11. Xo‘jamurodov I.R. Istiqlol va o‘zlikni anglash. – Milliy istiqlol mafkurasi va uning ta’lim-tarbiyatagi o‘rni. S., 1995.
12. Komilov N. Tasavvuf. Tavhid asrori. – T.: O‘zbekiston, 1999.
13. Otamurodov S. Milliy g‘oya - milliy tiklanish manbai. – “Tarix, mustaqillik, milliy g‘oya”. -T.: Akademiya, 2000.
14. Erkaev A. Milliy g‘oya mohiyati. – T.: Ma’naviyat, 2001.
15. “Ma’rifat” gazetasi, 2001 yil, 20 yanvar.
16. Ma’naviyat yulduzlari (Markaziy osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.
